

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA FAKULTETI

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA KAFEDRASI

Xolbo'tayev Ibrohim Qahramon o'g'lining

5110900 – “Pedagogika va psixologiya” yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr darajasini
olish uchun

**“YUQORI SINF O'QUVCHILARI VA OLIY O'QUV
YURTLARIDA YOSHLARNI KASBGA TAYYORLASHNING
IZCHILLIGI”**

mavzusida yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Rahbar: “Pedagogika va
psixologiya” kafedrasi o’qituvchisi
G. Qurbonova

Guliston – 2020

Bitiruv malakaviy ishi Guliston davlat universiteti rektorining 2020 yil 6 - maydagi 280-O sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan davlat attestatsiya komissiyasining _____- sonli yig‘ilishida muhokama qilindi va “_____” ball bilan_____ baholandi.

(a’lo, yaxshi, qoniqarli)

Bitiruv malakaviy ishi Pedagogika fakultetining 2020 yil _____ dagi _____ sonli ilmiy-uslubiy kengashi qarori bilan Davlat attestatsiyasi komissiyasiga himoya qilish uchun tavsiya etildi.

Fakultet dekani _____ J.Komilov

Bitiruv malakaviy ishi “Pedagogika va psixologiya” kafedrasining 2020 yil 30 maydagi 10-sonli yig‘ilishida muhokama qilindi va himoyaga tavsiya etildi.

Kafedra mudiri _____ D.E.Toshtemirov

BMI bajaruvchi 5110900 – Pedagogika va psixologiya yo‘nalishi 46-16 guruh talabasi _____ Xolbo’tayev Ibrohim Qahramon o’g’li.

Ilmiy rahbar: _____ “Pedagogika va psixologiya” kafedrasи о’qituvchisi G. Qurbonova

MUNDARIJA

KIRISH 3

Asosiy qism.

I BOB. Kasbga yo'naltirish,ta'lim va o'qituvchi – tarbiyalanuvchi munosabatlari

- | | |
|---|----|
| 1.1. Yuqori sinf o'quvchilari va talaba yoshlarni kasbga yo'naltirishda o'qituvchi shaxsi va ta'lim psixologiyasining o'rni | 12 |
| 1.2. Kasbga yo'naltirish va talaba – o'qituvchi o'rtasidagi bir – birini tushunish asoslari..... | 21 |
| 1.3. Kasbga yo'naltirishda ta'lim muhitining pedagogik va psixologik tavsiflari..... | 26 |

II.BOB.Yuqori sinf o'quvchilari va oliy o'quv yurtlarida yoshlarni kasb tanlash jarayoniga ta'sir etuvchi omillar va motivlar

- | | |
|---|----|
| 2.1. Kasb tanlashga ta'sir etuvchi asosiy omillar va Motivatsiya.... | 31 |
| 2.2. Kasbga yo'naltirish jarayonini individuallashtirish va differensiyalash..... | 38 |
| 2.3. Kasbga yo'naltirish jarayonida kasbiy qobiliyatlarni shakllanganligini diagnostika qilish..... | 42 |

III BOB. Uzluksiz ta'lim tizimida kasbga yo'naltirishning mazmun mohiyati

- | | |
|--|----|
| 3.1. Uzluksiz ta'lim tizimida kasbga yo'naltirish bosqichlari..... | 56 |
| 3.2. Kasb-hunarni mustaqil tanlashga tayyorlash modeli..... | 75 |
| 3.3. Maktabning yuqori sinf o'quvchilarini kasbni mustaqil tanlashga tayyorlash texnologiyasi..... | 81 |

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Hozirgi kunda davlatimiz va jamiyatimiz hayotida iqtsodiy, ijtmoiy, madaniy, siyosiy o'zgarishlar keng tus olmoqda. Bu o'zgarish va yangilanishlarga esa prezidentimiz Sh.Mirziyoyev va davlatimiz bosh bo'layotganligi bizni yanada quvontiradi. Faqatgina quvontiribgina qolmay katta mas'uliyatni ham yuklaydi. Respublikamizda amalga oshirilayotgan keng ko'lmandagi bunday islohotlar ta'lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimida ham jiddiy o'zgarishlarni amalga oshirishni taqozo etmoqda.

Jamiyatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning barchasida davlat tashabbuskor hisoblanib, rahbarlik qilmoqda. Uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimidagi yangilanishlar Oliy Majlisning 1997 yil 29 avgustda bo'lib o'tgan 1-chaqiriq 9-sessiyasida qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi" , 2017 – 2021 yillarga moljallangan "Harakatlar strategiyasi " talablari asosida amalga oshirilmoqda. Bozor iqtisodiyoti sharoitida zamonaviy kasb-hunarlargaga ega yosh kadrlarni tayyorlash, maktab bitiruvchilari va oliy ta'lim muassasalarida yoshlarni kasbga yo'naltirishning izchilligini ta'minlash uchun Respublikamizda umumiyligi o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va oliy kasbiy ta'lim tizimi bosqichlarini tubdan isloh qilish va rivojlantirish yo'lida yirik ishlar amalga oshirilmoqda. Misol uchun aytishimiz mumkinki ancha vaqtlardan beri o'zini oqlamayotgan kasb-hunar kollejlari soni sezilarli darajada qisqartirlidi va hozirda faoliyat olib borilayotgan kasb-hunar kollejlari korxona va tashkilotlar ichki ehtiyojlaridan kelib chiqib taklifga asosan shartnoma asosida qabul qilinadigan bo'ldi. Tibbiyot kollejlari Abu Ali Ibn Sino nomidagi Tibbiyot maskanlariga aylantirildi.

Umumta'lim maktablarida o'quvchilar muayyan kasblarga nisbatan yo'naltirilsa, o'rta maxsus kasb - hunar ta'limi bosqichida o'quvchilar turli xil kasblarning asoslarini, kichik mutaxassisliklar darajasida zaruriy kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni egallab boradilar. Akademik litseylarda esa ta'lim oluvchi

yoshlar o’z qiziqish va individual xususiyatlariga ko’ra ma’lum bir soha (fan) ning aynan mutaxasisi bo’lib yetishadilar.

O’sib kelayotgan yosh avlod kelgusida davlat va jamiyat hayotida muhim o’rin egallovchi shaxs bo’lib yetishishi, ishlab chiqarishda, ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatda o’zlariga munosib o’rinnarni topishlarida ularni zamonaviy kasb-hunarlar yo’naltirish, ularni kelajak faoliyatga tayyorlash ishi nafaqat hozirgi kunning balki insoniyat jamiyatining ilk bosqichlaridanoq amalga oshirilib kelinmoqda. O’tmish avlod o’zining hayotiy tajribalarini yosh avlodga o’rgatish to’g’risida g’amxo’rlik qilib kelgan. Ular o’z tajribalarini turli xil manbalarga bitib qoldirishganlar. Yozuvlar paydo bo’lganidan keyin esa, turli xil asarlar yaratish orqali o’z tajribalarini kelgusi avlodlarga meros qilib qoldirganlar. Masalan, ibtidoiy davr odamlari o’z farzandlarini yetaklab yurib, ovga, dehqonchilikka o’rgatib tajribalarni toshlarga, terilarga, buyumlarga o’tkazish orqali qoldirgan bo’lsalar, keyinroq esa, bu hol turli xil bitiklarda namoyon bo’lgan. Jumladan eramizdan avvalgi V-IV asrlarda O’rta Osiyo va Markaziy Osiyo davlatlari hududida yashagan xalqlar sig’ingan zardushtiyalar dinining muqaddas kitobi “Avesto”da yirik qoidalar to’plamlari tarzida bayon etilgan. “Avestoda” keltirilishicha “yaxshilik va ezhulik yaratish uchun kishi mehnat qilishi, o’z qo’llari bilan moddiy noz-ne’matlar yaratishi lozim” deb hisoblashgan.

Yuqorida sanab o’rganizmiz davlatimiz tomonidan belgilab berilgan qonun va farmonlar, qolaversa hozirgi O’zbekistoning besh yillik taraqqiyot rejasi bo’lmish “Harakatlar strategiyasi” ga asoslangan holda boshqichma-bosqich soha doirasida ishlar olib borilmoqda. Bu borada aytarlicha yutuqlarni qo’lga kiritdik. Ammo shu bilan birgalikda umumta’lim maktablarida o’qiydigan iqtidorli yoshlarni izlash, tanlash va ularni kasbiy faoliyatning turli yo’nalishlarga bo’lgan moyilliklarini e’tiborga olgan holda uzluksiz ta’limning yuqori bosqichlari-akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, oliy ta’lim muassasalariga ta’lim olishlarini davom ettirishlariga amaliy-uslubiy, shuningdek iqtisodiy-ijtimoiy yordamlar ko’rsatish mexanizmlari to’laligicha ishlab chiqilgan deb bo’lmaydi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Maktab bitiruvchilarini va oliy ta'limga muassalarida yoshlarni kasbga tayyorlash va shu kabi yo'naliishlarda anchagini olimlar ish olib borishgan va olib borishmoqda. Xususan pedagog olimlardan S.Ya.Batishev[16], V.P.Bespalko[17], Ye.A.Vayner[18], B.Z.Vulfov[19], L.S.Vigotskiy[20], B.S.Gershunskiy[21], M.I.Yereskiy[28], N.V.Nikitin[44:45], V.A.Slastyonin[52] kabilar yoshlarni ishlab chiqarishga, turli xil kasb-hunarlargaga tayyorlash ishining ko'p qirrali sohalarini tadqiq etib, yoritdilar.

Yurtimizning mahoratli pedagog olimlaridan K.D.Davlatov[22], R.X.Djurayev[25], J.G'.Yo'ldoshev[32:33], A.Mamajonov[39], I.Misliboyev[40], U.N.Nishonaliyev[43], N.S.Sayidahmedov[49:50], A.R.Xojaboyev[55], N.Sh.Shodiyev[57], Ya.Haydarov[66] va boshqalar kasb-hunar ta'limi sohalarida, jumladan, pedagog-mutaxassislarini tayyorlash, ularning kasbiy mahoratini takomillashtirish to'g'risida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borganlar.

Olimlardan R.Keldiyorov[37], Sh.Kurbanov[38], M.Ochilov[46:47], B.X.Raximov[48], E.O.Turdiqulov[53], kabilar o'qituvchining kasb madaniyati va mahoratiga oid xususiyatlari borasida tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Sh.Baratov[15], G.Davletshin[23], V.Karimova[36], E.G'oziyev[63:64], B.Qodirov[61] va boshqa olimlar o'quv faoliyatining psixologik tomonlarini, ta'limga tarbiya jarayonining ruhiy xususiyatlarini tadqiq qildilar.

Yoshlarga kelgusi hayotlarida kasb-hunar o'rganish masalalari bilan M.E.Jumayev[26], B.R.Jo'rayeva[24], H.Ibragimov[29], X.Sariboyev[51], P.Xolmatov[56] va boshqa pedagog-olimlar ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Al Xorazmiy, Al Farg'oniy, Al Marg'iloni, Abu Nosir Forobi, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, az-Zamahshariy, Xoja Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshbandiy, Mirzo Ulug'bek, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, kabi ko'plab donishmand-mutafakkirlar asarlarida ham yoshlarning odobi, axloqi, ta'limga tarbiyasi hamda kasbiy bilim va ko'nikmalarini shakllantirish to'g'risida turli fikr-mulohazalar bildirilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Yuqori sinf o'quvchilari va oliy o'quv yurtlarida yoshlarni individual xususiyatlarni hisobga olgan holda kasbga tayyorlashning izchil tarzda olib borlishi afzalliklari hamda bu borada ta'lim maskanlari o'rni , pedagog-psixologlar ahamiyatini belgilash.

Tadqiqotning obyekti. Yuqori sinf o'quvchilari va oliy o'quv yurtlarida yoshlarni kasbga tayyorlashning izchilligini ta'minlash jarayoni

Tadqiqotning predmeti. Yuqori sinf o'quvchilari va oliy o'quv yurtlarida yoshlarni kasbga tayyorlash izchilligini ta'minlash jarayoniga qaratilgan o'quv maqsadlari elementlari olindi.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilar.

1. Yuqori sinf o'quvchilari va oliy o'quv yurtlarida yoshlarni kasbga tayyorlash va bu faoliyatning izchilligining mazmun-mohiyati va ahamiyatini ilmiy-pedagogik jihatdan asoslash.
2. Yuqori sinf o'quvchilari va oliy o'quv yurtlarida yoshlarni kasbga tayyorlashda izchillik mexanizmining psixologik va pedagogik imkoniyatlarini aniqlash.
3. Yuqori sinf o'quvchilari va oliy o'quv yurtlarida yoshlarni ni kasbga yo'llash va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashning mazmun, shakl, metod va vositalarini belgilash, ularning samaradorligini tajriba-sinov ishlari natijasida aniqlash hamda ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati:

- Yuqori sinf o'quvchilari va oliy o'quv yurtlarida yoshlarni kasbga tayyorlash va izchilligini ta'minlashda tarbiyaviy tadbirlarning o'rni belgilandi;
- Maktabdan va oliy o'quv yurtidan tashqarida o'tkaziladigan yoshlarni kasbga tayyorlash va izchilligini ta'minlashga oid tadbirlarning shakllari va mazmuni tanlab, tajribada sinab ko'rildi;
- O'quvchilarni kasbga tayyorlashning izchilligini ta'minlashda tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishni tizimlashtirish va takomillashtirish to'g'risida metodik tavsiyalar ishlab chiqildi hamda amalda sinab ko'rildi;
- Yuqori sinf o'quvchilari va oliy o'quv yurtlaridayoshlarni kasbga tayyorlashning izchilligini ta'minlashga doir bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish darajalarini aniqlovchi mezonzlari ishlab chiqildi.

Ishchi faraz. Yuqori sinf o'quvchilari va oliy o'quv yurtlarida yoshlarni kasbga tayyorlashning izchilligi ta'minlash ishlari samaradorligi yanada ortadi agarda:

- Maktablarda va oliy o'quv yurtlarida olib borilayotgan ta'lim jarayonida "Yuqori sinf o'quvhcilari va oliy o'quv yurtlarida yoshlarni kasbga tayyorlashning izchilligi" ta'lim texnologiyalari asosida o'qitish mashg'ulotlari mazmuni aniqlansa;
- ushbu mazmunni DTS asosida tanlansa;
- mashg'ulotlarni o'tish uslublari yangi pedagogik texnologiyalarga asoslansa;
- maktablar hamda oliy o'quv yurtlarida kasbga tayyorlash jarayonida amaliy mashg'ulotlar ulushi ko'paytirilsa;
- kasbga tayyorlash jarayonida ta'lim beruvchilar ta'lim oluvchilarning shaxsiy individual xususiyatlari hamda qobiliyatlarini hisobga olgan holda yo'naltirilsa;
- kasbga yo'naltirish va tayyorlash jarayonida qo'llaniladigan metod va uslublar yoshlarning qiziqishlariga hamohang tarzda tanlansa;

Bitiruv malaka ishi ishining metodik asosi. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «Ta'lim to'g'risida» qonun, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi xujjatlari, Prezident asarlari, Vazirlar Maxkamasi qaror va ko'rsatmamalari, OO'MTV buyruqlari, yoshlarni kasbga tayyorlashning izchilligini takomillashtirishga bag'ishlangan ilmiy uslubiy asarlarini o'z ichiga oladi.

Bitiruv malaka ishining ilmiy yangiligi. Maktablarda va oliy bilim yurtlarida "Yuqori sinf o'quvchilari va oliy o'quv yurtlarida yoshlarni kasbga tayyorlashning izchilligi" ta'minlash texnologiyalari asosida o'qitish ishlarining tashkiliy masalalari bilan shug'ullanuvchi metodistlar, mehnat ta'limi metodikasi odamtabiat, odam-texnika, odam-odam, odam-belgili tizim, odam-badiiy obraz) ta`rifi bo'yicha tadqiqot ishi olib boruvchilar ushbu materiallardan o'z faoliyatlarida samarali foydalanishlari mumkin.

Jamiyatining ehtiyojiga muvofiq texnologik bilim va ko'nikmalar egallash va kasb tanlashni o'rghanish bu asosan bilim, mahorat va qobiliyatni muvofiqligi bilan amalga oshadi.

I BOB.

Kasbga yo'naltirish, ta'lim va o'qituvchi – tarbiyalanuvchi munosabatlari

1.1.Yuqori sinf o'quvchilari va talaba yoshlarni kasbga yo'naltirishda o'qituvchi shaxsi va ta'lim psixologiyasining o'rni

Jamiyat taraqqiyotida yoshlami kasbga yo'naltirish, ulami o'zлари qiziqqan kasbga bo'lган intilishlarini shakllantirish muhim va dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Bu yo'Ida jamiyat, davlat bor kuchini berib yoshlami foydali inson qilib shakllantirishga o 'z e'tiborini beradi. Chunki yoshlami kasb egallashlari va jamiyat taraqqiyoti o'zaro bog'liq jarayondir. Kasb va uni egallah o'ziga xos bo'lган murakkab jarayondir. Yoshlar bu jarayonni boshlaridan o'tkazar ekanlar o'zлари uchun qaysi kasb qiziqarli va kerakli deb belgilab olishlari oson kechmaydi. Endigina bolalik davridan kattalar davriga o'sib o'tayotgan farzandlar berilgan tarbiyalariga qarab har xil bo'ladilar. Ulardagi mavjud bo'lган ruhiy jarayonlar, berilgan tarbiya va bilimlar kasb tanlashda muhim hisoblanishi zarur. Ammo unday ham emas. Chunki ularni o'rab turgan ko'plab katta yoshli insonlar o'z ta'sirlari bilan xihna xil maslahatlari bilan kasb tanlashlarida ikkilanishlarni vujudga keltiradilar.

Bu borada Pedagogika va psixologiya o'z oldida turgan muhim kasb bilan bog'liq masalalarni o'rganishda va uni hal etishda o'qituvchi shaxsiga suyanadi. Shuning uchun ham kasb psixologiyasida o'qituvchini yoshlarni kasb tanlashlaridagi o'rni har doim uning diqqat markazida turadi. Kasbga tayyorlashda psixologiya o'z masalalarini o'rganishda o'qituvchi psixologiyasi, o'quvchi bilan o'qituvchi o'rtasida bo'ladigan o'zaro munosabat masalasi, o'qitish va kasbga yo'naltirish, kasbiy maslahatlar berish, ularni sinchiklab o'rganish orqali kasbni tanlashdagi psixologik jarayonlar kabi ko'plab masalalarni keng va chuqur o'rganib boradi.

Bunday masalalarda kasb psixologiyasiga o'zini beg'araz yordamini berayotgan o'qituvchini o'zi kim va uni qanday baholash mumkin? degan ko'plab savollar tug'iladi.O'qituvchini kimligi va uni jamiyatda o'taydigan vazifasi haqida ko'plab tushunchalar mavjud. Shulardan biri bu V.Dalning "Толковый словарь"идаги o'qituvchiga berilgan ta'rifi hisoblanadi. Unda o'qituvchi - bu tarbiyalovchi,

o‘qituvchi (dars beruvchi), ya’ni uning amaldagi ikki asosiy vazifasi ko‘rsatib beriladi. Bunda o‘qituvchi o‘quvchilarga ijtimoiy malakani o‘zlashtirishlariga va uni tadbiq etishlariga rahbarlik qilishi, shuningdek insoniyatyig‘ibborgan bilimlami yetkazib berishi ko‘rsatib berilgan. Bu vazifalar insoniyat tarixining butun davrlarda asosiy masalalaridan biri hisoblanadi. O‘qituvchilik kasbi bu qadimiy kasblardan biridir. Uning ijtimoiy ahamiyati insoniyat jamiyatida hech ham kamaymaydi.

O‘qituvchilik kasbi bu o‘tkinchi kasb emas. Insoniyat jamiyati o‘zi asrlar davomida ottirgan bilimlarini, malakalarini avloddan – avlodga yetkazib bermaganda, u hech qachon rivojlanmas edi. Demak, o‘qituvchilik kasbi - bu obyektiv reallik bo‘lib, jamiyat uchun zaruriy hodisa hisoblanadi va uning qadri hech ham so‘nmaydi. Shu bilan aytish kerakki hozirda kompyuterlashtirish, distantsion o‘qitish, elektron ma’ruzalar, baholashning boshqa ko‘rinishlari o‘qituvchi faoliyatini o‘ziga xos tarzda yanada kengroq o‘rganish zarurligini ko‘rsatmoqda. Xohlaymizmi yo‘qmi har qanday ta’lim va tarbiya o‘qituvchisiz, uning jonli, emotsiyal nutqisiz zerikarli bo‘lar edi. Albatta talaba o‘zi ustida ishlashi, berilgan bilimlarni o‘zlashtirib borishi zarur. Lekin o‘qituvchisiz u mustaqil ishni bajarishi ham oxiriga yetmaydi. Shu o‘rinda Yan Amos Komenskiyning o‘qituvchiga bergen yuksak ta’rifini keltirib o’tishni joiz deb topdim. U o‘qituvchini “Quyosh ostidagi eng yuksak, unga teng kela oladigan narsa yo‘q”ligini ko‘rsatib o‘tgan edi.

O‘qituvchi, pedagog - insoniyat tomonidan asrlar davomida ottirilgan bilimlarni, madaniy - tarixiy malakalami avloddan – avlodga yetkazib beradi va bu amaliy malakalami rivojlantirib ham boradi.

O‘qituvchi - bu o‘sib borayotgan avlod va jamiyat o‘rtasidagi vositachidir.U jamiyatni ishongan insoni, shaxsidir. Hozirgi vaqtda yuksak kasbga ega bo‘lgan, ya’ni o‘z fanini yaxshi bilgan, shuningdek chuqur metodologik va pedagogik - psixologik tayyorgarlikka ega bo‘lgan, zukko, ijodkor, asli ziyoli va tashabbuskor o‘qituvchilar zamonamizga zarurdir. Agarda bilim oluvchiga aynan shu soxaning mutaxasisi, bilimdoni bo‘lgan ta’lim beruvchi yo‘nalish berib bormasa albatta ta’lim sifati va samaradorligi ham pasayishi turgan gap. Shu bois ham kasbga yo‘nlatirishda o‘qituvchi shaxsi muhim ahamiyat kasb etadi.

O'qituvchining olib kasbga yo'naltirish borasida olib borayotgan faoliyatida samarodorlikning oshib borishi uning shaxs sifatida ko'zga tashlanadigan "Men" ligining shakllanganligida yaqqol ko'zga tashlanadi. O'qituvchilik kasbida o'z-o'zini anglanganlik darajasi uning olib borayotgan faoliyatida ayniqsa ta'lim berish jarayonida nomoyon bo'ladi. Bu xususiyatlar ilmiy termin bilan aytilganda "men konsepsiysi" deb ataladi. Insonlarda "men konsepsiysi" o'z-o'zidan shaxsiy xususiyatlar va turli tashqi muhitning omillariga bog'liq holda shakllana boradi. Yetarli bo'lмаган metodik ta'minlanmaganligiga qaramay va pedagogik – psixologik yo'nalishlarsiz o'qituvchi o'zining ichki subyektiv tomonlaridan kelib chiqqan holda o'z faoliyatidan qoniqishi yoki qoniqmasligi mumkin bo'ladi, o'zining kuchiga ishonish yoki ishonmaslik asosida o'z xatti - harakatlari tufayli o'qituvchida bir butun Men konsepsiysi shakllanib boradi.

O'qituvchi kasbga yo'naltiruvchi shaxs sifatida quyidagi talablarga javob berishi zarur :

- Kasbiga doir barcha nazariy bilimlarga ega bo'lishi lozim;
- Nazariy bilimlarini albatta amaliyotga tatbiq eta olishi kerak;
- Zamon talablariga mos ravishda yangiliklarni qabul qilish va tahlil eta olish;
- Doimo o'z ustida tinmasdan ishlashi va innovatsion qobilatga ega bo'lishi lozim;
- Keng eruditsiyaga ega bo'lish;
- Pedagogik intuitsiyaga ega bo'lish;
- Yuksak tafakkurga ega bo'lish;
- Yuksak darajadagi axloqqa va madaniyatga ega bo'lish;
- Yoshlarni tarbiyalashda va o'qitishda har xil ta'sirchan metodlarga ega bo'lish;
- Hozirgi kun axborot texnologiyalarini o'rganish va keng tatbiq qila olish;

Yuqorida sanab o'tilgan xususiyatlar hozirgi zamon talabiga javob bera oladigan o'qituvchi uchun zarur bo'lганларининг ма'lум бир qisminigina tashkil etadi xolos. Bizning oldimizda kasbga yo'naltirishdek muhim vazifa turgan ekan, bu borada bilimish zarur bo'lган va kerak bo'ладиган ко'никма va malakalarning barchasi o'qituvchi deb atalmish qalb me'morlarida mujassam bo'lмog'i darkor deb hisoblayman.

O'qituvchi (pedagog) faoliyati uch tizim (komponent) ga ajratiladi;

-konstruktiv

-tashkiliy

-kommunikativ

Konstruktiv komponent- o'qituvchi faoliyatida olib boriladigan ta'lif jarayonini , dars mashg'ulotlarni tashkil etishini nazarda tutadi. Ya'ni ma'lum bir soxaga oid nazariy va amaliy faoliyatni yoritish uchun metod va uslublar, sarflanadigan vaqt, bu tajribadan kutilayotgan natijalar haqida oldindan sxematik ravishda reja shakllantiradi. O'quv jarayonini faollashtirish va mustahkamlash ham konstruktiv komponent tarkibiga kiradi.


Tashkiliy komponent - esa o'z nomi bilan ta'lif jarayonini tashkillashtirish va uning izchil tarzda amalga oshirilishini nazarda tutadi.

Kommunikativ komponent esa- o'quvchi yoki tahlil oluvchi ning yaqinlari , ota-onasi va boshqa o'quvchilar, o'qituvchilar bilan aloqada, hamkorlikda olib borilishini ko'zda tutadi.

Bundan tashqari o'qituvchi psixologik vazifalarni ham amalga oshiradi. Bu borada A.I. Sherbekov o'qituvchining bir nechta psixologik vazifalarini yoritib bergan. Bular axborat berish vazifasi - bu materiallarni yaxshi egallaganlik va uni yetkazib bera olishlikda ko'rindi. Keyingi vazifasi bu rivojlantiruvchanlik vazifasi bo'lib - bu maktab o'quvchisini bir butun holda shaxs sifatida taraqqiyotini boshqarish. Yana biri bu yo'naltirilganlik vazifasi - bu shaxsning yo'nalishlari, motivlari va g'oyalari bilan bog'liq. Uning yana bir vazifasi bu jalb qilishlilik vazifasi bo'lib - bu o'quvchilami aqliy faoliyatini faollashtirish, ulami mustaqilligini taraqqiy ettirish. Oxirgi vazifasi sifatida ijodkorlik vazifasini qo'yadi va ijodkorlik - bu pedagogik jarayonlardagi ijodiy izlanish, eksperimentlami o'tkazishni bilish, malakalami umumlashtirish va o'zini har doim o'stirib borish.

O'qituvchi o'quvchilarga dars beribgina qolmay, balki ularning kelejakda qanday inson bo'lib yetishishlarini ham ta'minlab beruvchi asosni yaratishadi. O'zlarining beradigan bilimlari orqali ularni qiziqishlariga binoan ma'lum bir kasblarga yo'naltirib borishadi.

Bu kabi faoliyatni amalga oshirishdan tashqari o'qituvchilarimiz juda ko'plab funksiyalarni bajarishadi. Buni "Kasbiy Psixologiya" darsligidan olingan quyidagi chizmada ko'rishimiz mumkin:



4-chizma

Shuni ta'kidlab o'tishimiz joizki o'qituvhci olib borayotgan faoliyat, kasbga yo'llash kabi ishlar darhol natija bermasligi mumkin. Ba'zan kerakli natijaga erishilguncha yillar sarf bo'lishi mumkin. Lekin nima bo'lganda ham o'qituvchi yoshlarning kasb tanlashida va bu jarayoning izchillilikda amalga oshishida eng shaxs sifatida o'z ahamiyatini yillar davomida saqlab kelmoqda. Kasb tanlashda o'sib kelayotgan yoshlarga ta'lim va tarbiya beruvchi ustozlar borki ulami o'mini hech nima bilan almashtirib bo'lmaydi. Maktab va kollej davrida yoshlar o'zлari uchun qiziqarli bo'lgan kasblami egallashga intilib boradilar. Bu davr uchun pedagogning o'rni butunlay boshqacha bo'lib qoladi. U endi faqat tarbiya va ta'lim bemvchigina emas, balki o'quvchilarni ma'lum bir kasbga bo'lgan intilishini shakllantiruvchi pedagog - psixolog ham bo'lib qoladi.

Kasb tanlash jarayonida pedagog o'qituvchining o'rni va bunga o'quvhcilarning munosabatini juda ko'plab olimlar kuzatishgan. Maktab o'quvchilari va talaba yoshlarning kasbga bo'lgan qiziqishlarini tizimlashtirishga harakat qilganlar. Kasb tanlash jarayonini rus olimlari davrlashtirishgan masalan Kudrayavsev.T kasb egallashning to'rtta davrini talqin etadi. Bular;

1. Kasbni tanlashga bo 'lgan uyni paydo bo ' lishi va shakllanishi.
2. Kasbiy faoliyatga tayyorlanish va kasbga o'qish.
3. Kasbni faol o'zlashtirish, unga kirib borish va o'zini ishlab chiqarish kollektivida tasavvur qilish.
4. Shaxsni kasbiy mehnatda o'zini to'la o'z kuchini sarf qilishi.

Yana bir rus olimi Klimov esa davrlashtirishni quyidagicha amalga oshirdi:

1. Ongli ravishda kasbni tanlashga tayyorgarlik(12-17 yosh) davri.
2. Kasbga tayyorgarlik ko'rish davri (15 -23 yosh) - bo'lg'usi kasbga xos bilimlami va malakalami o'zlashtirish bilan bog'liq faoliyat.
3. Kasb taraqqiyoti davri (1 6 -2 3 dan to pensiyagacha) – kasbga xos shaxslararo munosabatga kirishish va subyektni keyingi taraqqiyot davri.

Kasb tanlash jarayonida shaxsda quyidagicha ikki xil munosabat vujudga kelar ekan;

1. Tashqi hayot faoliyati shart - sharoitlari va shaxslararo munosabatlarda.
2. Shaxsdagi ichki fikrlar asosida.

O'quvchi yoshlarni kasbga qiziqtiruvchilar orasida dastlabkilari , yo'lllovchilar asosan ota- onalar , yaqinlar, qarindosh-urug', do'st birodlar bo'lar ekan psixologlar fikricha. Bular ilk yo'llanmalarni bersalarda eng muhim hal qiluvchi shaxs sifatida baribir o'qituvchi va murabbiylarimiz muhim ahamiyatga ega ekanliklarni psixolog olimlar qayta- qayta ta'kidlashmoqda. Chunki o'qituvchi lar yuqorida sanab o'tilgan komponentlar asosida o'quvhcilarni qanday o'qitish, qanaqa o'qitish lozimligini biluvchi mutaxasislar sanalishadi. Bu borada maxsus metodika va uslublardan foydalangan holda misli kutilmagan ijobiy natijalarni ko'rsatishlari kafolatlangandir. Shu bois o'qituvchilarimiz "Inson haykaltaroshi" sifatida ahamiyatli hisoblanishadi.

Yuqori sinf o'quvchilari va oliy bilim yurtlarida yoshlarni kasbga yo'naltirish va o'zları uchun mos va xos bo'lgan kasbni tanlashi uchun nafaqat o'qituvchi va pedagoglar balki aynan shu kasb egalari yordamida hosil qilinadigan ta'lif jarayonidagi qulay psixologik muhit ham muhim ahamiyatga ega. Albatta ta'lif oluvchi shaxsda o'ziga va qobiliytalariga bo'lgan ishonch tuyg'usini ham katta o'rinni egallaydi. O'ziga bo'lgan ishonch tuyg'usini esa ta'lif beruvchilar turli metod va , treninglar orqali yuzaga keltiradilar. O'quvchilarni yutuqlari uchun rag'batlantirish ham ularda o'zlariga bo'lgan ishonch tuyg'usini shakllanishiga turtki bo'ladi.

Kasbiy faoliyatga yo'llash jarayonida , kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchilik va sinovlarga ham tayyorlab borish zarur. Turli to'siqlarni yengib o'tish, Qaltis vaziyatlardan ustamxonlik bilan chiqib keta olish, vaziyatni to'g'ri baholash kabi ko'nikmalarining shakllantirilishi ham ta'lif muassasining muhim faoliyat yo'nalishlarini egallamog'i lozim. Aynan shu kabi omillrga tayyorlab borilsa o'quvchilar kelajakda o'zları egallagan kasbning mohir ustalari bo'lib yetishishlari mumkin.

Kasbga yo'naltirish jarayoni bu ta'lif tizimi bilan uzviy bog'liq jarayon hisoblanadi . Kasbga yo'naltirish (профессиональная ориентация) - bu psixologik - pedagogik va meditsinaga oid kompleks tadbirlaming birligidir. Kasbga yo'naltirishning ikki xil shakli mavjud. Biri o'quv maskanlarida kasbga tayyorlash davomida yoshlami kasbiy faoliyatga tayyorlab borish bo'Isa, ikkinchisi yoshlami kasblar dunyosi bilan tanishtirish orqali ulami kasbga yo'llash hisoblanadi. Kasbga yo'naltirishni ta'lif jarayonlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunki **ta'lif** - bu bilim berish,malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni bo'lib, insonni hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi hisoblanadi. Inson ta'lif jarayonida ma'lumot, bilim oladi va tarbiyalanib boradi. Kasbga yo'naltirish bu eng awalo kasb o'rganuvchiga ma'lumot, bilim berish, uni o'zi qiziqqan kasbni egallashi uchun shu kasblar haqida o'ziga xos bo'lgan ko'nikmalami shakllantirish hisoblanadi. Ta'lif jarayonining natijasi bu insonni jamiyatda o'z o'mini topishga, kasbiy faoliyati davomida aniq maqsadlarga erishishga olib keladi.

T. Edison Amerikaning ko‘zga ko‘ringan olimi ta’lim haqida fikr bildirib shunday yozadi: “Sivilizatsiyaning buyuk vazifasi, odamni fikrlashga o‘rgatishdir”.

Ya. Komenskiy Ta’lim qanday bo‘lishi haqida fikr bildirib, “Ta’lim haqiqiy, to‘la, ravshan va mustahkam bo‘lmog‘i zarur” [19,155 - 159.] deb ko‘rsatadi.

Ta’lim bu kasb olishning maxsus yo‘li sifatida ko‘pgina shaxslarni o‘ziga xos e’tibor berishlarini talab qiladi. Kasbga yo‘naltirishda ustozlami, ota - onani o‘mi juda kattadir. Ularga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatishda, kasb tanlashlarini tashkil etishda ular tashkil etgan muhitning o‘mi juda muhimdir. “Buning uchun har qaysi ota - ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko‘rishi zamr. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish - ta’lim - tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo‘lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak. Bu esa ta’lim va tarbiya ishini uyg‘un holda olib borishni talab etadi”. [10,61.]. Yoshlarga ta’lim berib, ulami kasbga yo‘naltirishdan iborat asosiy vazifa - bu o‘quvchilami fan asoslarini faol, ongli, mustahkam va tizimli ravishda egallashlarini ta’minalash hisoblanadi. Kasbga yo‘naltirilgan ta’lim o‘zining psixologik tomonlari bilan kasb oluvchining va kasbga yo‘naltimvchining birgalikdagi o‘zaro munosabatlaridan kelib chiqqan holda ta’lim muhitini yaratadi. Bunda ta’limning xarakteri o‘zlashtirilayotgan materialga, uning mazmuniga, bu materiallar qanday tizimda yetkazib berilayotganiga e’tibor bersak bu muhitning bir tomonini tashkil etishini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Ikkinci tomoni esa o‘qituvchining bilimiga, uslubiy mahoratiga, tajribasiga, shaxsiy xususiyatlariga, o‘ziga xos bo‘lgan qaytarilmas usullaridan foydalana olishiga bog‘liqdir. Uning uchinchi tomoni esa bu kasb o‘rganuvchining o‘ziga xos xususiyatlari, uning psixik rivojlanishi (aqliy, emotSIONAL, irodaviy jihatlari va bosh.), uning o‘qishga nisbatan qaror topgan munosabatlari, qiziqish - havaslariga bog‘liqdir.

Kasbga yo‘naltirishda ta’lim va uning muhim psixologik tomoni bu o‘quvchilami berilgan bilimlami o‘zlashtirishi hisoblanadi. Bu sohada N.D. Levitov o‘zlashtirishning psixologik komponentlari tushunchasini fanga kiritdi. Uning

fikricha, ana shu komponentlami faollashtirmasdan turib ta’lim muhitini va maqsadini amalga oshirib

bo‘lmaydi. Bunday komponentlarga quyidagilar kiradi:

- 1) o‘quvchilaming o‘qishga ijobiy munosabatda bo‘lishi;
- 2) material bilan bilan bevosita hissiy tanishish jarayonlari;
- 3) olingan materialni faol ravishda qayta ishlash jarayoni bo‘lgan fikrlash jarayoni;
- 4) qabul qilingan hamda ishlab chiqilgan axborotni esda saqlash protsessi.


Kasbga yo‘naltirishda ta’lim tizimini shakllantirish va undagi psixologik qiyofa yondoshilishi jihatidan ko‘p qirrali tushunchadir. Ta’limning psixologik qiyofasi eng avvalo jamiyat va uning ehtiyojlari bilan bog‘liq. Ta’limga ta’sir etuvchi yana bir muhim zveno bu o‘qituvchi va uning faoliyati hisoblanadi. Ta’limning psixologik qiyofasini eng muhim zvenosi bu tayyorlanayotgan kadrlar, kasb egalaridir. Mana shu uchta muhim omil ta’limdagi psixologik qiyofani shakllanishiga asos bo‘ladi.

1.2.Kasbga yo'naltirish va talaba – o'qituvchi o'rtasidagi bir – birini tushunish asoslari

Kasbga yo'naltirish - bu yoshlarni kasbga ega bo'lishlaridagi psixologik - pedagogik va meditsina bilan bog'liq bir butun jarayon bo'lib, unda shu yoshlarning xohishlaridan, havaslari, qobiliyatlari va xalq xo'jaligini, jamiyatni mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojlarini hisobga olgan holdagi yuz beradigan jarayondir.

Kasbga yo'naltirish - bu pedagoglarni ta'lim va tarbiya berish jarayonida o'quvchilardagi qobiliyat va qiziqishlardan kelib chiqqan holdagi, ulardagi psixologik xususiyatlarni hisobga olgan tarzdagi maslahatlar berish jarayonidir.

O'quv maskanlarida kasbga bo'lgan qiziqishni aniqlash va shunga mos tarzda yo'nalish berish psixologlarning vazifasi hisoblanadi. Lekin bu borada o'qituvchining o'rni ham katta hisoblanadi. O'quvchi ko'proq ta'lim jarayonida o'qituvchi bilan bo'lganligi sababli bu borada o'qituvchining yo'naltirishi va ta'siri ancha yuqori bo'ladi.



Bu yuqoridagi chizmada biz shaxsning kasbiy yo‘nalishi bilan bog‘liq tomonlarni ko‘rsatganmiz. “Kasbiy psixologiya “ 5-chizma [18, 93.]

Kasb tanlash davridagi yuqori sinf o‘quvchilari ikki xil toifaga bo‘linadi;
-hech narsaga qiziqmaydigan, biror nima bilan shug‘illanmaydiganlar
-hamma narsga qiziquvchan, universal, har ishni eplaydiganlar

Birinchi toifa o‘quvchilar qiziqishalari bo‘lmaganligi sababli kasb tanlashga qiynalsalar, ikkinchi toifadagilar o‘zlarida qaysi kasbga bo‘lgan qobiliyat , ehtiyoj, kuchli ekanligini bilolmay qiynaladilar. Chunki qaysiki ishga kirishsalar bajara oladi, natijalarga erishadi. Bu toifa o‘quvchilarda motivlar kurashi kuchli kechganligi sababli ikkilanadilar. Ana shunday vaziyatlarda mohir pedagog har bir bolaning qiziqishlarini, ehtiyojini, qobiliyatlarini tushunib, hisobga olib maxsus usullardan foydalanishi zarur. Bunda katta yoshdagi maktab o‘quvchilariga o‘qituvchi quyidagi yo‘nalishlarda o‘z yordamlarini beradilar:

Maqsadli - motivli komponentlar (aniq bir kasbga bo‘lgan qiziqishni mustahkamligi)

Irodaviy - emotsiyal komponentlar (faoliyatni aniqlashdagi mustaqillik, intizomlilik, faollik va emotsiyal bir xillik)

Kognitiv - komponent (kasb to‘g‘risidagi bilimlami mavjudligi, kasbiy faoliyatni spetsifikasini bish)

Amaliy - faoliyat komponentlari (kasbiy amaliyotda bilimlami tadbiq etishdagi uddaburonlik va savodxonlik bilan xarakterlanadi)

Refleksiv - natijali komponent (kasbni tanlashdagi va keyingi davrdagi ishlariga qattiq ishonish va uni to‘g‘riliagini anglash)

O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida ta’lim olishda birgalikdagi faoliyat bo‘ladi. Bu o‘qituvchini o‘quvchiga berishi kerak bo‘lgan bilimlami berishi bilan bog‘liq faoliyat bo‘lsa, ikkinchisi bu o‘quvchini o‘qituvchi berayotgan bilimni o‘zlashtirish va o‘zi uchun qiziqarli bo‘lgan fanlami yaxshi o‘zlashtirish hisoblanadi. Bu faoliyatda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida o‘zaro ishonch qo‘yilgan maqsadlarga birgalikdagi intilishi zarurdir.

O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlar ishonch, mehr va insonparvarlik tuyg'ulariga asoslangan bo'lishi lozim. Shundagina o'qituvchi o'quvchida bo'layotgan ichki kechinmalar, intilishlari, qiziqishlaridan xabardor bo'lib boradi. Bu borada esa psixologiyaning ananaviy metodlaridan bo'l mish suhbat metodi ko'p qo'llaniladi. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasida bo'lib turadigan samimiy suhbat jarayonlari, kasbga yo'llash faoliyatida katta samara beradi.

O'qituvchi o'quvchilarning qiziqishlari haqida tasavvurga ega bo'lishi uchun avvalo o'zi qiziqish nima?, qanday shakllanadi?, motivlar nima? Degan savollarga o'zi javob topa bilishi lozim.

Qiziqish- bu inson faoliyati, etiborini biron narsa (faoliyat) ga jalb etuvchi, kerak bo'lsa bor energiyasini talab etuvchi psixologik jarayon hisoblanadi. Yer yuzida insonlar xilma-xil bo'lganidek ularning qiziqishlari ham shunchalik turli va keng qamrovli bo'lishi mumkin. Professor E. G'oziyev o'zining "Umumiy psixologiya" darsligida uning quyidagi tiplarini ajratib ko'rsatadi. Bular quyidagilardir: 1) mazmuniga ko'ra : shaxsiy va ijtimoiy; 2) maqsadiga binoan: bevosita va bilvosita; 3) ko'lamiga qaraganda: keng va tor; 4) qiziqishlar darajasi bo'yicha: barqaror va beqaror va boshqalar. [34,201.]

O'qituvchilar o'quvchilar bilan munosabatni yo'lga qo'yishda albatta ularning yoshini, individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olsalar maqsadga muofiq bo'ladi. Kichik sinflarda o'quvchilar bo'ysinuvchan bo'lishadi, shu boisdan ba'zi bir o'qituvchilar avtoritar usulda faoliyat olib boradilar. Yuqori sinf o'quvchilari endi yoshlariga mos ravishda xususiyatga ega bo'lganliklari sababli ular bilan demokratik uslubda faoliyat olib borgan maqul menimcha. Chunki bu jarayonda o'spirinlik va o'smirlik davridagi o'zgarishlar o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Yuqori sinf o'quvchilari ko'proq mustaqillika intiladilar, o'zлari barcha muammolarni hal qila olaman degan fikrda bo'ladilar. Shuning uchun ba'zi bir kamchiliklarga yo'l qoyishlari mumkin. Ayniqsa ichki va tashqi motivlar kurashi aynan shu davrda kuchayishi sababli ular biroz jizzaki va qo'polroq bo'lib qolishlari mumkin (ayrimalari albatta) Aynan shu jarayonda o'qituvchidagi mahorat va anglashning kuchli bo'lishi talab etiladi.

Oliy o'quv yurtlarida esa o'qituvchi va talab o'rtasidagi munosabatlar sal boshqacharoq ko'rinishlarda olib borilishi mumkin. Institut yoki universitetlarda talabalar yosh jihatdan turli guruhlarga mansub bo'lismishadi. Shu boisdan ham ularning hatti harakati , intilishlari turlicha bo'ladi va to'la mustaqillikka asoslangan bo'ladi. Dars beruvchi ustoz va talabalar o'rtasidagi munosabatlar tizimi o'zaro hurmatga asoslangan tarzda olib borilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Kasb tanlovchida iroda kuchi bo'lgandagina u biror bir kasbga intiladi, shu kasbni qaysidir unga yoqqan tomonini bilishga harakat qilib borib o'z ustida ishlab borishini kuzatish mumkin bo'ladi. Inson uchun irodani psixologik jarayon sifatida o'mi juda kattadir. Irodasi bo'limgan inson biror bir oddiy ishni bajarishda ham qiynaladi. Shuning uchun kasb tanlayotgan o'quvchi qandaydir o'zi uchun yoqadigan kasbni tanlashi, o'zi ustida ishlashi, o'zini mustaqil fikri bo'lishi kabi masalalmi iroda kuchiga asoslanib ish ko'radi. Busiz unda ikkilanishlar, qaror qabul qila olmaslik, sabr - toqat kabi ko'plab irodaviy xususiyatlami buzilishi yuz beradi. Insondagi iroda kuchi uni ma'lum bir bilimlarni, malakalami, ko'nikmalami shakllanishi va mustahkamlanishiga olib keladi. Ko'rinib turibdiki, insonning irodasi va uni mustahkamlanib borishi shaxsni shakllanishini, ma'lum bir obro' va e'tiborga sazovor bo'lishiga olib keladi. Buning uchun esa kasb tanlovchi o'z irodasini mustahkamlab borishga e'tibor berishi juda zarurdir.

Oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan talabalar o'z kasblarining mohir ustasi bo'lishlari uchun amaliyat soatlari va labarotoriya mashg'ulotlarining ahamiyati ham juda katta. Shu boisdan ham 2018 – yilda prezidentimiz farmonlarida ham bu farmon aniq o'z ifodasini topgan. Oliy bilim yurtlari talabalarining amaliyat soatlari ko'paytirilishi kasb tanlash va kasbga yo'naltirish jaroyonlarni anchagini qiziqarli va foydali o'tishini ta'minlab beradi. Qolaversa ma'lum yo'nalishlarda tahsil olayotgan talabalar o'z sohalarida amaliy ishlarni qo'llab anchagini tajribaga ega ham bo'ladilar. Talaba va o'qituvchi o'rtasidagi munosabat do'stona tarzda yo'lga qo'yilsa ular o'rtasidagi ishonch va dars samaradorligi ham oshadi. Dunyoda har yili 500 ta yangi kasblar paydo bo'lib, shu kasblar 5 - 15-yil yashab keyinchalik yo'qolib ketar, bazilari esa butunlay yangicha ko'rinishga ega bo'lar ekan.

1.3.Kasbga yo'naltirishda ta'lim muhitining pedagogik va psixologik tavsiflari

Kasb tanlash jarayonida yoshlarda sodir bo‘ladigan o‘ziga xos jarayonlar bu undagi jismoniy va ruhiy o‘zgarishlarda, o‘zidagi o‘zgarishlar asosida o‘zini katta inson bo‘lib borayotganini bilib borishi, atrofdagilami unga nisbatan kattalardek munosabati va shu kabi jarayonlar insonni endi o‘z hayotini qurish uchun kasb tanlashiga olib keladi. Kasb tanlash uchun esa unga bilim va malakalar juda zarurdir. Kasb tanlayotgan inson o‘zining psixologik jarayonlarini va psixologik xususiyatlarini boshqarishi va ulardan foydalanishi zarur bo‘ladi. Deylik, tikuvchilik yoki to‘quvchilik kasbini o‘zlashtirib borayotgan yosh inson o‘zida shu kasb talab qiladigan psixologik jarayonlarni rivojlantirishi va unga tayyor turishi kerak bo‘ladi. Tikuvchilikda psixologik jarayon sifatida dizaynga mos keladigan muhim psixologik jarayonlar talab qilinadi. Bu sezgirlik, didlik, diqqatini o‘sganligi, hayolini rivojlanganligi, ya’ni tasavvurlari chuqur va kengligi kabi ko‘plab psixologik jarayonlar kerak bo‘ladi. Shaxsning o‘zi tanlagan kasbiga layoqatligi uni kelajagini ta’minlanganligini ko‘rsatadi. O‘z ishiga layoqatli inson umiri bo‘yicha o‘zigakerakbo‘lgan ko‘pginanarsalargaegabo‘ladi. Layoqatsiz inson esa o‘zini hayotini qurishga imkoniyati bo‘lmaganidan ko‘pgina hollarda qiyinchiliklarga yo‘liqadi. Kasbga layoqatlikni shaxsda ikki yo‘nalish bo‘yicha muhokama qilish mumkin; biri kasbni muvaffaqiyatlari egallash orqali, ikkinchisi insonni o‘zini mehnatidan qoniqishi orqali. Bu ko‘rsatilgan ikki tomon ham nisbiy bo‘lib, u subyektivlikni ko‘rsatadi. Shunga qaramasdan shu ikkala yo‘nalish kasbiy layoqatlikni psixologik xarakteristikasini beradi. Insonni tabiiy xususiyatlari juda katta, shuninjdek cheksiz egiluvchanlik imkoniyatlarini beradi. Inson kasbning juda ko‘p ko‘rinishlariga moslashishi mumkin, va uni subyekt sifatida qondirishi ham mumkin. Inson egallyay olmaydigan kasb juda kamdir. Kasbga tayyorgarlik va keyingi faoliyat har xil tarzda kechishi mumkin, bular undagi xususiyatlardan kelib chiqib davom etadi. Eng muhimi va zaruriy tomoni bu kasbiy yo‘nalganlik bo‘lib, unda ijobiy kasbiy motivatsiyalar muhim rol o‘ynaydi. Albatta yuqori sinf o‘quvchilari va oliy o‘quv yurtlarida yoshlarni kasbga yo’naltirishning izchilligini

ta'minlash borasida bizning davlatimizda juda yaxshi tizim yo'lga qo'yilgan. Bu tizimning ishlari esa "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ga muofiq olib borilmoqda.

Biz bitiruvchi kurs sifatida amaliyotni Yangiyer Pedagogika kollejida amalga oshirdik. Bu jarayonda esa kasbga yo'llashning ta'lim muassasalarida qanday yo'lga qo'yilganligini guvohi bo'lib qaytdik. Bu o'quv maskanida boshlang'ich ta'lim, maktabgacha ta'lim, sport tarbiyaviy ishlari kabi yo'naliishlarda o'quvchilar tahsil olishmoqda. Bir nechta darsga kirib kuzatishlar natijasida shu narsa ma'lum bo'ldiki ta'lim muassasida beriladigan nazariy bilimlar ayrim darslarda o'quvchilarga yetkazib berila olmayotganligi kamchilik bo'lsa, maktabgacha ta'lim va boshlang'ich ta'lim yo'naliishlarda amaliy mashg'ulotlar tez-tez bog'cha va mакtablarda o'tkazilib turilar ekan. Amaliyot soatining ko'pligi bizni birmuncha quvontirdi. Kasbga bo'lgan qiziqishning shakllanishi jarayon aynan shu kabi amaliy mashg'ulotlarda shakllanishi hisobga olinsa foydadan holi bo'lmaydi. Ta'lim muassasi o'quvchilari bilan suhbatlashish jarayonida ularning ichida qobiliyatli va turli sohalarga qiziquvchi yoshlarning ko'p ekanligini angladik. Menimcha ta'lim muassasalarida o'quvchilarning qizishi vaqobiliyatiga mos keluvchi sohalar xilma – xillagini oshirilsa va amaliyot soatlari va labaratoriya mashg'ulotlari yanada ko'paytirilsa foydadan holi bo'lmasdi. Yana shu narsa ma'lum bo'ldiki ta'lim muassasalarimizda nomutaxasis bo'lgan o'qituvchilar tomonidan fanning o'qitilishi va o'rgatilishi haliyam bizning kamchilik tomonimiz bo'lib qolmoqda. Albatta har bir shaxsa qobiliyat, intelektual salohiyat turlicha bo'ladi, nomutaxasislarning ayrimlari kerak bo'lsa mutaxasislardan zo'r faoliyat olib borib, yuksak natijalarga erishayotgan bo'lishi mumkin, lekin baribir har bir ishni o'z mutahasisi bajargani yuz foizlik natijani berishi mumkin deb o'ylayman.

Kasbga yo'naltirishda ta'lim muhitining pedagogik va psixologik ta'siri haqida so'z olib borar ekanmiz ta'lim maskanlarimizda kasb egallahsga yo'naltirilgan barcha ijobjiy muhit, shart-sharoit yaratib qo'yilgan. Faqatgina o'quvchilar va talabalar bundan unumli foydalansalar bo'lgani. Ta'lim muhitini tavsiflashda barcha omillarning ta'sirini hisobga olmasdan ilojimiz yo'q. Chunki o'qituvchilar qanchalik mohir va bilimli bo'lmasin ichimizda shu soha yoki yo'naliishga nisbatan hohishi

yo'q o'quvchilar ham uchrab turishini yoki bo'lmasa, qobiliyatli , qiziquvchan talabalar bo'la turib ularning qobiliyat va istedodini rivojlantira olishda yordam beruvchi mutaxasis va muhit ham ba'zida topilmay qolishi mumkin. Shuning uchun ham keng qamrovli tarzda barcha komponentlarning to'liqligi ta'minlangan sharoitni shakllantirish ham bir mas'uliyat hisoblanadi. Bu borada davlatimiz yaqin ikki- uch yillar orasida ko'zga ko'rinarli darajada ishlarni amalga oshirdi.

O'zbekistonda yoshlarni bilim va malakalar bilan ta 'minlovchi ta 'lim tizimiga juda katta e 'tibor berilib kelinmoqda. Uning moddiy bazasini yaratish va jahon standartlariga mos bo'lgan kadrlar tizimini yaratishga hamma sharoitlar yaratilmoxda. Bugungi kunda mamlakatimiz aholisining 64 foizini yoshlar tashkil etishi, ulami shu mamlakatning asosiy ishlab chiqaruvchi b o 'lajak kuchi ekanligini k o 'rsatadi. Shuning uchun ta 'lim va tarbiya va kasbiy tayyorgarlik Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va maktab ta 'limini rivojlantirish davlat umummilliyl dasturining amalga oshirilishi natijasida 1 ming 536 ta akademik litsey va kasb – hunar kolleji, umumta 'lim mакtablarining qariyb 9 mingtasi, ya'ni deyarli hammasi, lining 800 dan ortiq sport zali namunaviy loyihalar asosida barpo etildi yoki kapital rekonstruksiya qilindi. Ta'limning mohiyat va mazmuni bu dars berish jarayoni, ya'ni pedagog faoliyatini o'quvchining bilish, o'rganish faoliyatiga rahbarlik qilish va uni tashkil qilish hisoblanadi. Dunyoning juda ko'plab buyuk insonlari ta'limga e'tibor berib ularga o'z baholarini ham berib ketganlari ma'lum. Deylik, Ya.Komenskiy "Ta'lim haqiqiy, to'la, ravshan va mustahkam bo'lmog'i zarur" degan edi. Rus faylasufi V.G.Belinskiy "Ta'lim va kamolotning turi ko'p, ularning har biri o'zicha muhim, ammo ahloqiy ta'lim ularning barchasidan yuqori turmog'i lozim" degan edi. Bu so'zdan ko'rinish turibdiki, inson bilimlarining yaxshi bo'lishi uchun unda eng avvalo tarbiyaviy ta'lim bo'lmog'i zarurdir. O'sib kelayotgan yoshlarni bilim olishlari uchun tarbiyaviy ta'lim muhim va zamriy ehtiyojdir. Ta'lim jarayonlami boshqarish har doim jamiyat nazoratida va davlat himoyasida bo'lib kelgan. Jamiyat uchun va uning ehtiyojlarini qondirish uchun ko'plab kadrlar kerak bo'lgan va shunga jamiyat har doim intilib borgan.

Yoshlarga yaratilayotgan bu kabi sharoitlar ulami ruhiy – psixologik holatlarini ko'taradi va ulami kasb egallashlari uchun, o‘zлari sevgan kasblarini egallashlari uchun intilishlarini, qiziqishlarini oshiradi. Kasb egallahash uchun yoshlar o‘zlarini tayyorlab borishlari, o‘qituvchilari bilan o‘zaro munosabatlarini yaxshilashlari juda zaruriy jarayonlardan biri hisoblanadi. Ta’lim tizimini laboratoriyalar, kompyuter xonalar, sport maydonlari va boshqa jihozlar bilan ta’milanishi yoshlarda ijtimoiy psixologik holatlami yaxshilanishiga olib keladi. Ta’lim tizimini laboratoriyalar, kompyuter xonalar, sport maydonlari va boshqa jihozlar bilan ta’milanishi yoshlarda ijtimoiy psixologik holatlami yaxshilanishiga olib keladi. Bu kabi tayyorgarliklar ularda kasblarga bo‘lgan qiziqish, xohish va istaklami vujudga keltiradi. Bular esa ulami bo‘lg‘usida aniq bir kasbni egallashlari uchun turtki bo‘ladi. Albatta, yaratilayotgan sharoitlar yoshlarga, ularning ruhiy holatlariga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Kasbga yo‘naltirishda o‘qituvchining o‘mi va ahamiyati kattadir. O‘qituvchi o‘quvchilar bilan bo‘ladigan muloqotda ularga o‘ziga xos maslahatlar bera oladi. Bunda u o‘quvchining iste’dodi, qobiliyati, imkoniyatlarini o‘rganib borib o‘z maslahatlarini berib boradi. O‘qituvchining bu maslahatlarini kasbiy maslahatlar qatoriga kiritish mumkin bo‘ladi. Umuman esa yoshlarga beriladigan kasbiy maslahatlar o‘qituvchi, psixolog va medik - vrachlar tomonidan berib boriladi. O‘qituvchining kasbiy maslahatlari asosan psixologik xususiyatlardan kelib chiqadi. Bunda o‘quvchining psixologik xususiyatlari, individual tomonlari hisobga olinadi. O‘qituvchi bu sohada ham bilimlarga ega bo‘lishi muhim jarayondir. O‘qituvchi kasbga yo‘naltirishning muhim shakli bu kasbiy maslahat hisoblanib - bunda kasb tanlovchini psixologik – pedagogik va meditsinaga oid tomonlari o‘rganilishini, shular orqali ulami kasbga yo‘naltirilishini bilib olishi zamr bo‘ladi. Kasbiy maslahatlami tashkil etilishining asosiy tomonlari – bu kasbiy maslahat punktlari, “Kasb” bilan bog‘liq xonalar, yoshlami ishga joylashtirish bilan bog‘liq byurolar, maxsus kasbiy maslahat punktlari, kasb haqida ma’lumot olish bilan bog‘liq bo‘lgan korxonalar, psixologik va meditsinaga oid tekshiruvlar bilan bog‘liq tomonlar va

oxirida kasb tanlovchining individual – psixologik xususiyatlarini o‘rganish bilan bog‘liq tekshirishlar hisoblanadi.

Kasbiy maslahatni o‘qituvchi tomonidan berilishi bu yoshlarni aniq kasb tanlashlariga yordam beradi. Kasbiy maslahat berayotgan o‘qituvchi kasb tanlovchilami qobiliyatlarini, qiziqishlarini, iqtidorlarini, intilishlarini hisobga olgan holda va shuningdek ulami kasb tanlashlarini rag‘batlantirish orqali kerakli bo‘lgan natijalami olishi mumkin bo‘ladi. Agarda kasb tanlovchilami qiziqishlari va intilishlari bo‘lsa-yu, ulardagi jismoniy sog‘liq va psixologik xususiyatlar shu kasbga loyiqbo‘lmasa u holda kasbga yo‘naltiruvchi shaxs kasb tanlovchini ehtiyyotlik bilan diqqatini boshqa kasblarga qaratish orqali ulami o‘zlarining layoqatlariga mos kasblarga qaratishlari lozim bo‘ladi. Kasbiy maslahat insonni kasb tanlashiga psixologik yordam beruvchi yo‘nalish bo‘lib, kasbiy faoliyatni rejalash uchun, shuningdek kasbiy hayotdagi qiyinchiliklami yengish uchun qaratilgan kasbiy psixologiyani tarmog‘idir. Kasbiy maslahat insonni yoshiga qarab, jismoniy va individual psixologik xususiyatlariga qarab, uning umumiy va kasbiy qiziqishlariga qarab, intilishi, maqsadi va qobiliyatlariga qarab beriladi. Kasbiy maslahatni asosan uchta vazifasi ajratiladi: ma’lumot beruvchi, diagnostika qiluvchi, oldindan (prognoz) aytib beruvchi. Kasbiy maslahatni ma’lumot beruvchi vazifasi o‘quvchiga aniq mutaxassislik haqida va kasb haqida ma’lumotlarni yetkazib berish va maslahatlar berish hisoblanadi. Diagnostik vazifasi o‘quvchini fiziologik va psixologik xususiyatlarini o‘siganlik darajasi haqida ma’lumotlar beradi. Shu sababli uni ikki muhim tomonini ajratish mumkin bo‘ladi. Bu tibbiy va psixologik tomonlari hisoblanadi. Tibbiy vazifasi - bu butun tanani o‘rganib uning imkoniyatlarini (qon-tomir, nafas olish, nerv tizimi, mushaklar holati va sh.k) haqida ma’lumotlar beradi. Shuningdek, analizatorlami vazifalarining darajasi haqida ham ma’lumot beradi. Psixologik vazifalari esa quyidagi tamoillar asosida quriladi.

1. Subyektning kasbiy faoliyat faolligi asosida;
2. Subyektning kasb egasi bo‘lib borishidagi kompleks yondoshuvga;
3. Maslahatlarga ixtiyoriy ishtirok etish tamoyili asosida;
4. Individual yondoshuv tamoyiliga asosan.
5. Shaxsiy javobgarlik tamoyiliga.

Yoshlarni kasbga yo'naltirishning izchilligi haqida gap borar ekan bu borada davlatimiz tomonidan qabul qilinayotgan qaror va farmonlar , ularning isboti sifatida amalga oshirilayotgan ishlarni ham aytib o'tish joyiz. Masalan 2019-2020-o'quv yilidan boshlab yurtimiz ahlosining asosiy qismini oliv ma'lumotli qilish borasida amaliy ishlar qilinmoqda. Masalan qabul kvotalarning soni oshirilishi, tanlov yo'nalishlari soni 3 taga oshirilishi ham buning isboti hisoblanadi. Undan tashqari prezidentimizning xalqimizni qo'llab quvvatlash borasida davlat grantlari sonini oshirishi ham yoshlar uchun keng imkonyatlardan biri sanaladi.

Yurtimiz yoshlarini kasbga bo'lgan qiziqishlarni hisobga olib, ularni o'zları qiziqqan sohaga yo'naltirish borasida, yoshlarimizni bandligini, vaqtini sermazmun o'tkazishlari uchun prezidentimiz tomonidan “ besh tashabbus” g'oyasi ilgari surildi. Undan tashqari “Kitobxonlik ko'rik tanlovi” joriy etilib respublika bo'yicha hozirgacha 100 dan ortiq yoshlarimiz turli qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlanib kelinmoqda. Yuqorida aytib o'tganimiz “Besh tashabbus” g'oyasi kasbga yo'naltirishning izchilligini ta'minlash borasidagi amaliy ishlarning isboti sanaladi. Undan tashqari yosh tadbirkorlar uchun davlat tomonidan imtiyozli va kam foizli kreditlarning ajratilishi ham yoshlarning kelajakka ishonch ko'zi bilan boqishlarini, Kelajakda xalqimizga , millatimizga kerakli, nafi tegadigan yoshlarni kamol topishiga katta turtki bo'lmoqda. “Kitobxonlik ko'rik tanlovi” ning o'tkazilishi yurtimiz yoshlari orasida istedodli, iqtidorli insonlarni kashf etish uchun vosita bo'lib bormoqda. Qolaversa biz yoshlarni vatanparvarlik ruhida, insoniylik ruhida kamol topishimiz uchun juda katta ma'naviy manba bo'lib hizmat qilmoqda. Bu ko'rik tanlov yurtimizda adabiyot sohasida dunyoga yurtimizni tanitadigan ko'plab shoirlar, adiblarni yetishib chiqishga turtki bo'lsa ajab emas.

O'tmishda va yaqin o'tgan asrda bizning yurtimizdan ko'plab allomalar, yozuvchi va shoirlar, qomusiy olimlar yetishib chiqqan. O'zlarining qoldirgan o'lmas meroslari orqali yoshlarning kamol topishi uchun zamin hozirlab ketganlar. Bu asarlar va g'oyalar orqali biz yoshlarga, keljak avlodga g'oyatda yuksak psixologik va pedagogik muhitni taqdim etmoqda. Bundan unumli foydalanish esa bizning faqat va faqat o'zimizning qo'limizda.

O'quv muassasalaridagi kuzatishlar, o'qituvchi va o'quvchilar bilan olib borilgan suhbatlar o'spirin yoshidagi yigit-qizlarga o'ziari uchun mos kasb tanlashlarida ko'maklashish bo'yicha ta'lif muassasalarida talaygina ishlar amalga oshirilayotganligini, lekin bu ishlar hamma joyda ham talab darajasida yo'lga qo'yilmaganligini ko'rsatadi. Shu borada ayrim o'quv muassasalarida quyidagi kamchiliklar kuzatilayotganligini ta'kidlash lozim:

- o'quvchilarga kasblar va ularning mohiyati haqida yetarli ma'lumot berilmayotganligi;
- yigit va qizlarga ularning kelgusi hayotlari va tanlaydigan kasblari haqida yo'l- yo'riq berishda mahalliy sharoit ehtiyojlari to la hisobga olinmayotganligi;
- o'quvchi shaxsining u tanlagan kasbga layoqatliliginu aniqlashdek muhim masala ham ko'pincha e'tibordan chetda qolayotganligidan iborat.

Maqsadimiz har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalashdan iborat ekan, qanday kasbni tanlashidan qat'iy nazar, o'quvchilarning o'quv muassasasidagi barcha fanlarni to'liq o'zlashtirishlariga erishish muhim vazifadir. Chunki hozir ham har qanday kasb uni tanlagan kishidan atroflicha bilimdon bo'lishni talab qilmoqda. Hatto yaqindagina oddiy ish hisoblangan sog'uvchilik, sartaroshlik kabi kasblar ham shu sohaga oid malakalardan tashqari, fizika, xususan mexanika, elektrotexnika bo'yicha ham tegishli bilimlarga ega bo'lishni taqozo etmoqda. Ammo shaxsni har tomonlama shakllantirish deganda uni har qanday sohaga va har qanday kasbga yaroqli qilib tarbiyalash tushunilmaydi. Garchi inson qobiliyatining doirasi har qancha keng bo'lsada, yuksak samaraga, yetuklikka erishish uchun o'z faoliyat doirasini ma'lum bir sohaga moslab, chegaralab olmog'i lozim. Chunki kishilar o'zlariga muvofiq faoliyat turini tanlamay va shunga binoan o'z faoliyat darajasini chegaralab olmay turib, biror sohada yuqori ko'rsatkichga erisha olmaydilar.

Xulosa qilib aytganda, o'quv muassasasi psixologi va mutasaddilari tomonidan kasbga yo'naltirish ishlari to'g'ri yo'lga qo'yilsa, bu nafaqat o'sha o'quvchi uchun, balki jamiyat uchun ham juda katta foyda keltiradi.

II BOB. Yuqori sinf o'quvchilari va oliv o'quv yurtlarida yoshlarni kasb tanlash jarayoniga ta'sir etuvchi omillar va motivlar.

2.1.Uzluksiz ta'lif jarayonida kasbga yo'naltirish bosqichlari

II BOB. Yuqori sinf o'quvchilari va oliv o'quv yurtlarida yoshlarni kasb tanlash jarayoniga ta'sir etuvchi omillar va motivlar.

2.1. Kasb tanlashga ta'sir etuvchi asosiy omillar va Motivatsiya

Kasb tanlash jarayoni - bu ijtimoiy foyda'i jarayon bo'lib insonni o'zi tanlagan kasbi orqali jamiyatga qo'shadigan hissasi hisoblanadi. Kasb tanlash bu insonni o'zini anglash jarayoni bilan bog'liqdir. Chunki inson o'zini katta bo'lib borishini anglaydi va kelajakda ma'lum bir kasb bo'yicha ishlashi zarurligini sezadi. Bu tanlagan kasbi insonni qoniqtirishi, ehtiyojlarini qondirishi va kelajak hayoti uchun asos bo'lishini anglashi orqali yuz beradi. Bu jarayonni dunyoni ko'plab psixolog mutafakkirlari o'rganganlar. Kasb tanlashning ortida inson yotadi – bu uning ehtiyojları, manfaatlari, qiziqishlari, qobiliyatları va o'ziga xos psixologik xususiyatlari bilan bog'liq bo'ladi. Bu fikr har bir kasb tanlovchining psixologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda individual yondoshish kerakligini anglatadi.

Kasb tanlovchilarning kasb tanlashlariga ko'pgina omillar o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bunda birinchi o'rinda shaxsning kasbga bo'lgan ehtiyoji, uning motivlari, layoqati, qiziqishi, iqtidori va qobiliyati kabilar turadi. Yana shuni aytish kerakki, kasb tanlashda insonning jinsiga asosan ham kasblarga yo'naltirish muhim hisoblanadi. Bu kabi omillami hisobga olgan holda o'quvchilami kasb tanlashlariga yo'nalish berish o'ziga xos tomonlarda ko'zga tashlanadi. Bu kasbiy maorif yoki kasblar haqidagi bilimlar berish hisoblanadi. Bunda o'quvchilami kasbning mohiyati, har bir kasbni inson oldiga qo'yadigan talablari va vazifalari, jamiyatga kerakli darajalari kabilar bilan tanishtiriladi. Kasb maorifi insonni yoshi, jinsi, saviyasi, bilimlari, aql - farosati kabi tomonlarga asosan xil xil tarzda amalga oshiriladi. Yoshlarning kasb tanlashiga ta'sir etuvchi asosiy omillardan biri oila a'zolari bo'lsa, ikkinchisi ularning ta'lim beruvchisi bo'lmish ustozlari hisoblanadi. Kasbiy maslahat o'quvchilarni kasb tanlashlarida, bu kasbni mohiyatini va maqsadlarini ularning ongiga chuqur yetkazib berish va ularda ma'lum bir qiziqishni shakllantirish bilan bog'liq jarayon hisoblanadi. Kasbiy maslahat bu shaxsning ishtiyoqi, havasi, intilishi, qobiliyatlariga mos kasb - hunari tanlashlari uchun muhim


obyektiv va subyektiv sharoitlar yaratish bilan bog‘liq jarayon hisoblanadi. Shaxs tomonidan biror bir kasbni tanlash uning bilimlaridan kelib chiqqan holdagi motivlarga bog‘liq bo‘ladi. Motiv deganda nimani tushunamiz? Motivlar haqida juda ko‘plab ta’riflar berilgan. Motiv lotinchaso‘zbo‘lib movere - harakatga keltiruvchi, undovchi degan ma’noni bildiradi. Motiv subyektning ehtiyojlarini qondirish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyatga undovchi xatti - harakatlardir. Tashqi va ichki sharoitlamining ‘indisi sifatida subyektni ma’lum bir faoliyatga faolligini chaqiruvchi yo‘nalishdir. Motivatsiya hayotiy muhim ahamiyatga ega bo‘lgan tabiiy va ijtimoiy shart - sharoitlarga, jismlarga xulq - atvomi yo‘naltiruvchi qo‘zg‘atuvchi tariqasida baholanishi mumkin. Insonni ehtiyojlaridan kelib chiqib uning ko‘plab motivlarini ajratish mumkin.

Shaxsning ish faoliyati bilan bog‘liq motivatsiyalarni 3 guruhga ajratish mumkin;

- mehnat faoliyati motivlari,
- kasb tanlash motivlari
- ish joyini tanlash motivlari

Aniq faoliyat esa barchasini jamlangan holda izohlanadi, ya’ni, bunda mehnat faoliyati motivlari, kasb tanlash motivlarining shakllanishi, shuningdek, qolgan ikkita motiv orqali esa ish joyini tanlash motivlari ham yuzaga keladi. Mehnat faoliyati motivlari xilma-xil bo‘lib, ular o’ziga xos omillar bilan belgilanadi. Birinchi guruh omillariga jamoaviy xarakterning uyg’onishi bilan bog‘liqlari kiritilib, bunda jamoaga foyda tegishini anglash, boshqa insonlarga yordam berish istagi, mehnat faoliyatida ijtimoiy ustyanovkaning zarurligi va boshqalarga nisbatan tobelikni hohlamaslik kabi motivlar hisoblanadi. Ikkinci guruh omillari o’zi va oilasi uchun moddiy mablag’ning orttirilishi, moddiy va ma’naviy ehtiyojlarning qondirilishi uchun pul ishlab topish motivlaridir. Uchinchi guruhga o’zini o’zi faollashtirish, rivojlantirish, o’zini namoyon qilish ehtiyojlarining qondirilishi va boshqalar kiradi. Ma’lumki, insonlar tabiatdan biror-bir faoliyat bilan shug’ullanmasdan turolmaydilar. Inson nafaqat iste’molchi balki yaratuvchi bo‘lib, yaratish jarayonida u ijoddan ilhom oladi. Bu guruhga mansub motiv jamiyat

tomonidan ehtiyojlarning qondirilishi va boshqalarning hurmatini qozonish bilan bog'liq. Maktab o'quvchilarining mehnat tarbiyasi ham shu motiv bilan bog'liq ravishda shakllantiriladi. Mehnat faoliyatining umumiyligi motivlari yuqorida aytib o'tilganidek, aniq kasblar doirasida amalga oshadi. Kasb tanlash anchagina qiyin va motivatsion jarayondir. Axir shaxsning to'g'ri kasb tanlashi ko'pincha insonning hayotdan qoniqishga ham sabab bo'ladi. Motivlami E.G'oziev va A. Jabborovlar tavsiyasicha quyidagi ko'rinishlarini ko'rsatish mumkin.



Bizningcha, kasbiy (professional) motivlar quyidagi guruhlarga bo'linadi deb ko'rsatadilar yuqoridagi avtorlar. 1) ijtimoiy motivlar; 2) jamoaviy motivlar; 3) protsessual motivlar; 4) rag'batlantiruvchi motivlar va boshqalar. E.A.Klimov O'quvchilarining tasavvuridagi kasb tanlashning uchta tomonini aytib o'tadi ;

- 1) Shu kasbda ishslashni istash (xohlayman).
- 2) Kasbni egallashga bo'lgan qobiliyat, imkoniyatlarni hisobga olish va keyinchalik yaxshi natijaga erishish (bajara olaman).
- 3) Tanlagan kasbga xalq xo'jaligini ehtiyojlarini hisobga olish (kerak).

E.A.Klimov fikricha kasb tanlashning aniq bo'lgan omillari quyidagilar bo'lishi mumkin;

- 1) O‘zni qiziqish va xohishlarini hisobga olish;
 - 2) O‘zidagi qobiliyatlamni hisobga olish;
 - 3) Kasb haqida ma’lumotlarga ega bo‘lish;
 - 4) Ota - onaning fikrlarini hisobga olish;
 - 5) Sinfdoshlarini, tengdoshlarini, o‘rtoqlarini fikrlarini hisobga olish;
 - 7) Ishlab chiqarish bozorini hisobga olish;
 - 8) Ma’lum bir kasbni tayyorlash bo‘yicha dasturlaming mavjudligini hisobga olish.
- Insonlarda kasb tanlashning tashqi va ichki omillari ham farqlanadi. Bu haqidagi A.I.Zelichenko va A.G.Shmelevlarning fikrlari esa quyidagicha:

Tashqi (motivatsion) omillar;

- 1) Kasb tanlashda insonga o‘tkaziladigan bosimlar: tavsiyalar, maslahatlar, boshqa kishilar tomonidan ko‘rsatilgan yo‘l - yo‘riqlar, shuningdek insonga o‘z ta’sirini ko‘rsatuvchi kinodagi, adabiyotdagi qahramonlar; obyektiv xarakterga ega bo‘lgan talablar (armiyada xizmat qilish, oilaning moddiy holati va shu kabilar)
- 2) Insonni o‘ziga tortib oluvchi va o‘zidan itaruvchi faoliyat turlari: tashqarida o‘rab turgan odamlaming “ijtimoiy yutuq” etalonlarining birligi (moda, obro‘, xurofot...).
- 3) Inersiya: boshlang‘ich ijtimoiy rollar steriotipi (oilaviy, neformal guruh a’zosi...); odatiy mashg‘ulotlar (maktabda o‘tiladigan fanlar asosida shakllanadigan, mashg‘ulotlar va shu kabilar).

Ichki (motivatsion) omillar;

- a) Kasbning xususiy motivatsion faktorlari: mehnat quroli, mehnat jarayoni (yoqimli - yoqimsiz, estetik tomonlari, faoliyatning bir xilligi yoki har xilligi, yutuqning doimiyligi - ehtimoli, ish faoliyatining yengil - og‘irligi, mehnatning individualligi va kollektivligi, shu mehnatda kishini rivojlanishga yaratiladigan imkoniyatlar).
- b) Mehnat sharoitlari: jismoniy (ishni iqlimga xos xarakteristikasi); hududiy geografik (ishni yaqin joyda joylashganligi); tashkiliy sharoiti (mustaqil bo‘lishi - bo‘yinsunishi, mehnatni baholashdagi obyektivlik va subyektivlik); ijtimoiy sharoit (ishni qiyinligi - yengilligi, kasbiy ma’lumot, ishga joylashishni osonligi, ishning ishonchliligi, ish rejimining erkinligi - cheklanganligi, ijtimoiy mikroklimat).

d) Kasbdan tashqarigi maqsadlami amalga oshirishni imkoniyatlari borligi: ijtimoiy ishlarga imkoniyatni borligi, o'zi xohlagan ijtimoiy obro'ga ega bo'lishi, moddiy ta'minlanganlikni yaxshiligi, dam olish va ma'lum bir narsalar bilan shug'ullanishga

imkoniyatlarni borligi, sog'ligini saqlash va mustahkamlash uchun imkoniyatni borligi, muloqotga kirishish uchun imkoniyatni bo'lishi. Insonning qaysi faoliyatini tanlashi ko'proq tashqi omillar haqidagi qarorning qabul qilinishi jarayoni haqida to'xtalishi muhimdir. Bu asosan tashqi holat baholariga, o'zining imkoniyat va qobiliyatlariga, kasb tanlashdagi qiziqish va moyilliklariga bog'liqdir. Tashqi holatini baholash, ijobiy ta'sir ko'rsatadigan omillar, o'zida ishlab topiladigan pul miqdori, imtiyoz, taklif etilayotgan korxona, muassasaning yashash joyiga yaqin bo'lishi, transport aloqalarining qulayligi, ish joyi estetikasi va ishlab chiqarishning zararli tomonlari, jamoadagi psixologik iqlim, maqtov va tartibga chaqirish kabilarni qamrab oladi.

A.P.Vasilev tibbiyot xodimi kasbini tanlashning quyidagi asosiy motivlarini keltirib o'tadi:

- 1) Insonlarni davolash istagi.
- 2) Og'ir kasalliklar, qariya, yosh bolalarni og'riqlardan xalos etish istagi.
- 3) O'z yaqinlarining sog'lig'i haqida qayg'urish imkoniyati.
- 4) Ilmiy tibbiyot muammolarini hal etish.
- 5) O'z sog'lig'i haqida qayg'urish.
- 6) Moddiy qiziqishlar.

Ongli ravishda kasb tanlash insonning ijtimoiy mavqeい bilan bog'liq ravishda amalga oshadi. Agar inson uchun asosiysi ijtimoiy nufuz hisoblansa, unda kasb hozirda mavjud bo'lган qoidalar, shuningdek, jamiyatdagi nufuzli kasblardan kelib chiqib tanlanadi. V.A.Kruteskiy o'spirinlarda uchrash mumkin bo'lган motivlardan quyidagilarni alohida ta'kidlab o'tadi:

- biror o'quv faniga nisbatan o'spirinning qiziqishi;
- Vatanga foyda keltirish istagi;
- shaxsiy qobiliyatini ro'kach qilib ko'rsatish;

- oilaviy an'analariga rioya qilishi;
- do'stlari va o'rtoqlaridan o'rnak olganligi;
- ish joyining va o'quv yurtining uyg'a yaqinligi;
- moddiy ta'minlanganlik;
- o'quv yurti ko'rinishining chiroyliligi yoki unga joylashishining osonligi singari motivlardir.

Yuqoridagi fikrlardan ko'rindan, ilk o'spirinlik davrida kasbiy motivlarning shakllanishi bir qator tashqi va ichki omillarga bog'liq. Shuningdek, kasb tanlashga bo'lgan intilish ishtiyoqlar negizida kasbiy motiv va motivatsiya shakllanadi. Aynan xorij psixologlari kasbiy motivlar tarkibini ishlab chiqishda kasb tanlashgacha bo'lgan va kasb tanlab bo'lgandan keyingi jihatlarini ko'rsatib o'tadilar.

Men o'qish mobaynida 1-kursdan to hozirgi davrgacha bo'lib o'tgan amaliyot kunlarida o'zimizning tumandagi va viloyatimizning bir nechta tumanlaridagi o'rta-maxsus kasb-hunar ta'llim maskanlarida o'qiydigan yoshlarni kuzatdim. Ular bilan suhbatlashish natijasida aynan shu davrda o'spirinlarda 16-18 yoshli bolalarda ishlashga ayniqsa moddiy tomondan har tomonlama to'kis bo'lishga intilish va qiziqishlari ortadi. Bunday holatlar ba'zilarida oilaviy sharoitlari tufayli, moddiy yetishmovchiliklari tufayli yuzaga kelgan bo'lsa, ba'zi bir yoshlarda o'zlarini mustaqil bo'lishlariga intilishi, o'zlarini huddi kattalardek his etayotganliklari tufayli degan fikrga keldim. Bu yoshda inson tanasida juda katta fiziologik va psixologik o'zgarishlar ro'y berishini hisobga olsak aynan shu davrda o'spirin yigitlarda o'zlarini hayotga tayyorlash kabi jarayonlarni ko'rishimiz ham mumkin. Bu yoshda insonlarga o'zini ko'rsatish, o'zini tan oldirish, kattalardek tutish holatlarini ham kuzatdim (men ham huddi shu davrdan o'tganman). Oиласида iqtisodiy tomondan kamchiliklari bor bolalar deyarli o'qish jarayoniga qiziqmay ham qo'yadilar. Bu esa nafaqat oilalar uchun balki ta'llim maskani uchun achinarli holat. Bu fikrlardan anglash mumkinki hozirgi kunda kasb tanlashdan asosiy maqsad moddiy manfaat ekanligini aytib o'tmoqchiman. Hozirgi kunnning deyarli 80 foiz yoshlari uchun asosiy motiv sifatida o'zini va yaqinlarini moddiy tomondan to'kisligini ta'minlash ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bu motiv tufayli kasb

tanlash, faoliyat olib borish salbiy yoki ijobiy natijalarni nomoyon etishi har bir insonning ma’naviy yetukligiga, insoniy hislatlari shakllanganligiga va aqliy saloyihatiga bog’liq.

Insonni kasbni to‘g‘ri tanlashi uning hayotiy jarayonlarini to‘g‘ri tanlab olishiga juda katta ta’sir etadi. O‘quvchini yoki kasb tanlayotgan insonni o‘ziga yoqqan kasbini o‘z qiziqish, ehtiyoj va manfaatlaridan kelib chiqqan holda tanlab olishi o‘zhayot faoliyatini deyarli to‘g‘ri belgilaganligini bildiradi. Kasbni to‘g‘ri tanlash - bu uzoq davom etadigan hayotiy jarayondir, bu jarayonni natijaliligi insonni psixologik imkoniyatlarini kasb faoliyati talablari va mohiyati bilan mos kelganda ko‘rish mumkin. Shuningdek shaxsni o‘z kasbiy karerasini ta’minalashdagi ijtimoiy - iqtisodiy o‘zgarishlar va unga moslashish qobiliyatları bilan ham bog‘liqdir. Bizga ma’lumki kasb tanlashga juda ko‘plab omillar ta’sir etadi. Shuni aytish kerakki, kasb tanlash eng awalo o‘qish jarayoni bilan bog‘liqdir. O‘qish faoliyatini tashkil etish bilan o‘sib kelayotgan yoshlami kasb tanlashlashlari uzviy bog‘liqdir. Yoshlami qiziqishlari va imkoniyatlarini hisobga olish va o ‘qishni tashkil qilinishi yaxshi, sifatli, raqobatbardosh kadrlami tayyorlashning asosi hisoblanadi. Bizning fikrimizcha, shaxsni yo‘naltirilgan ma’lumot olishi L.S. Vigotskiyning nazariy fikrlarida o‘z ifodasini topgan. Bular quyidagilarda ko‘rinadi:

- 1) Tarbiya jarayonining asosida o‘quvchining ijobiy faoliyati bo‘lishi kerak va tarbiyalovchining butun san’ati shunga qaratilgan bo‘lishi va faoliyatni boshqarib turilishi zarurdir.
- 2) Tarbiyalanuvchining shaxsiy malakasi pedagogik ishning asosi bo‘lishi kerak.
- 3) Agarda o‘qituvchining ta’siri bolaga kuchsiz bo‘lsa, u holda maxsus muhit orqali unga kuchli ta’sir etish zarur
- 4) Tarbiya o‘quvchining ottirgan shaxsiy malakasi orqali amalga oshiriladi.

A.I.Gebos yoshlami o‘qishga bo‘lgan ijobiy motivlariga quyidagilami kiritadi:

- * O‘qishning yaqin va oxirgi natijalarini anglashida;
- * O‘zlashtirilayotgan bilimlarni nazariy va amaliy ahamiyatini anglashda;
- * O‘quv materiallarini hissiy shakllarda tushuntirib berish;

- * Ilmiy tushunchalami “kelajak yo‘nalishida” tushuntirib berish;
- * O‘quv faoliyatini kasbiy yo‘nalish asosida olib borish;
- * O‘quv faoliyatida muammoviy holatlami yuzaga keltiradigan vazifalarni tanlay olish;
- * o‘quv guruhlaridagi qiziquvchilar va “bilish bilan bog‘liq bo‘lgan psixologik iqlimni” shakllantirishda.

Jahon fani taraqqiyotiga ulkan hissa qo’shgan o’rtalari osiyolik buyuk qomusiy olim Abu Ali Ibn Sino o’zining “Ishoralar va tanbihlar” (“Al-ishorat va-ttanbihot”) risolasida “Siz o’zingizni inson deb hisoblashdan avval, sizni qaysi jihatlarinig uchun inson deb bilishlarini anglastingiz lozim”, ya’ni inson qaysi jihatlari bilan o’zini shasx deb hisoblashi lozimligi haqida so’z yuritgan. Shu bilan birga Ibn Sino ta’lim, bolaning qiziqish, moyillik va qobiliyatlar bilan chambarchas bo’lishi va albatta amaliy mashqlar bilan to’ldirilishi lozimligini ta’kidlagan. Sharq xalqlari madaniyatining rivojiga hissa qo’shgan shoir, mutafakkir, davlat arbobi Yusuf Xos Hojib o’zining “Qutadg’u bilig” dostonida ta’lim berishda yosh xususiyatlarini hisobga olish lozimligi, shuningdek, inson taraqqiyotida biologik va ijtimoiy omillarni bog’lash hamda o’z vaqtida pedagogik ta’sirga oid tushunchalarini rivojlantirish haqida so’z yuritgan.

Shaxsning kasb-hunarni mustaqil tanlashi kasbiy faoliyat sub’ektining qaror topishi va rivojlanishini aks ettiruvchi hayot yo’lining mustaqil yo’nalishi sifatida, mehnat sub’ektining kasbiy - hayotiy yo’lini tashkil etuvchi muhim voqealar yig’indisi sifatida ifodalanishi mumkin. Kasb tanlash uchun ham xuddi inson faoliyatini boshqa jabhalari kabi bilim, malaka, ko‘nikma va shu ish faoliyatini bajara olishni uddalash kabi jarayonlar talab qilinadi. Kasbiy ta’lim bu maxsus ta’lim berish yo‘nalishiga taalluqli bo‘lib, u kasbiy - texnik, o’rtalari va oliy ta’lim tizimida olinishi mumkin. O‘zbekistonda o‘qish uchun tayyorlanayotgan sharoitlar, kadrlami tayyorlashga berilayotgan e’tibor, o‘quv sharoitlarini tubdan o‘zgartirish bilan bog‘liq bo‘lgan islohotlar, yangi kadrlami yaratishga qaratilgandir. Bu sohada o‘qitishning yangi usullarini tadbiq qilish, kadrlarni o‘ylovchi, aql bilan ishlovchi

qilib tarbiyalash eng muhim tamoillardan hisoblanadi. Kadrlar tayyorlashda ulami berilayotgan bilimlami va malakalami o‘zlashtira oladigan va tez qarorlar qabul qiladigan, chuqur bilimga ega bo‘lgan qilib tayyorlash juda zarurdir. Kasb tanlash va o’quv faoliyati o‘zaro ta ’sirda amalga oshirib boriladi. Bunda asosiy omillar bo‘lib kasb tanlovchi, o‘qituvchi, jamiyat manfaatlari yotadi.

2.2.Kasbga yo’naltirish jarayonini individuallashtirish va differensiyalash

Insonni kasbga o‘qitish va uni shu kasbni egasi qilib tarbiyalash unga ta’sir etayotgan obyektiv va uning subyektiv omillar bilan chambarchas bog‘liqdir. Jamiyatimizda ta’lim va tarbiyaga nisbatan olib borilayotgan islohotlaming muhim tomoni ham har bir insonga uning o‘ziga xosligiga e’tibor bergen holda tarbiyalash, ulaming psixologik tomonlarini hisobga olgan holda yondoshish hisoblanadi. Har bir inson o‘zining alohidaligi va qaytarilmaligi bilan individualdir. Ta’lim berishda, tarbiyalashda va boshqarishda insonni eng awalo qaytarilmaligini, individualligini hisobga olish muhim hisoblanadi. Umumiy ta’limning asosiy g‘oyasi bu o‘qitish ko‘proq individuallashtirilgan, funksional va effektiv bo‘lishi keraklidir. Bu vazifani o‘qitish jarayonida o‘quvchilami qiziqishini, layoqatini va qobiliyatlarini hisobga olgan holda, ta’limni tashkil etish, ulami qobiliyatlaridan, kasbiy qiziqishlaridan kelib chiqqan holda bilim olishlarini tashkil etish yotadi. Ya’ni gap bu yerda yuqori sinfdagi o‘quvchilarni o‘qitishni individuallashtirish va differensiallashtirish ustida ketadi.

Differensiatsiya so‘zi lotin tilidan olingan bo‘lib difference – farq degan ma’noni anglatadi va quyidagicha talqin qilinadi, farq va bo‘lish, butunni bo‘laklarga, shakl va darajalarga ajratish ma’nosini beradi. Pedagogik lug‘atda esa bu tushuncha - o‘quv faoliyatini tashkil etish shakli, uni har xil shakl, metodlar, temp, ma’lumot berish hajmi orqalihar bir kishiga bilim olishda yaratiladigan sharoitlar deb tushuniladi. Bunda ta’lim olishni har xil ko‘rinishlariga bo‘lgan ehtiyojlamni qondirish yotadi.

“Individual ” so‘zi esa o‘ziga xoslikni anglatadi. “Individuallashtirish” pedagogik lug‘atida har xil tomondan qaraladi:

- O‘z individualligini ta’minlashga intilishda shaxsni o‘z - o‘zini yo‘naltirish jarayoni sifatida
- O‘qish jarayonida o‘quvchini individual qobiliyatini har xil shakl va usullarda ko‘rsatish. Ta’limni individuallashtirishni o‘qitish yo‘llari asosida ko‘rib chiqilsa bo‘ladi. Bu didaktik jarayon va maktabni tashkil etishda. Birinchi holatda o‘quv dasturlarini, o‘quv adabiyotlarini; ikkinchi holatda o‘qitishni usullari va uchinchi holatda har xil ko‘rinishga ega bo‘lgan maktab va sinflami tashkil etishda. Bu tushunchalami har xil ko‘rinishdagi talqini chet el pedagogikasida ham uchraydi AQShda “individualizatsiya” tushunchasiga har qanday individual xususiyatlami shakl va usullarini kiritiladi. Individual o‘qitish ayrim hollarda ta’limning strategiyasi sifatida talqin qilinadi. N.E. Gronlundaning fikricha u quyidagi ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi:

- 1) guruhdagi minimal modifikatsiyadan tortib to bir butun hech kimga bog‘liq bo‘lмаган о‘рганишни қамраб олади.
- 2) ulgurish darajasini talab qiluvchi o‘qitish, temp, o‘qitish maqsadi, o‘qitish metodlari, o‘quv materiallaridan foydalanish.
- 3) hamma predmetlar bo‘yicha o‘qitishni individuallashtirishdan foydalanish.

Talabalarni o‘qitish ularni individual - psixologik xususiyatlari bilan, ulardagi o‘ziga xoslik, qaytarilmaslik bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi. O‘quvchilar o‘zlaridagi qobiliyatlar, xarakter va temperamentlari asosida ham farqlanib turadilar. Har bir o‘quvchida psixologik jarayonlari ham farqlanadi, ularda diqqat, xotira, tafakkur qilish, hayol va shu kabi tomonlar o‘ziga xos holda farqlanib turadi. Diqqati, xotirasi kuchli bolalar tez o‘zlashtira oladilar va ulami o‘zlashtirishlari ham yaxshi bo‘ladi.

Individuallashtirishga baho berib bu o‘quvchini individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, uning ehtiyojlari, qiziqishlari, imkoniyatlaridan kelib chiqqan holdagi o‘ziga xos usullarda va shakllarda o‘qitish deb tushunmoq kerak. **Differensatsiya** esa – bu o‘quvchilarni ma’lum bir xususiyatlarini hisobga olgan holda guruhlarga ajratib o‘qitish hisoblanadi. O‘qitishning individual va differensial tomoni bu D.Dyuining reformistik g‘oyalari bilan bog‘liq. I.Untning ilmiy ishlarida individualizatsiya bu insonni o‘qitish davomida ma’lum bir xususiyatlami hamma

shakllarida hisobga olishni nazarda tutadi. Differensiatsiya esa o‘quvchilami individual xususiyatlarini hisobga olib va guruhlashtirib ma’lum bir maxsus o‘qitishlarda undan foydalanishni nazarda tutadi. Bu holatda individualizatsiya differensiatsiyaga nisbatan kengroq tushuniladi. Ta’lim jarayoning mana shu ikki omilga tanayib tashkil etilishi va olib borilishi tezroq samara beradi. Biz ko’zlagan manzil sari shahdam qadamlar bilan harakat qilishimizga yordam beradi.

Keng tarqalgan yondoshishlardan biri bu differensial o‘qitish hisoblanib, bunda o‘quvchining individual xususiyatlarini bir ko‘rinishi sifatida o‘ziga qamrab oladi. Bu holatdagi o‘quv – tarbiyaviy jarayon, ya’ni o‘quvchining individual xususiyatlarini hisobga olib o‘qitish - bu **differensial** yondoshish deb nomlanadi. Bunday o‘qitishni esa **differensial** o‘qitish deb ataladi. O‘qitishning bunday usulida ichki va tashqi differensiya farqlanadi.

Ichki differensiatsiya - bu oddiy guruhlardagi o‘quvchilarni individual xususiyatlarini o‘qitish davomida hisobga olish nazarda tutiladi. Hamma o‘quvchilar bitta dastur, bitta reja asosida o‘qitiladi, lekin o‘qituvchi individual usullardan, shakllardan o‘qitish davomida foydalanadi. Ko’rsatib berilayotgan ramkadagi ichki differensiatsiyani o‘qitishning individual yondoshishi deb belgilanadi.

Tashqi differensiatsiya - bu o‘quvchilami ma’lum bir belgilar, qobiliyatlar, qiziqishlar asosida maxsus tashkil etilganligida ko‘rinadi. Bunday guruhlarda maxsus tuzilgan dastur va o‘quv qo‘llanmalar asosida olib boriladi. Tashqi differensiya o’z ornida yana ikki yo’nalishga bo’linadi;

1)Elektiv;

a) fakultativ bilimlar; b) invariant asoida tanlangan fanlar; c) klassdan tashqari ish
2)Selektiv;

a) ixtisoslashtirilgan sinflar; b) maxsus fanni chuqur o’rganishga asoslangan sinflar;
Differensial o‘qitishning asosida o‘quvchilarning psixologik xususiyatlari yotadi. Eng awalo o‘qish faoliyatiga ta’sir etuvchi psixologik jarayonlar va ulami insondagi aksi yotadi. Bunday xususiyatlar yetarli darajada ko‘p. Boladagi o‘qish faoliyatini rivojlantiruvchi quyidagi tomonlar: aqliy rivojlanganlik darajasi, bunda o‘qishga

bo‘lgan intilish va o‘zlashtirilgan bilimlar nazarda tutiladi. Maktabdagi o‘qitishni individuallashtirish quyidagi tomonlar bilan amalga oshiriladi.

Mazmunning variantliligi (turliligi):

1) Asosiy komponentlar

2) Maktab komponenti

O‘qitish jarayonini tashkil qilish:

a) Individual tanlov asosidagi darslar; b) Darslar; c) Individual reja (master - klass);

d) Intensiv (ingliz tili); e) Individual o‘qitish; f) Seminar; g) Amaliyot; h) Ma’ruza;

i) Maslahat; j) Ekskursiya; k) Trening;

3) O‘qitish jarayonining shakllari;

a) Kollektiv ; b) Guruhiy ; c) Individual; d) Mustaqil

4) O‘qitish jarayonining metodlari;

a)Muammoviy - izlanuvchi; b) Muammoviy; c) Eksperimental; d) Rejalahtirilgan

e) Analitik; f) Mustaqil; g) Frontal va sh.k.

Differensiatsiyani quyidagi ko‘rinishlari farqlanadi:

- Regional - maktab tiplari bo‘yicha (maxsus maktablar, gimnaziya, litsey, kollej, xususiy maktablar, kompleks o‘quv binolari).

- Maktab ichidagi (darajasiga asosan, profil bo‘yicha, alohida, chuqurlashtirilgan, kasbga yo‘naltirish, potoklar);

- Parallel tarzda (har xil darajadagi guruhlar va sinflar: gimnaziyaga xos, litseyga xos va sh.k.);

- Siniflararo (fakultativlar, yo‘naltiruvchi, har xil yoshdagi guruhlar);

- Sinf ichidagi yoki fanlar ichidagi (sinf tarkibidagi guruh).

Differensatsiyani quyidagi usullari o‘zini oqlaydi:

• Vazifaning mohiyati hamma sinf uchun bir xilligi, lekin kuchli o‘quvchilarga masalani yechish vaqtini qisqartiriladi.

• Vazifaning mohiyati hamma sinf uchun bir xil, lekin kuchli o‘quvchilarga ko‘proq hajmda va murakkabroq tarzda beriladi.

• Sinf uchun umumiy vazifaberiladi, lekin kuchsiz o‘quvchilarga yordam beruvchi materiallar beriladi (tayanch sxemasi, algoritm, jadval, namuna, javob va sh.k.).

- Kuchli, o‘rta va kuchsiz o‘quvchilarga kuchli va mohiyati jihatidan har xil darajadagi darslardan foydalaniadi.
- Tavsiya etilgan bir qancha variantdagi vazifalar o‘quvchilarga tanlash uchun tavsiya etiladi. Ko‘proq materiallami mustahkamlashda foydalaniadi. O‘qish davomida differensiatsiyadan foydalanish shaxsni ijodiy imkoniyatlarini shakllanishiga; faollikni oshishiga va o‘quv motivlarini kuchayishiga, ijodiy pedagogik tafakkumi shakllanishiga olib keladi. O‘qishni individuallashtirish va differensiatsiyalashni muhim asoslaridan biri bu o‘quvchining psixologik xususiyatlarini hisobga olish bilan bog‘liq jarayondir. Kasb tanlovchining diffemsial va individual tomonlari bo‘yicha K.M.Gurevich tomonidan ilmiy izlanish ishlari olib borilgan. Uning ishlarida insonning temperamentlaridan kelib chiqqan holda kasb tanlashning muhim tomonlari yoritib berilgan.

Bizning fikrimizcha kasbga yo‘naltirish samaradorligi ortadi agarda;

- o‘qituvchi o‘quvchilarning individualligini hisobga olib ta’limni tashkil etsa;
- ta’lim texnologiyalarni shakllantirishda individualizm va differentsiyaga asoslansa;
- o‘quvchilarni qiziqlishi va motivlariga mos keluvchi kasblar klassifikatsiyasi ko‘paytirilsa;
- kasbga yo‘naltirish jarayoni va amaliy faoliyat uyg‘unligi ta’mirlansa;
- o‘quvchilarga ta’lim berish va kasbga yo‘nlatirishda ularning mustaqil tarzda qaror qabul qilib, faoliyat olib borishlari uchun qulay psixologik va pedagogik iqlim shakllantirilsa;

Kasbga yo‘naltirish jarayoni shunday tashkil etilsa albatta ko‘zlangan natijaga erisha olish mumkin bo‘ldi bizning nazarimizda. Bunday asosda ta’lim berish va yo‘naltirish olib borilsa, o‘quvchilarda ishlab chiqarish topshiriqlarida yuksak mas’uliyatni his qilish, qat’iyat ko‘rsatish va pirovard natijaga erishish, o‘z-o‘ziga talabchanlik, o‘z kasbiga ijodiy yondoshish kabi fazilatlarni tarkib toptiradi. Pedagogik tadqiqotlar va olib borilgan amaliy mashg‘ulotlar natijasida quyidagi muammolarni ko‘rib chiqishni taklif etamiz;

- respublikamiz umuta'lim maktablari va oliy bilim yurtlarida kasb tanlash , kasbga yo'naltirish sohasining tarkibiy – funksional tuzilishini tahlilini amalga oshirish;
- yurtimizdagи yuqori sinf o'quvchilarи va oliy o'quv yurtlari talabalari hayotiy rejalarini tahlil etish, bu rejalarining yoshlarda kasb tanlashi yo'lidagi o'ziga xos jihatlarini ko'rib chiqish;
- o'quvchi qiziqishini kasbga yo'naltirishning pedagogik va psixologik tizimini ishalab chiqish. Qiziqishlarning kasbga yo'naltirishdagi samaradorligi va mustahkamligini baholash;

2.3.Kasbga yo'naltirish jarayonida kasbiy qobiliyatlarni shakllanganligini diagnostika qilish

Kasb - bu insonni ma'lum bir ehtiyojlarini va manfaatlarini o'zi tanlagan kasb faoliyatidagi bilimlari, layoqati, malakalariga xos xususiyatlari orqali namoyon bo'lishidir. Kasbga xos bo'lgan jarayonlar, ulami egallash, tanlash inson psixologiyasi bilan bog'liq. Kasb tanlash jarayoni inson psixologiyasiga bog'liqligi shundaki, har bir inson o'zining fiziologik va anatomiq, intelektual va ijtmoiy xususiyatlari bilan ajralib turadi. Qaysidir kasbga layoqati, qobiliyati yuqori bo'lgan inson, boshqa bir kasbga qizimasligi mumkin. Qiziqqan taqdirda ham uning shaxsiy individual xususiyatlari bu kasbga mos kelmasligi mumkin. Shu boisdan ham yoshlarni kasbga yo'llash jarayonida ularning qaysi sohaga nisbatan qobiliyati, iste'dodi borligi diagnostika qilinadi. Har bir kasbning o'ziga xos bo'lgan tomonlari, insonlarni o'ziga jalb qila oladigan qirralari mavjud bo'lib, inson bu jarayonlarni kuzatib borib shu kasbni egallashga intiladi. Bu jarayonlarda inson o'zini ruhiyati bilan shu kasbga xos bo'lgan psixologik tomonlarni ham shakllantirib boradi. Inson farzandida kasbga bo'lgan intilish, qiziqish ontogenezning turli davrlariga xos bo'lgan xususiyatlar asosida o'zgarib turadi. Shunga asosan bolalar ulg'ayib borara ekan turli yoshlarda turli kasblarga qiziqish bildiradilar. Bu qizishlar yosh davrlarida motivlarning almashinib turishi bilan ham chambarchas bog'liq holda o'zgaradi. Misol uchun maktabgacha yosh davridagi bola quruvchilikka qiziqish bildirsa, katta maktab davrida boshqa bir kasbni o'zi uchun ideal deb hisoblay boshlaydi.

Kasblarning bunday tarza almashinib turishi aynan yoshga xos bo'lgan fiziologik, anatomik, gormonal, intelektual o'zgarishlarga bog'liq holda amalga oshadi .

Har bir davrda yoshlarni o'zi tanlagan kasbi haqida mustahkam tasavvurlari bo'ladi. Yoshlar kasb haqida jamiyatdagi talab va ehtiyojlardan kelib chiqqan holda tasavvurlarga ega bo'ladilar. Yoshlardagi kasb haqidagi tushunchalar yoshlik davrdan boshlab tadrijiy rivojlanib borish asosida shakllanadi. Masalan maktabgach davrda bolalarda syujetli-rolli o'yinlar keng tarqaladi, ularning ma'lum qismi kasbga oid o'yinlar hisoblanadi va shu asosda bolalarda rolli o'yinlar asosida ma'lum kasblarni o'zlarining tasavvurlarida shakllantiradilar va unga xos xusussiyatlarni o'zlashtira boradilar. Keyinchalik esa bolalarda kasbga yo'naliш beruvchi mehnat qilishga intilish ya'ni uyda o'z o'yinchoqlarini yig'ishtirish, ozodalikka intilish , kiyimlarni tozalash va hokoza kasblarga oid ko'nikmalar shakllana boradi. Kichik mакtab yoshida esa bolalarda kasbga bo'lgan intilish taqlidga asoslangan holda amalga oshadi. Ular ota-onasi, aka-uka, opa-singillari, yaqinlari qaysi kasb egasi bo'lsalar o'shalarning yurish turishi, kiyimlari, buyumlarini ko'rib ularga taqlid qila boshlashadi. Bu yerdagi ikkinchi muhim tomon bu bolalardagi xususiyat - ya'ni motivlardagi yutuq va asosiy faoliyati ko'rinishi bo'lgan o'qish jarayoni hisoblanadi. Bolalarni o'qishdagi, o'yin faoliyatidagi va mehnatdagi faoliyatları asosida o'z qobiliyatlarını anglash, ularni o'zlari xohlagan kasb haqida tasavvurlarini shakllantirishga olib keladi. Boladagi kichik mакtab yoshidagi qobiliyatlamı rivojlanishi ularda individual farqlanishni yaqqol ko'rsatib qo'yadi, bular esa qaysi kasb ularga yoqishini ko'rsatib beruvchi spektrlarni rivojlantiradi.

O'smirlik davri- bu kasb tanlash, kasbga yo'llash faoliyati olib borishda eng muhim bosqich hisoblanadi. Chunki bu davrda yoshlar ilk marotaba g'ururi va nafsoniyatiga asoslangan holda kasb tanlash va mehnat faoliyatini olib boradilar. O'smirlik bu shaxs bo'lib shakllanishning eng muhim va asosiy bosqichi hisoblanadi. Bu davr har xil mehnat turlariga ahloqiy munosabatlar o'rnataladigan davrdir. Bu davrda har xil kasbni tanlash bilan bog'liq qadriyatlar tizimini shakllanishi bilan bog'liq davr hisoblanadi. Kattalarni tashqi ko'rinishlariga taqlid

qilish bilan o‘g‘il bolalar “haqiqiy erkaklar”ga xos bo‘lgan kasblami tanlashni xohlab qoladilar (deylik, uchuvchi bo‘lishni, kosmonavt bo‘lishni va shu kabilar). Qizlar esa ayollarga xos bo‘lgan ishlami ko‘zlaydilar (deylik, qo‘sishchi bo‘lishni, tikuvchi bo‘lishni, suhandon bo‘lishni va shu kabilar.). Romantik kasblarga intilish ommaviy axborot ma’lumotlari orqali ularda shakllanadi. Yoshlarni 14-15 yoshidagi kasb tanlashi bu juda qiyin va murakkab jarayondir. Bu davrda ular qaysi kasbni tanlashlari hali yetarli aniqlanmagan bo‘ladi. Kelajakni aniq ko‘ra olmaslik ularda - o‘zining “Men”ligini anglash refleksiyasini rivojlantiradi. Ular o‘zlariga Men kimman? Mening qobiliyatim qanday? Mening hayotiy ideallarim qanday? Men kim bo‘lishni xohlayman? kabi savollarni bera boshlaydilar. Ko‘pgina kasbiy maktab o‘quvchilari uchun bunday o‘z - o‘zini tahlil qilish kasbiy o‘z - o‘zini aniqlab olish bilan bog‘liqbo‘lgan psixologik jarayonlarni uyg‘otadi. Lekin aynan kasbiy o‘quv maskanlarida, litsey va kollejlarda o‘qiyotgano‘quvchilar kasbiy bilimlar olib o‘zlarini aynan kasblarini belgilab olishlari zarur bo‘lgan davrdir. Lekin amali - yotdagagi statistik ma’lumotlar bu yoshlarni o‘zlari uchun ma’lum bir kasbni tanlab olganliklarini psixologik asoslab bergen emas. O’smirlik davri mas’uliyatni xis qilish, kuchli emotsiyal xissiyotlar, javobgarlik hissi, biron- bir kasbni tanlamsdan turib kelajakni ko‘ra olmaslik bilan boshqa yosh davrlaridan ajralib turadi. Shuning uchun ham aynan shu davrda muqim bir qarorga kelish, aynan bir kasbni tanlab olishlari zarur hisoblanadi. XXI asrda jahon miqyosida ta’lim barqaror taraqqiyotni ta’minlovchi asosiy omil sifatida e’tirof etilib, YuNESKO tomonidan 2030 yilgacha belgilangan xalqaro ta’lim kontseptsiyasida “o‘qitish va kasbga tayyorlashda, turli xil ta’lim olish imkoniyatlarini kuchaytirish va kengaytirish”1 dolzarb vazifa sifatida belgilandi. Bu maktab o‘quvchilarini kasb-hunarni mustaqil tanlashga tayyorgarligini oshirish va ularning kasb tanlashga oid tafakkurini rivojlantirishga yo’naltirilgan texnologiyalaridan foydalangan holda yanada takomillashtirish zarurligini ko’rsatadi.

Ayni paytda jahonda kasbga yo’naltirish ishlarini natijaviylik asosida tashkil etish usullarining ilmiy asoslarini takomillashtirish, o‘quvchilarning kasbiy motivatsiyasini oshirishga doir o‘quv mashg’ulotlarni joriy etish, kasbga

yo'naltirishda kompetentsiyaviy yondashuvga asoslanganlik, o'quvchilarni kasbhunarni mustaqil tanlashga tayyorlash, o'quvchilarning o'zлari qiziqqan kasblarda o'z iqtidor va imkoniyatlarini erkin ro'yobga chiqarishlari hamda uning o'quvmazmunini, o'qitish shakllari va texnologiyalaridan samarali foydalanish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bugungi kunda Respublikamizda zamonaviy talablar asosida ta'lim sifatini oshirish, jumladan, o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish o'quv-metodik ta'minotini xalqaro talablar asosida yangilash kabi ishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Qobiliyatni ajratib beruvchi testlar va ulardan foydalanish masalalari

Insonlarning kasb tanlash jarayonida qobiliyatni aniqlash katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Buning uchun esa psixologiyada bir qancha testlar va usullardan foydalilanadi.

Test-bu inglizchadan olingan bo'lib, sinash, tekshirib ko'rish degan ma'noni anglatadi.

Psixologik test –bu standartlashtirilgan vazifalar bo'lib, uni bajarish tekshiriluvchini psixofiziologik va shaxsiy xarakteristikasini o'lchab beradi. Angiliyalik biolog Frencis Galton bir qator testlami yaratib, bunda insonni ko'rish qobiliyatini, eshitish qobiliyatini, muskullami kuchini bilishga qaratilgan va boshqa sensomator vazifalami o'rgandi. Galton sensor farqlarni o'rganuvchi testlar bu insonni intellektini ko'rsatadi deb hisoblagan edi. Amerikalik psixolog Djems Kettel og'riqni his etish, xotiradagi va boshqa psixologik jarayonlardagi farqlanishlarni o'rgandi. Kettelga birinchi marotaba testlarga qo'yiladigan talablar tegishli bo'lib, u hamma tekshiriluvchilarga bir xil sharoit yaratishni, test o'tkazishni vaqtini cheklashni, tomoshabinlarni bo'lmasligini, statistik metodlar asosida natijalarni ishlashni kiritish taalluqlidir. Hozirgi zamon testiga fransuz olimi Alfred Bine katta hissa qo'shib inson tafakkurini testda tekshirishni olib kirdi. T. Simon bilan birgalikda u insonni tushunchalariga, hukm va xulosalariga tegishli bo'lgan testlarni ishlab chiqdi. Hozirda testlami juda ko'plab ko'rinishlari mavjud. Bular :

- 1) Predmetli testlar - intellektual shaxsiy va shaxslararo testlarga bo‘linadi.
- 2) Testlarda topshiriqlardan foydalanishning alohida xususiyatlari bo‘yicha amaliy obrazli va so‘z testlariga bo‘linadi.
- 3) Test materiallarining tasnifi bo‘yicha sinaluvchiga talablar, blankali va apparaturali testlar.
- 4) Obyekt bo‘yicha baholash - protsessual testlar yutuqqa erishish testi, holat va xususiyatlar testi.

Intellektual testlar shaxsni aqliy faoliyati rivojlanganlik darajasi va ularni alohida bilish jarayonlarini (idrok, diqqat, hayol, xotira, nutq) baholashda qo‘llaniladi.

Yoshlarni qobiliyatini rivojlantirib borishda ularni o‘zlarini rivojlantirishga bo‘lgan intilishlari yotadi. O‘zlarini rivojlantirish uchun ularda quyidagi tomonlar bo‘lishi kerak bo‘ladi.

*Bilimga intilish

*Rejalashtira olish

*Konstruktivlay olish

*Muloqotga kirisha olish

*Tashkilotchilik tomonlari.

Quyida 9-sinf o‘quvchilarining iqtidor va qobiliyatlarini aniqlash bo‘yicha metodikalardan namunalar bilan tanishib chiqamiz.

“Intellektual qobiliyatni aniqlash” metodikasi.

Insonning aql-zakovati, zehni uning kundalik turmushi, mehnat va kasbiy faoliyatida o‘ziga xos o‘rin tutishini tadqiq etish psixologiyaning eng dolzarb muammolardan biri ekanligi uzoq tarixiy davrga ega. Psixologiyaning zamonaviy fan sifatida shakllanishi barobarida insonning zehni va aql-zakovatini o‘rganish, uning faoliyati samaradorligiga ta’sirini aniqlash bir qator ilmiy qonuniyatlarni ochilishiga sabab bo‘ldi. Misol tariqasida quyidagi psixologlar tomonidan yaratilgan (F.Galton, Ch.Spirmen, A.Bine, T.Simon, M.Kettell, J.Gilford, G.Yu.Ayzenk, R.Tyorstoun) metodikalarni keltirish mumkin.

Dastlabki ilmiy izlanishlar inson intellektining tabiatini, tuzilishi va o‘lchash usullari ustida olib borilgan.

Tadqiqotlarning keyingi bosqichida esa intellekt bilan inson tiplariga (Ayzenk va Shoyentaler metodikalari (Eysenck, Schoenthaler, 1997)), uning ma'lumotililik darajasiga, yashaydigan ijtimoiy-madaniy muhitiga (L.N.Borisova, N.S.Kantonistova), kasbiy faoliyatiga (T.Xarrell va M.Xarrell metodikalari) va boshqa jihatlarga bog'liqligi masalalari tadqiq etilgan.

Mazkur muammoni o'quvchilarning kasbga yo'naltirish va kasb tanlash faoliyati bilan bog'liq o'rghanish zaruratini tahlil etishga to'g'ri kelsa, u holda Govard Gardner tomonidan ilgari surilgan g'oyaga tayanish muhimdir. G.Gardner intellekt orqali insonlarning, xususan o'quvchilarni qanday faoliyat turlariga layoqatli ekanliklarini va qanday kasb tanlashga yordam berishi mumkinligini izohlashga erishgan. U tomonidan ishlab chiqilgan "Intellekt tipi" anketasi intellekt bilan insonning kasbiy faoliyatga layoqatlilagini, moyilligini aniqlash imkonini beradi. G.Gardner o'zining intellektga bag'ishlangan g'oyasidan inson intellektiga ko'ra yettita tip xosligini tasniflagan: lingivistik, matematik-mantiqiy, vizual-fazoviy, musiqiy, shaxslararo, shaxsning ichki olamini tushunuvchi, kinestitek. Umumta'lim maktablarida, kasbhunar ta'limi jarayonida o'quvchilar bilan o'qituvchilarning o'zaro samarali faoliyatni ta'minlashida olim tomonidan ilgari surilgan intellekt tiplariga mansublikni inoabtga olish muhimdir. Ko'p hollarda o'quvchilarning intellekt tiplariga mansubligini payqamaslik yoki bunga doir pedagogik-psixologik axborotga ega emaslik o'qituvchilarning ta'lim berish jarayonida qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Zamonaviy ta'lim muassasalarida esa bu boradagi masalalarni hal etishda o'qituvchiga ta'lim muassasasi amaliyotchi psixologik ko'makchi hisoblandi. Quyida aynan amaliyotchi psixolog va o'qituvchilarning G.Gardner tomonidan ishlab chiqilgan "Intelekt tiplari" anketasi bilan tanishtirish orqali ularga psixologik uslubiy yordam ko'rsatish imkoniga ega bo'lamiz.

"Intellektual qobiliyatni aniqlash" metodikasi.

1. Boshqalar bayon etishida qiynalgan mavzuni men oson tushuntira olaman.
2. Har bir ishni doimo bosqichma-bosqich bajaraman.

3. Fazoviy yo‘nalishlarni yaxshi farqlayman.
4. Ashula matnini tez esda olib qolaman.
5. Menda o‘z do‘stlarimning o‘zaro munosabatlarida yuzaga keladigan bahsmunozaralarни ijobjiy hal etishga tabiiy qobiliyat bor.
6. O‘z-o‘zimni yaxshi bilganim uchun nima qilayotganligimni doimo tushunaman.
7. Faoliyat jarayonida predmetlardan to‘g‘ri foydalanishni yaxshi bilaman.
8. Men o‘zgalarni tinglayman va yaxshi o‘rganaman.
9. Mantiqiy masalalar,jumboqlar va krossvordlarni yechishni yoqtiraman.
10. Men grafiklar,sxemalar,jadvallar asosida berilgan o‘quv materiallarni yaxshi o‘zlashtiraman.
11. Musiqani tinglaganimda kayfiyatim o‘zgaradi.
12. Ko‘proq jamoa orasida bo‘lishni va ijtimoiy tadbirlarda faol ishtirok etishni yoqtiraman.
13. Biror narsani o‘rganishdan oldin uning menga kerak yoki kerak emasligini yaxshi tushunib olishim muhimdir.
14. Men ishlarni mustaqil bajarishim orqali yaxshi o‘rganaman.
15. Mening so‘z boyligim katta.
16. Tushuncha va hodisalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni yaxshi tushinaman va anglayman.
17. Men ko‘rgan-kechirganlarim va o‘y-fikrlarimni har xil timsollar orqali ifodalay olaman.
18. Orkestir jo‘rligida ijro etiladigan murakkab musiqa asarlari alohida musiqa asboblarida ijro etilganida ham ularni yaxshi farqlay olaman.
19. Tevarak-atrofimdagи odamlarning kayfiyati va kechinmalarini yaxshi his etaman.
20. Yolg‘iz xotirjam ishlashni va fikrlashni yoqtiraman.
21. Muvozanat holatini yaxshi his qilaman va doimo harakatda bo‘lishni yoqtiraman.
22. Kundalik yuritishni va yozma lavhalar bilan ishslashni ma’qul ko‘raman.

23. Sonlar bilan ishslash va murakkab matematik masalalarni yechish jonu dilim.
24. Kuzatuvchanman va shu bois boshqalar ilg‘amagan narsalarni ko‘rishga harakat qilaman.
25. Musiqa tinglash, kuy ijod qilish va uni notaga tushirish mening eng sevimli mashg‘ulotim.
26. Men jamoada bildirilgan fikr- mulohazalar va g‘oyalarga tayanib hamkorlikda ishlayman.
27. Yolg‘izlikda o‘qish va ishslashni yoqtiraman.
28. Men o‘zimni tez muvozanatga keltira olaman.

1	2	3	4	5	6	7
№	№	№	№	№	№	№
1	2	3	4	5	6	7
8	9	10	11	12	13	14
15	16	17	18	19	20	21
22	23	24	25	26	27	28
J	J	J	J	J	J	J

1. Mantiqiy-matematik intellekt shaxsning sonlar bilan operatsiyalarni bajarish va ratsional fikrlash qobiliyatlarini ifodalaydi. Intellektning ushbu tipi maktab ta’limidagi barcha fan dasturlari bilan faol bajara oladi. Matematik intellekti rivojlangan insondan yaxshi matematik, fizik, buxgalter, moliyachi, kompyuter dasturchisi, mantiq soha mutaxassisasi yetishib chiqadi. Biroq agar ushbu intellekt sohiblaridan yetakchi matematik qobiliyatga ega bo‘lmasa, bu insonni aqsliz deb bo‘lmaydi. Unga intellektning boshqa tipi xos bo‘lishi mumkin.

2. Vizual-fazoviy intellekt olamni vizual idrok etuvchi va bu axborotlarni tahlil qiluvchi, rangga, shaklga, chiziqlarga, fazodagi ob’ektlar o‘rtasidagi munosabatlarga ta’sirchan bo‘ladi. Bu qobiliyatli bolalar geometriya va chizmachilikni yaxshi o‘zlashtiradilar. Ushbu intellekt tipi arxitektorlar, rassomlar, dizaynerlar uchun xosdir. Bunday insonlar joyni yaxshi mo‘ljallay oladilar, ular yaxshi ekskursovod yoki yo‘lboshlovchi bo‘ladilar. Agar mantiqiy intellekt bilan vizual fazoviy intellekt egalari uyg‘unlashtirsalar ular yaxshi vrach, ximik yoki

biolog yetishib chiqishi mumkin. Tabiiy fanlarda mantiqiy fikrlash bilan bir qatorda molekulalar, organlar va ularning to‘qimalar tuzilishi, tizimini murakkab strukturasini o‘zida tasavvur qilishni talab etadi.

3. Verbal yoki lingvistik intellekt yozuvchilar, jurnalistlar, notiqlarda rivojlangan. Uni bo‘lishi siyosatchilar va umuman boshqalar bilan muloqot qiluvchi, ko‘pchilik oldida chiqishlar qiluvchilar uchun ham xalaqit bermaydi. Bu og‘zaki va yozma nutqli, til tuyg‘ularidan xabardor, yaxshi jumlalar tuza oladigan va o‘z fikrlarini mohirona ifodalay oladi. Bugungi ta’lim tizimi ushbu intellekt tipini rivojlanishiga e’tibor qaratadi, maktabda o‘qishni, yozishni, o‘qiganlarni so‘zlab berish o‘rganiladi.

4. Tana-kinestetik intellekt zamonaviy maktabda kam mashqlantiriladi. Aynan, kinestetik qobiliyatli bolalar sportchilar, balerinalar, aktyorlar va aktrisalar bo‘lib yetishadilar. O‘z tanasini ko‘rkamlashtirish uquvi faqat sahnada va sportda emas, xirurglar, hunarmandlar, mexaniklar va haykaltaroshlarga ham kerak.

5. Musiqiy intellekt-musiqa yozish va baholash, idrok etish qobiliyati, yaxshi musiqiy tovushlar farqlash, ritm va uyg‘unlik tuyg‘usiga ega. Shubhasiz musiqiy intellekt egalari yaxshi ijrochilar, bastakorlar, ovoz rejissyorlari va musiqa tanqidchilari bo‘lib kamol topishlari mumkin. Bu intellekt tana-kinestetik intellekt bilan uyg‘unlashsa, u yaxshi kuylovchi va raqqos bo‘luvchilar uchun xosdir

6. Emotsional yoki shaxslararo intellekt muloqot san’ati bilan bog‘liqdir. Bu o‘zga insonlarning tuyg‘ulari va niyatlarini, kayfiyatini farqlash uquvidir. U muloqot bilan bog‘liq faoliyat egalarining hammasidan talab etiladi: (psixologlar, pedagoglar, menedjerlar, savdo xodimlari, rahbarlar)ga. Hozirgi dunyoda emotsional intellektni egallab, u bilan bog‘liq aloqalarni hal etish ko‘p sohalarda katta ustunliklar beradi.

7. Ekzistensial yoki ma’naviy intellekt- egalari borliq, hayot va o‘lim haqidagi masalalarni muhokama qilishdan qo‘rqmaydilar. Bu tip intellekt egalari psixolog, faylasuf bo‘lib kamol topishlari mumkin. Ko‘pgina yozuvchilarda ham ushbu tip kuzatiladi. Bu iste’dod insonlarga chuqr fikrlash va his etish taqdim etadi, atroflicha fikrlashga o‘rgatadi.

<i>Bayoni</i>	<i>Taklif etiladigan faoliyat turlari</i>
Lingvistik	
<p>1. Yozishni, o‘qishni va tinglashni yoqtiradi.</p> <p>2. Hikoyalar aytib berishni yoqtiradi.</p> <p>3. Sanalar, ismlar va boshqa axborotlarni yaxshi esga olib qoladi.</p> <p>4. Lug‘at boyligi yuqori, yaxshi ifodalay oladi, “so‘zli” o‘yin va krassvordlarni topishni yoqtiradi.</p>	<p>1. Ma’ruza qilish,</p> <p>2. Jo‘r bo‘lib o‘qish,</p> <p>3. Og‘zaki javob berish,</p> <p>4. Rolli o‘yinlar va boshqalar</p>
Matematik-mantiqiy	
<p>1. Arifmetik masalalmi tez yechadilar,</p> <p>2 Ma’lumotlarni tahlil qilishni yoqtiradilar, prognoz qiladilar</p> <p>3. Shaxmat o‘yinini afzal biladilar</p> <p>4. Sabab va oqibatni tez payqaydilar</p>	<p>1. Mantiqiy bog‘lanishlarni tuzish,</p> <p>2. grafiklar tuzish,</p> <p>3. eksperimentlar,</p> <p>4. “xotira kartalari”</p>
Vizual-fazoviy	
<p>1. Timsollar va tasvirlar bilan fikrlash.</p> <p>2. Chizish, bo‘yash, yasashdan baha oladi.</p> <p>3. Karta va diagrammalarini yaxshi idrok etadi Harakatni kuzatishni, slaydlar va fotosuratlarni ko‘rib chiqishni yoqtiradi.</p>	<p>1. Sxema va kartalar chizish,</p> <p>2. Jadvallar tuzish</p> <p>3. Bo‘yash va chizib tugatish,</p> <p>4. Tugallanmagan gaplar</p>
Musiqiy	
<p>1. Atrofdagi har xil tovushlarga nisbatan sezgir.</p> <p>2. Musiqa asboblarida ijro etishni yoqtiradilar, kuyni yaxshi esga olib qoladilar. Musiqa tinglab nimanidir bajarishni yoqtiradilar.</p> <p>3. Ritmni yaxshi his eta oladi.</p>	<p>1. Ashula aytish</p> <p>2. Jo‘r bo‘lib o‘qish</p> <p>3. Harakatli mashqlar</p>
Shaxsning ichki olamini tushunish	
<p>1. O‘zining ichki olami bilan band</p> <p>2. Mustaqillikni namoyish qiladi.</p>	<p>1. Ko‘rsatmali topshiriqlarni mustaqil bajarish</p>

3. Yolg‘iz qolib, o‘zi yoqtiradigan ishni bajarishni afzal biladi.

Shaxslararo

1. Odamlar davrasida bo‘lishni yoqtiradilar

2. Ko‘p do‘stlarga ega

3. Yaxshi tashkilotchi va boshqaruvchi

4. Odamlar bilan muloqotga qiziquvchan, hammasini oson o‘rganadi. Bahs va munozalar vaqtida vositachi bo‘la oladilar

5. O‘zga insonlar tuyg‘ularini yaxshi tushunadilar.

1. Rolli o‘yinlar

2. Bahs-munozalarlar

3. Kichik guruhlarda ishslash

4. Tekshiruvchi rolida ishslash

5. Intervyu olib borish

6. Teatr tomoshalarida ishtirok etish va boshqalar

Empatik qobiliyat diagnostikasi.

Mazkur so’rovnama I.M.Yusupov tomonidan ishlab chiqilgan bo’lib, empatiya qobiliyatining rivojlanish darajasini aniqlash maqsadida qo’llanadi. Empatiya insonning boshqalar kechinmalariga xAMDARD bo‘la olish qobilyati.

Ko’rsatma: «Kurmatli ishtirokchi, quyida berilgan 36 ta xukumga nisbatan o‘z munosabatingizni bildiring. Buning uchun siz baholashning quyidagi tizimidan foydalanishingiz lozim: 0- bilmayman; 1- yoki, hech qachon; 2- ba’zida; 3- ko’pincha; 4- deyarli doim; 5- ha yoki har doim».

1. Menga mashhur odamlarning hayoti xaqidagi kitoblardan ko’ra sarguzasht kitoblar yoqadi.
2. Ota- onalarning g’amxo’rligi katta yoshdagи bolalarning g’ashiga tegadi.
3. Menga boshqa odam erishgan muvoffaqiyat yoki uchragan muvoffaqiyatsizlikning sabablar xaqida mulohaza yuritish yoqadi.
4. Musiqiy ko’rsatuvlar orasidan men ko’proq «Estrada taronalari» ko’rsatuvini yoqtiraman.
5. Adolatsiz tanqidlar bir necha yillar davom etsa xam, ularga chidash kerak.
6. Kasalga xatto so’z bilan yordam berish mumkin.
7. Begonalar ikki kishi orasidagi nizoga qo’shilmasligi kerak.

8. Keksayganda odam juda injiq bo'lib qoladi.
9. Bolaligimda g'amgin hikoyani tinglaganimda, ko'zim o'z o'zidan yoshlanib ketardi.
10. Ota –onamning asabiylashishi mening ham kayfiyatimga ta'sir etadi.
11. Men tanqidlarga befarqman.
12. Men tabiat manzaralari tasvirlangan rasmlardan ko'ra portretlarni tomosha qilishni yoqtiraman.
13. Ota- onam noxaq bo'lganda xam, men ularni kechirardim.
14. Agar ot aravani tortmasa, uni xivichlash kerak.
15. Boshqa odamlar hayotidagi fojealar xaqida o'qiganimda bu hodisalar men bilan ro'y berayotganday bo'lib tuyuladi.
16. Ota-onalar o'z fareandlariga nisbatan noxaq munosabatda bo'ladilar.
17. Janjallashayotgan bolalarni yoki kattalarni ko'rsam men ular o'rtasiga tushaman.
18. Men ota-onamning yomon kayfiyatiga e'tibor bermayman.
19. Men boshqa ishlirimni qoldirib, hayvonlar hatti –harakatini kuzataman.
20. Nega ayrim odamlar kinofilm ko'rib va kitob o'qib, ko'z yosh to'kishini tushunmayman.
21. Notanish odamlarning yuz ifodasi va xulq atvorini kuzatish menga yoqadi.
22. Bolalikda men uyg'a qarovsiz qolgan kuchuk – mushuklarni olib kelardim.
23. Barcha odamlar biror sababsiz xam bir- biriga qarshi tishini qayrab turadi.
24. Begona odamga qarab, uning kelajagi qanday bo'lishini bilgim keladi.
25. Bolaligimda kichkintoylar hech ketimdan qolishmasdi. Jaroxatlangan hayvonni ko'rsam, unga qandaydir yordam berishga harakat kilaman.
26. Odamni e'tibor bilan tinglashsa, uning dardi engillashadi.
27. Ko'chada biror qoida buzarlikni ko'rsam, guvoxlar qatoriga tushib qolishdan o'zimni chetga tortaman.
28. Kichkinalarga men taklif etgan fikr, ish yoki ko'ngil ocharlik yoqadi.
29. Xayvonlar o'z egalarining kayfiyatini sezadi deganlar, menga mubolag'a qiladi.
30. Muomila vaziyatidan odamning o'zi mustaqil chiqishi kerak.

31. Bola besabab yig'lamaydi. Yoshlar qariyalarning hamma iltimosini va injiqliklarini bajo keltirishi kerak.
32. Nima uchun ayrim sinfdoshlarim ba'zida o'ychan bo'lib qolishlarini bilgim kelardi.
33. Karovsiz hayvonlarni tutish va yo'q kilish kerak.
34. Agar do'stlarim men bilan o'z shaxsiy muommosini muxokama qila boshlasa, gapni boshqa mavzuga burishga harakat qilaman.

Natijalarni qayta ishlash.

- 1.Natijalar xolisligini aniqlash. Javoblar xolisligini aniqlash uchun myuaan hukumlarga qanday javoblar berilganligini aniqlash lozim;
«Bilmadim»- 2,4,16,18,33.
«Ha yoki har doim»-2,7,11,13,16,18,23.
«Ha yoki har doim»7va17,10 va 18, 17va31,22va35, 34va36.
«Yo'q yoki hech kachon»-3va36,1va3,17va28.

Eslatma: ma'lum juftlik kirgan ikkala hukum (masalan, «ha yoki har doim»dagi 7va17 yoki «yo'q yoki hech qachon»dagi 3 va 36 raqamli hukumlarga bir hil «ha yoki har doim» yoki «yo'q yoki hech qachon» kabi munosabat bildirilgan bo'lsa, bu munosabat xolis emas.

Noxolis munosabat holatlari 5 teng yoki undan katta- umumiyl natijaga ishonchli emas.

Noxolis munosabat holatlari 4 ga teng- umumiyl natijaning ishonchli darajasi shubxali.

Noxolis munosabat holatlari 3 ga teng yoki undan kam- umumiyl natija ishonchli.

Yakuniyl natijani aniqlash uchun 2,5,8,9,10,12,13,15,16,19,21,22,24,25,26,27,28,29 va

32 raqamlari ostidagi hukmlarning qo'yilgan baxolari yig'indisini topishi kerak.
Eslatma; So'rovnama 6 ta shaklga ega bo'lib quyida ushbu shkalalar va har bir shkalaga kiruvchi hukmlarning tartib raqami keltirilgan

№	шкалалар	хукумлар тартиб рақами
1.	Ота онага нисбатан эмпатия	10,13,16.
2.	Хайвонларга нисбатан эмпатия	19,22, 25.
3.	Карияларга нисбатан эмпатия	02,05,08.
4.	Болаларга нисбатан эмпатия	26,29,35.
5.	Бадий қаҳрамонларга нисбатан эмпатия.	09,12,15.
6.	Нотаниш одамларга нисбатан эмпатия	21,24,27.
Натижаларни баҳолаш.		

Даража	шакл буйича	умумий
Жуда юкори	15	82-90
Юкори	13-14	63-81
Урта	5-12	37-62
Паст	2-4	12-36
Жуда паст	0-1	5-11

Metodika manba'si: Ratanova T. Shlyaxta T. Psixidiognosticheskie metodo' izucheniya lichnosti: Uchebnoe posobie.-M.Moskovskiy psixologo- sotsiolno'y institut. Flinta, 1998. 251-255 betlar.

Albatta bu qobiliyatni aniqlashda ishlatiladiga metodikalarning ayrimlarigina xolos. Yurtimiz psixologlari va boshqa olimlar tomonidan juda ko'plab metodlar, trening mashg'ulotlari ishlab chiqilgan bo'lib, inson qobiliyati qay darajada va qaysi sohalarda ko'proq natijalarga erishishi mumkinligini oldindan bilib olish imkonini beradi . Bu kabi metodikalarning natijalari nisbiy bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham kasb tanlash va kasbga tayyorlash jarayonlari ongli tarzda amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Har bir shaxs o'zi qiziqqan kasbni, iqtodoriga mos sohani tanlasa jamiyat ham yuksala boradi. Birinchi o'rinda har bir insonda o'ziga va atrofdagilarga bo'lган ishonch hissini shakllantirmog'imiz darkor.

III BOB. Uzluksiz ta’lim tizimida kasbga yo’naltirishning mazmun mohiyati

3.1. Uzluksiz ta’lim tizimida kasbga yo’naltirish bosqichlari

XXI asrda jahon miqyosida ta’lim barqaror taraqqiyotni ta’minlovchi asosiy omil sifatida e’tirof etilib, YuNESKO tomonidan 2030 yilgacha belgilangan xalqaro ta’lim kontseptsiyasida “o’qitish va kasbga tayyorlashda, turli xil ta’lim olish imkoniyatlarini kuchaytirish va kengaytirish”1 dolzarb vazifa sifatida belgilandı. Bu maktab o’quvchilarini kasb-hunarni mustaqil tanlashga tayyorgarligini oshirish va ularning kasb tanlashga oid tafakkurini rivojlantirishga yo’naltirilgan texnologiyalaridan foydalangan holda yanada takomillashtirish zarurligini ko’rsatadi.

Bugungi kunda Respublikamizda zamonaviy talablar asosida ta’lim sifatini oshirish, jumladan, o’quvchilarni kasb-hunarga yo’naltirish o’quv-metodik ta’minotini xalqaro talablar asosida yangilash kabi ishlarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagagi “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi to’g’risida”gi PF-4947-son Farmoni hamda O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 15 martdagagi “Umumiyo’tta’lim to’g’risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi, 2017 yil 24 oktyabrdagi “Umumiyo’tta’lim muassasalarining 10–11-sinflari o’quvchilariga kasbiy ta’lim berishga ixtisoslashgan o’quv-ishlab chiqarish majmularini tashkil etish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 868-son qarorlari aynan shu masalalarga qaratilgandir. Ta’lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar natijasida zamon talablariga mos tarzda tayyorlangan metodik ta’minotlar hamda ilg’or usullar asosida o’qitish imkoniyatlari uchun barcha sharoitlar yaratildi. Ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash, jumladan, o’quvchilarni bozor iqtisodiyoti va ish beruvchilarning ehtiyojlariga javob beradigan mutaxassisliklar bo’yicha tayyorlashga sharoitlar yaratilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Xalq ta’lim Vazirligi, Oliy va O’rta maxsus ta’lim vazirligining Kasb-hunar ta’limi markazining qarori bilan maktablarning 10-11 sinflari o’quvchilariga o’quv-ishlab chiqarish majmularida beriladigan kasblar bo’yicha

malaka talablari tasdiqlandi. Malaka talablari kasbga o'rgatish sifati va darajasini baholashda asosiy mezon hisoblanadi. O'quv-ishlab chiqarish majmuasida 10-11-sinflarni kasbga o'rgatish dasturi 2 o'quv yiliga mo'ljallangan bo'lib, haftada 1 kun 6 soatdan jami 408 soat hajmida amalga oshiriladi. Ushbu o'quv daaturini nazariy va amaliy jihatdan yaxshi o'zlashtirib, davlat attestatsiya sinovlaridan ijobiy o'tgan bitiruvchilarga mehnat qilish huquqini beruvchi kasb malakasi bo'yicha davlat namunasidagi diplom beriladi.

O'zbekistan Respublikasining ijtimoiy - iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy- texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustivor soha - bu uzluksiz ta'lim bo'lib, u kadrlar tayyorlash tizimining asosi hisoblanadi.

Uzluksiz ta'lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxs shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar ildam tayyorlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi.

Uzluksiz ta'lim tizimining faoliyat olib borishi davlat ta'lim standartlari asosida turli darajalardagi ta'lim dasturlarining izchilligi asosida ta'minlanadi va quyidagi ta'lim turlarini uz ichiga oladi:

- maktabgacha ta'lim;
- umumiy o'rta ta'lim;
- kasb-hunar ta'limi;
- oliy ta'lim;
- oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim;
- kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;
- mактабдан ташқари та'лим.
- Kasbni to'g'ri tanlash - inson turmushida muhim qadamdir, yosh avlodning butun hayotidagi muvaffaqiyati ko'p jihatdan kasbning qanchalik to'g'ri tanlanishiga bog'liq.

- Kasbni to'g'ri tanlash har bir maktab o'quvchisining qiziqishiga, mayliga, qobiliyatiga va imkoniyatlariga mos bo'lishi uchun uning sog'ligini, o'zlashtirishini va hissiyotlarini xisobga olish lozim, bular ijtimoiy foydali va unumli mehnatda xammadan ko'ra ko'prok qaror topadi va namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi «Xalq ta'limi boshqaruv tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-5538-sonli Farmonida o'quvchilarning o'quv, psixologik va jismoniy yuklamalarini optimallashtirishni hisobga olgan holda o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllarini, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini, kasbga yo'naltirish, ta'lim va tarbiyaning samarali usullarini joriy etish alohida belgilab qo'yildi.

Kasbni mustaqil tanlash kichik yosh davridanoq boshlanib insonning kelajakdag'i butun hayotiga ta'sir etadigan zaruriy qaror qabul qiladigan o'spirinlik davrida yakunlanadi. O'quvchi yoshlarni kasb-hunarni mustaqil tanlashga kichik yoshdan tayyorlash uchun ularning psixofiziologik xususiyatlari asosida tashkil etish lozim. Buning uchun ta'lim tizimining maxsus kasbga yo'naltirish dasturi bo'lishi maqsadga muvofiqli.

“Umumiyl o'rta ta'lim maktablarida uzluksiz kasb-hunarga yo'naltirish” to'rt bosqichdan iborat bo'lib, maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilar, boshlang'ich, o'rta va yuqori sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda uzluksiz kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini olib borish hamda mehnat qilish ko'nikmasini, malakalarini rivojlantirishga mo'ljallangan maxsus dastur amaliyotga kiritilgan. Mazkur dasturda kasb-hunarga yo'naltirishning aniq maqsadlari, vazifa va yo'nalishlari, mакtab o'quvchilarini bilan olib boriladigan kasb-hunarga yo'naltirish ishlarining bosqichlari belgilab berilgan hamda o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis markazi faoliyati yanada takomillashtirish belgilangan, ushbu bosqichlar orqali umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi kasbga yo'naltirish ishlarini kasb-hunarni mustaqil tanlashga tayyorlash sifatida tadqiq qilindi.

Uzluksiz ta’limning birinchi bosqichi mакtabgacha ta’lim bo’lib xozirda bu sohada faoliyati tubdan isloh etilmoqda, jumladan Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha 2017 — 2021 yillarga mo'ljallangan dasturni qabul qilinishi, bu dasturda ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish; mакtabgacha ta’lim sifatini oshirish, mакtabgacha ta’lim muassasalarida bolalarni mакtabga sifatli tayेrlashni tubdan yaxshilash, ta’lim-tarbiya jaraeniga jahon amaliètida keng qo'llaniladigan zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish alohida ta’kidlab o’tilgan.

“Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari” asosida, mакtabgacha ta’lim tizimidagi barcha muassasalarda kasb-hunarga yo'naltirish “Bolajon” tayanch Dasturi asosida olib borilgan. Mazkur Dasturda, bolalarda mehnat qilish tuyg’usini shakllantirish, bolalarda kattalar mehnatiga qiziqishni tarbiyalash ishlari («Bolajon» tayanch dasturi “Bilish jarayoni” bo’limida “Atrof olam to’g’risidagi bilimga ega bo’lish va uni anglash” qismining “Kattalar mehnati” bandi asosida) olib borilgan, masalan:

Kichik (3-4 yosh) guruh bolalarini enaga, oshpaz, qorovul, hamshira, bog’bon, sotuvchi mehnati haqida tanishtirish hamda kir yuvuvchi va haydovchilar mehnati haqida suhbat qilish; Ularning mehnati haqidagi tasavvurlarini boyitish; Ularning mehnat jarayonlari (enaga xonani tozalaydi, idish-tovoqlarni, derazalarni yuvadi, sochiqlarni almashtiradi, ovqat keltiradi, bolalarning kiyinishlariga yordam beradi va h.k) kabilar bilan tanishtirish; Bolalarda kattalarning mehnati natijalarini hurmat qilishga va e’zozlashga o’rgatish nazarda tutilgan.

O’rta (4-5 yosh) guruh bolalarda kattalar mehnatiga hurmat va qiziqish hissini tarbiyalash; O’zbek xalqining milliy hunarmandchiligi, duradgorlik, dehqon mehnati bilan tanishtirish, o’z tarbiyachisi va boshqalar mehnati haqidagi tushunchalarini kengaytirish hamda bog’bon va quruvchi mehnatini kuzatish ishlari olib borish nazarda tutilgan.

Katta (5-6 yosh) guruh ishlab chiqarish korxonalari, qurilishlar, dalalarda qilinadigan mehnat haqidagi bilimlarini takomillashtirish; Ularni yaqin atrofdagi

korxonaga olib borish (mebel, avtomobil, televizor, chinni ishlab chiqaruvchi korxona, novvoyxona va h.k.) haqidagi bilimlarini aniqlash va takomillashtirish; Matonatli kasb egalari mavzusida suhbat qilish, paxtakor, bog'bon, pillakorlar dehqon, chorvador, tikuvchi, shifokor mehnati bilan tanishtirish; Tarbiyachi, o'qituvchi, tikuvchi, sotuvchi, shifokor va h.k. kasb egalarining mehnat jarayonini kuzatib borish nazarda tutilgan.

Faqatgina katta (5-6 yosh) guruhda (mashinasoz, tikuvchi, kosib, nonvoy, oshpaz, o'ymakor, bo'yoqchi, haydovchi) kasblar bilan tanishtirish ishlari olib borilishi nazarda tutilgan.

Tayyorlov (6-7 yosh) guruh bolalarni kattalar mehnati haqidagi tasavvurlarini rivojlantirish, kishilar mehnatiga hurmat hissini tarbiyalashni davom ettiriladi; Bolalarga dehqonchilik, chorvachilik, kulolchilik, tikuvchilik haqida so'zlab beriladi, o't o'chiruvchilar, uchuvchi, quruvchilar hamda bozor turlari haqida suhbat qilish; Shifokor, bog'bon, oshpaz, haydovchi, kashtachilik va kulolchilik san'ati bilan tanishtirish; Aloqa bo'limi va yangi qurilayotgan qurilishlar binosiga sayohat uyushtirish;

Bozor haqida tushuncha berish; Kasb-hunarga oid "Do'kon", "Dehqon bobo", "Pochta", "Chevar", "Haydovchi", "O'qituvchi", "Hamshira", "Bozor-bozor", "Oshpaz" o'yinlarini o'ynash nazarda tutilgan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni kasb bilan tanishtirish – yangi va hali o'r ganilmagan yo'nalishidir va maktabgacha ta'lim tizimi pedagog xodimlari uchun keng qamrovli faoliyatdir.

Maktabgacha ta'limda kasbga yo'naltirish ishlarini uch davrga bo'linsa maqsadga muvofiq bo'ladi: kichik maktabgacha yosh (3-4 yosh, kichik guruh); o'rta maktabgacha yosh (4-5 yosh, o'rta guruh); katta maktabgacha yosh (5-7 yosh, katta va tayyorlov guruhi).

Maktabgacha ta'lim muassasa tarbiyalanuvchilarning kasblar haqida tasavvurlarini shakllantirishda quyidagi vazifalarni (yosh davrlar kesimida) amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

Kichik maktabgacha yoshdagi bolalar (3-4 yosh).

Vazifalar:

- bolalarda ba'zi kasblar haqida boshlang'ich tasavvurlarini shakllantirish, oddiy kasb turlari va asboblari (kasb egasi mehnat faoliyatida ishlatajigan);
- asosiy faoliyat turi bevosita insonlarga g'amxo'rlik (qayg'urish) bilan bog'liq bo'lган kasb egalarini ajratishni (farqlashni) o'rgatish;
- bolalarning e'tiborini asosan mehnat qilayotgan, milliy ertaklar va ijodiy adabiyotlar ijodiy qaxramonlari qaratish lozim;
- yaqin atrofdagi odamlar kasbiy faoliyatida olib borayotgan ishlarining xavfsiz usullari haqida tasavvurlarini oshirish.

O'rta maktabgacha yoshdagi bolalar (4-5 yosh).

Vazifalar:

- bolalarni, inson va jamiyat talabini qondirishga qaratilgan kasblar haqida tasavvurini shakllantirish;
- bolalarni, ish faoliyati qiyin bo'lган kasblar haqida tasavvurini shakllantirish;
- insonlar mehnat qilishining asosiy sabablari haqida bolalarning tasavvurini shakllantirish;
- kasblarni solishtira olishni o'rgatish;
- bola uchun tushunarli bo'lган, muayyan mehnat turining mazmunini ajrata (farqlay) olishni o'rgatish;
- keng tarqalgan, favqulodda holatlar yoki maxsus xizmatlar bilan bog'liq bo'lган kasbiy faoliyat turlari bilan tanishtirish.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalar (4-5 yosh).

Vazifalar:

- bolalarda kasb turlari, mehnat natijasining shaxsga va jamiyatga ahamiyati haqidagi tasavvurlarini kengaytirish va tasniflash;
- insonlar ishini engillashtiradigan turli xildagi texnikalar haqidagi tasavvurlarini kengaytirish va tasniflash;
- mehnatning iqtisodiy tushunchalari haqidagi boshlang'ich tasavvurlarini shakllantirish;

- bolalarni, kasbiy faoliyatning turli yo'nalishlari haqidagi tasavvurlarini adabiy kitoblardan foydalangan holda shakllantirish;
- mehnat faoliyat yil fasllari bilan bog'liq bo'lgan kasb egalari haqidagi bilimlarini tasniflash;
- ijodkorlik bilan bog'liq bo'lgan kasblar bilan tanishtirish: rassom, yozuvchi, kompozitor, milliy hunarmandilik, kulochilik.

Maktabga tayyorlov yoshdagi bolalar (6-7 yosh)

Vazifalar:

- inson, jamiyat va davlat talabini qondirish bilan bog'liq bo'lgan kasblar haqida tasavvurini (kasb turining maqsad va vazifasini; inson, jamiyat va davlat ahamiyatiga molik bo'lgan ba'zi mehnat jarayonlarini, natijalarini, mehnatnning iqtisodiy tushunchalarini) kengaytirish va tasniflash;
- zamonaviy kasblar haqidagi tushunchalarini kengaytirish va tasniflash;
- hududda mavjud va hudud sharoitiga mos kasblar haqidagi tushunchalarini kengaytirish va tasniflash;
- insonning yordamchisi bo'lgan – mexanizm, mashina va qurilmalarning roli haqidagi tushunchalarini kengaytirish;
- ishlab chiqarish (tikuvchilik, quruvchilik, oziq-ovqat maxsulotlari ishlab chiqarishi) va xizmat ko'rsatish (tibbiyot, savdo, ta'lim) bilan bog'liq bo'lgan turli kasblar va ularning faoliyat natijalari haqidagi tushunchalarini shakllantirish;

Maktabgacha ta'limning yakuniga qadar belgilangan vazifalarni amalga oshirilishi bilan quyidagi natjalarga erishiladi:

- bola, kasb egalari mehnati faoliyatida ishlataligida texnika va jixozlar vazifalari haqida biladi;
- turli iqtisodiy sohadagi kasblarni ayt补齐 oladi;
- kasbni muhim belgilaridan farqlay oladi;
- turli kasb egalarining kasbiy muhim sifatlarini ayt补齐 oladi;
- mehnat faoliyatining tuzilish (maqsad, materiallar, jihozlar, mehnat faoliyati, natija)larni ajrata oladi;
- xar hil turdag'i mehnat va kasblarning o'zaro aloqasini tushuntira oladi;

- inson manfaatida mehnatning rolini tushuntira oladi;
- oila byudjeti va pulning vazifasi haqida tushunalarga ega bo'ladi;
- turli kasbdagi insonlarning o'zaro munosabatlarini o'yinlarda foydalana oladi;
- kattalarning mehnat faoliyatida (qo'lidan kelgancha) yordam beradi;
- mehnat faoliyatiga ijobiy yondashadi;
- uy jihozlaridan (xavfsizlikni hisobga olgan) foydalana oladi.

Maktabgacha ta'lim jarayonini yuqoridagi vazifalardan kelib chiqib reja asosida olib borilsa, ijobiy natijaga erishiladi hamda bu natijalar tarbiyalanuvchilarga umumiyl o'rta ta'lim maktabida kasb-hunarni mustaqil tanlashlariga zamin bo'ladi.

Kasbga yo'naltirish – bu o'quvchining butun hayoti uchun o'zi tomonidan kasb tanlashi emas, balki, inson kasbiy faoliyatini boshlaganda, o'zini unda namoyon eta olishi uchun shaxsiy ichki resurslarini faollashtirishi hamda kasb-hunarni mustaqil tanlashga tayyorlanishning shakllanishidir.

Yuqorida qayd etilgan dasturning ikkinchi bosqichining vazifasi “Kim bo'lsam ekan?” boshlang'ich kasb-hunarga yo'naltirishdir. Kasb-hunarga yo'naltirish ishlari boshlang'ich sinflarda (1-4 sinflar) kichik maktab yoshidagi o'quvchilar uchun (6-9 yoki 7-10 yoshlilar) tashkil etiladi va amalga oshiriladi.

Boshlang'ich kasb-hunarga yo'naltirishning asosiy maqsad va vazifalari:

- kichik maktab yoshida o'qishga va mehnatga vijdongan munosabatda bo'lishni shakllantirish, ularning jamiyatda va inson hayotida muhim ahamiyatga egaligini tushunish;
- ota-onasining va boshqa oila a'zolarining hamda turli kasblarga bo'lган qiziqishini rivojlantirish, “Kasblar olami” bilan tanishtirish;
- o'quv, mehnat, ijodiy va kommunikativ faoliyatda malaka va ko'nikmalarini rivojlantirish;
- kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning psixologik-pedagogik tashxisi, umumiyl psixologik, aqliy va jismoniy rivojlanishi korrektsiyasi (boshlang'ich sinfda o'qish va ushbu bosqichda kasb-hunarga yo'naltirishning vazifalari bilan bog'liq);
- ko'rgazmali-obrazli, ko'rgazmali-xarakat, verbal va mantiqiy tafakkurni, tasavvurni, ko'rgan va eshitgan ma'lumotlarni yodda saqlash va qayta tiklashning

oddiy va murakkab operatsiyalarini rivojlantirish (kasbiy ma'lumotni qabul qilish bilan bog'liq); umumiyl o'quv, mehnat va kommunikativ malaka va ko'nikmalarini rivojlantirish (biror bir kasb uchun ahamiyatli bo'lgan o'quv fanlarini o'zlashtirishi bilan bog'liq);

- kichik maktab yoshidagi o'quvchilarining iqtidorini, qobiliyatini aniqlash, ota-onalar uchun tavsiyalar ishlab chiqish (iqtidorli bolaning boshlang'ich sinflarda va oilada ta'lim va tarbiyasi; shuningdek, kelgusida ixtisoslashtirilgan litsey, maktab yoki internatlarda o'qish imkoniyati bilan bog'liq).

Kasb-hunarga yo'naltirish ishlarining uslubi va vositalari:

- kasb-hunarga yo'naltirish haqida xikoya, suhbat, she'r, topishmoqlar, kitoblar, (kichik maktab yoshi davriga tushunarli tarzda kasbiy ma'lumot berish);
- kasbga yo'naltirish mavzusida rasm (kartochka), plakatlar, slaydlar, videofilmlar namoyish qilish (kichik maktab yoshi davriga tushunarli tarzda ko'rgazmali-obrazli kasbiy ma'lumot berish);
- rivojlantiruvchi va o'rgatuvchi kasbiy o'yinlar (kichik maktab o'quvchilariga o'yin, o'quv va kommunikativ faoliyatları bilan birligida kasbiy ma'lumot berish);
- o'quv darslari, "mehnat darsi", "kasbga yo'naltirish darslari" konkurslar (mehnat va ijodiy, o'quv faoliyat jarayonida kasbiy ma'lumot);
- ota-onalar uchun suhbat va topshiriqlar (bolalarni kasbga yo'naltirish bo'yicha tavsiyalar, kasbiy maslahat, kasbiy ma'rifat, ularning bilimlarini mustaxkamlash va rivojlantirish, mehnat malakalari va ko'nikmalarini oilaviy sharoitda tarbiyalash).

Uchinchi bosqich – "Kasblar olamiga sayohat" qidiruv- rivojlantiruvchi kasbga yo'naltirish". Kasb-hunarga yunaltirish ishlari o'rta sinflarda (V-VI-VII sinflar) kichik umumiyl o'rta ta'lim maktablarining kichik va o'rta yoshdagi o'smirlar uchun 11- 12, 13 -14 yoshlilar) tashkil etiladi va amalga oshiriladi.

Qidiruv kasb-hunarga yo'naltirishning asosiy maqsad va vazifalari.

- turli xil sohadagi mutaxassislik faoliyati bo'yicha qiziqishlarini, jamiyatdagagi ijtimoiy institutlar va aniq kasb, mutaxassislikni tanlashni qo'llab-quvatlash va rivojlantirish.

- o'quvchilarni individual psixologik va shaxsiy xususiyatlarini psixologik-pedagogik tashxis (ushbu bosqichda kasbga yo'naltirish vazifalari va pedagogik korrektsiya ishlari bilan bog'liq);
- shaxsninng kasbiy o'zligini belgilashni shakllantirish va rivojlantirish, kasb tanlash bilan bog'liq bo'lgan o'smirning individual psixologik va shaxsiy xususiyatlarini, qiziqish, layoqat, qobiliyatini anglashi;
- o'quv, mehnat, kommunikativ va ijodiy faoliyatda malaka va ko'nikmalarining shakllantirish, (alohida kasbga taalluqli bo'lgan predmet haqidagi bilimlarni o'zlashtirish);
- oddiy va murakkab, verbal va noverbal mantiqiy tafakkur, fazoviy tasavvurini, esda saqlash va qayta esga tushirish malakalarini rivojlantirish (kasbga yo'naltirish haqidagi ma'lumotlarni o'zlashtirish bilan bog'liq);
- iqtidorli bolalarni ijodiy yoki maxsus qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida psixologik-pedagogik qo'lab-quvvatlash; ota-onalarga tavsiyalar ishlab chiqish (iqtidorli bolani oilada tarbiyalash va mакtabda o'qitish maqsadida ixtisoslashtirilgan litsey, mакtab, internatlarga kirish uchun kasbiy maslahat).

Kasb-hunarga yo'naltirish ishlarining uslubi va vositalari:

- kasbga yo'naltirish bo'yicha guruhiy suhbatlar va individual kasbiy maslahat (o'smirlar uchun kasbiy ma'lumotlar);
- kasbga yunaltirish mavzusida plakatlar, slaydlar, videofilmlar namoyish qilish (o'smir uchun ko'rgazmali vositalar yordamida kasbiy ma'lumot);
- "mehnat darslari", "kasb-hunarga yo'naltirish darslari", "ijodiy konkurslar", "viktorinalar" (o'quv, mehnat, ijodiy faoliyat jarayonida kasbiy ma'lumot);
- ota-onalar uchun suhbat va topshiriqlar (kasbiy ma'rifat, kasbiy maslahat, o'smirlarga kasb-hunarga yo'naltirish, oilaviy sharoitda bilim, malaka va ko'nikmalarini mustahkamlashni tarbiyalash bo'yicha tavsiyalar).

To'rtinchchi bosqich: "Men orzu qilgan kasb" shaxsning kasbiy yo'nalganligini shakllantirish va rivojlantirish". Kasb-hunarga yo'naltirish ishlari umumiyl o'rta ta'lim maktablari (VIII – IX sinflar) katta yoshdagi o'smirlar uchun (15-16 yoshlilar) tashkil etiladi va amalga oshiriladi.

- o'quvchilarda shaxsining kasb-hunarga yo'nalganligini shakllantirish va rivojlantirish, o'rta maxsus kasb-hunar tizimida kasb va aniq tayyorlov yo'nalishini tanlash bilan bog'liq bo'lgan kasbiy qiziqish, kasbiy maqsad va qadriyat va motivlarning yo'nalganligini anglashi;
- kasbiy faoliyatning aniq sohasiga kasbiy qiziqishini shakllantirish va rivojlantirish, aniq kasb, mutaxassis va tayyorlov yo'nalishini ongli ravishda tanlashi (akademik litsey yoki kasb-hunar kolleji);
- o'quv, mehnat, kommunikativ va ijodiy faoliyatda bilim malaka va ko'nikmalarini mustahkamlash va rivojlantirish (aniq kasb va mutaxassislik uchun ahamiyatga ega bo'lgan);
- o'quvchilarning individual psixologik va shaxsiy xususiyatlarini psixologik-pedagogik tashxisi (bu bosqichda pedagogik korrektsiya ishlari va kasbga yo'naltirish vazifalari bilan bog'liq bo'lgan);
- murakkab noverbal, verbal, mantiqiy va abstrakt tafakkurni hamda fazoviy tasavvurni, operativ va uzoq vaqtli xotirani rivojlantirish (kasb-hunarga yo'naltirish ma'lumotlarini va predmet bilimlarini o'zlashtirish uchun);
- iqtidorli o'ta qobiliyatli yuqori sinf o'quvchilarini psixologik-pedagogik qo'lab-quvvatlash; ota-onalarga tavsiyalar ishlab chiqish (kasbiy maslahat, kasbiy ma'lumot, kasb, mutaxassislik tanlash bilan va akademik litsey yoki kasb-hunar kollejlariga kirish imkoniyati bilan bog'liq bo'lgan);

Kasb-hunarga yo'naltirish ishlarining uslubi va vositalari:

- kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha guruhiy suhbatlar, individual kasbiy maslahatlar (katta yoshdagi o'smir bolalar uchun kasbiy ma'lumot);
- kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha plakatlar, slaydlar, videofilmlar namoyishi (yuqori sinf o'quvchilari uchun kasbiy ma'lumotning ko'rgazmali vositalari);
- «mehnat darsi», «kasb-hunarga yo'naltirish darsi», «ijodiy konkurslar, viktorinalar, disputlar» (shaxsning kasbiy yo'nalishi, kasb, mutaxassislik va tayyorlov yo'nalishini tanlashi bilan bog'liq);
- O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalariga, korxona, tashkilotlarga ekskursiya;

- Ota-onalar uchun suhbatlar va tavsiyalar (o'smirlarni kasbga yo'naltirish, tayyorlov yo'nalishi va kasb tanlashi bo'yicha; oilaviy tarbiya sharoitida shaxsning kasbiy yo'nalganligini shakllantirish bo'yicha) berib boriladi.

Qayd etish kerakki, umumiy o'rta ta'lim bosqichi ham ana shu uzviylik va uzluksizlik jarayonida hal qiluvchi o'rnlardan birini egallaydi. Chunki boshlang'ich ta'limni olgach 5-9-sinf o'quvchilarini izchil ravishda oliy ta'lim muassasalari akademik litseylariga tayyorlash bosqichiga yoki 10-11 sinflarda o'qitiladigan o'quv ishlab chiqarish majmuasi (O'IChM) kasbga tayyorlab boriladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 24 oktyabrdagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 10-11-sinflari o'quvchilariga kasbiy ta'lim berishga ixtisoslashgan o'quv-ishlab chiqarish majmularini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 868-son qaroriga muvofiq ta'lim muassasalarida umumiy o'rta ta'lim maktablarining 10-11-sinf o'quvchilari uchun o'quv ishlab chiqarish majmularini tashkil etildi.

Belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi va Kasb-hunar ta'limi markazining 2018 yil 29 martdagи "Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 10-11-sinf o'quvchilariga o'quv-ishlab chiqarish majmularida beriladigan kasblar bo'yicha malaka talablarini tasdiqlash to'g'risida"gi 16, 6G'QQ-son qo'shma qarori qabul qilindi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi va Kasb-hunar ta'limi markazining 2018 yil 28 maydagи "Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 10-11-sinf o'quvchilariga o'quv-ishlab chiqarish majmularida o'rgatiladigan kasblarning o'quv dasturlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 28, 13G'QQ-son qo'shma qarori qabul qilindi.

Ushbu qaror asosida umumiy o'rta ta'lim maktablarining 10-11-sinf o'quvchilariga kasb o'rgatish uchun o'quv metodik majmular ishlab chiqildi.

Bunda, ayniqsa, 8-9-sinflar o'quvchilarini kasb-hunarni mustaqil tanlashga tayyorlash muhim pedagogik vazifalardan hisoblanadi. Kasbga yo'naltirish esa o'quvchilarga kasbiy bilimlar berish bilan xarakterlanadi. Kasbiy bilim - o'quvchilarga turli kasblar, mutaxassisliklar, ixtisosliklar haqida ma'lumot berish;

ta’lim turlari, tanlangan kasb va mutaxassislikni qaysi ta’lim muassasasida olish mumkinligi; bundan tashqari, kasblarni insonning jismoniy, ruhiy va shaxsiy sifatlarini inobatga olgan holda tanlashni nazarda tutadi.

Ijtimoiy talablarni qondirish maqsadida, maktabda kasbga yo’naltirish yuzasidan olib boriladigan ishlarni mazmunan yangilash, izchil yo’lga qo’yish zarurati tug’ilmoqda.

Maktabda o’quvchilarni kasb-hunarga yo’naltirish birgina mehnat ta’limi o’qituvchisining ishi emas, balki butun maktab jamoasining, mahalla, ota-onalar, jamoatchilikning birgalikdagi ishidir. Maktabda fan o’qituvchilari tomonidan mavzular kasblar bilan bog’lab o’tilsa, maktab psixologi tomonidan o’quvchilarning qiziqishlari, moyiliklari va individual qobiliyatları hisobga olingan holda ta’lim-tarbiya ishlari tashkil etilgandagina o’quvchilar kasb-hunarni mustaqil tanlashga tayyor bo’ladilar.

O’quvchilarni kasb-hunarga yo’naltirish ishlari ta’lim-tarbiya bilan uzviy kechadigan, uning barcha qirralarini qamrab oladigan uzlusiz jarayondir. Maktabgacha, umumiy o’rta ta’lim maktablari va maktabdan tashqari, o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari, jamoa tashkilotlari hamda ota-onalarning o’zaro hamkorligi bu jarayonning samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Bunday hamkorlik o’sib kelayotgan yosh avlodga ongli va o’z ixtiyori, qiziqishi, xohish-istiklariga asosan mustaqil kasb tanlash, o’z kasbiy istiqbolini belgilash hamda jamiyat ravnaqiga munosib hissa qo’shish imkonini yaratadi. Zero, kasbiy ta’lim-tarbiyadan asosiy maqsad - bu umumiy o’rta ta’lim maktablarining o’quvchi va bitiruvchilarini ongli va mustaqil ravishda kasb-hunar tanlashga tayyorlash, kelgusi ta’limning yo’nalishini va kasb-hunar egallashning usullarini aniqlashdir. Beshinchı yakuniy bosqich: “kasbiy moslashish, kasbiy o’sish va shaxsning o’z-o’zini rivojlantirishi”. Yoshlarning kasbiy moslashishi, kasbiy o’sish va shaxsning o’z-o’zini rivojlantirishi kasb-hunar ta’limi muassasalarida amalga oshiriladi.

Ta’lim tizimida yo’lga qo’yilgan bunday izchil chora –tadbirlar natija berishi yoki bermasligi o’quvchilarning ota-onalari va o’qituvchilar hamkorligida amalga oshiriladigan faoliyatiga bog’liq bo’ladi.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lif to'g'risida»gi Qonuni hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablariga muvofiq jahon ta'limi standartlariga muvofiq, shuningdek, ijtimoiy jamiyatda yuzaga kelayotgan bozor munosabatlari sharoitida raqobatga bardoshli, ilmiy bilimlarni chuqur egallagan, kasbiy bilim asoslarini puxta o'zlashtirgan, shuningdek, muayyan yo'nalishda faoliyat olib borish ko'nikma hamda malakalarini o'zida hosil qila olgan kadrlarni tayyorlash, ularning ma'naviy-axloqiy madaniyatini shakllantirish bugungi kunning dolzarb talabi hisoblanadi. Mazkur talabdan kelib chiqqan holda oliy ta'lif tizimida ham tub islohotlarni amalga oshirish, talabalarda umummehnat va kasbiy ko'nikma hamda malakalarini rivojlantirish maqsadga muvofikdir. Zero, bo'lajak mutaxassislar tomonidan umumiy o'quv va ixtisoslik fanlari asoslari, shuningdek, kasbiy faoliyatni samarali tashkil etish borasidagi ko'nikma va malakalarning puxta o'zlashtirilishiga erishmasdan turib, moddiy hamda nomoddiy ishlab chiqarish sohalarini mahoratli, yetuk kadrlar bilan ta'minlab bo'lmaydi.

Oliy ta'lif tizimida olib borilayotgan o'quv faoliyati mazmunini yangilash yosh avlodning ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirish ishiga mas'ul bo'lган pedagog kadrlarning bilim va kasbiy malakalari darajasini yuqori bosqichga ko'tarish imkonini beradi. Oliy ta'lif tizimida talabalarning umummehnat va kasbiy ko'nikma hamda malakalarini rivojlantirishning pedagogik texnologiyalarini yaratish yoki mavjud texnologiyalardan samarali foydalanish tizimining yaratilishi raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash jarayonida muhim qadam bo'ladi. Ushbu yo'nalishda olib borilgan tadqiqotning mazmuni va yakunlariga tayangan holda shunday xulosalarga kelish mumkin:

Talabalarni kasbga tayyorlashning yangi pedagogik texnologiyalarini ishlab chiqish bir qadar murakkab jarayon bo'lib, mazkur jarayonda mutaxassislik yo'nalishlari hamda ularning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish taqozo etiladi. Tadqiqot ishini olib borish jarayonida kasbga tayyorlashning yangi pedagogik texnologiyalarini ishlab chiqish va ularni o'quv-tarbiya jarayoniga tadbiq etish muammolari quyidagilardan iborat ekanligi aniqlandi:

- pedagogik texnologiya nazariyasi va uning asoslari borasida ma'lumotlar bera oluvchi manbalarning etarli emasligi;
- mavjud manbalarda xususiy fanlar, shuningdek, muayyan ta'lim muassasalarining faoliyat yo'nalishlariga hamda xususiyatlariga muvofiq ularning faoliyatiga yangi pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish mexanizmining ishlab chiqilmaganligi;
- yangi pedagogik texnologiyalarni ta'lim tizimida o'quv-tarbiya jarayoniga tadbiq etish yo'lida amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalarining yaxlit holda tahlil etilmaganligi hamda bu borada qo'lga kiritilgan tajribalarning ommalashtirilishi borasida sustkashlikning mavjudligi;
- ta'lim muassasalari, shu jumladan, oliy ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning yangi pedagogik texnologiya asoslarini puxta o'zlashtirmaganliklari hamda o'z faoliyatlarida ulardan samarali foydalanish malakasi (tajribasi)ga ega emasliklari;
- pedagog xodimlarni tayyorlash jarayonini texnologiyalashtirish borasida keng ko'lamli amaliy harakatning tashkil etilmaganligi.

Qayd etib o'tilgan muammolarning bartaraf etilishi etuk mutaxassislarni tayyorlash, shuningdek, bo'lg'usi kasb egalarida umummehnat va kasbiy ko'nikma hamda malakalarni takomillashtirishga imkon yaratgan bo'lar edi.

2. Muayyan faoliyatni tashkil etish shaxs tomonidan amaliy tajribalar yoki maxsus tashkil etilgan ta'limiy jarayonda o'zlashtirilgan nazariy va amaliy bilimlar asosida kechadi. Ko'nikma va malakalar amaliy bilimlarning yorqin ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. Ko'nikma ma'lum ish-harakatni shaxs tomonidan bajara olish layoqati bo'lsa, malaka esa ko'nikmaning yuqori darajasi bo'lib, malaka hosil bo'lganda ish-harakat avtomatlashtirilgan tarzda bajariladi. Oliy ta'lim tizimida talabalarning umummehnat va kasbiy ko'nikma hamda malakalarini shakllantirish, mazkur jarayonda pedagogik texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini aniqlashda eng avvalo, umummehnat va kasbiy ko'nikma hamda malakalarning

mohiyati, ularning tarkibiy qismlari borasida muayyan tushunchalarga ega bo'lish taqozo etiladi. Muammoga turdosh bo'lgan muammo doirasida olib borilgan tadqiqot ishlari hamda yaratilgan manbalar mazmuni bilan tanishib chiqish asosida umummehnat va kasbiy ko'nikma hamda malakalarning aniq maqsad va belgilangan vaqt oralig'ida (4 yillik ta'lim yoki qo'shimcha 2 yillik ta'lim davrida), maxsus o'quv dasturi talablariga muvofiq tashkil etiluvchi pedagogik jarayonda shakllanadi hamda dinamik tarzda rivojlanib boradi.

3. Muammoga doir manbalar mazmuni bilan tanishish va tadqiqot ishini olib borish jarayonida bo'lg'usi pedagoglarning umummehnat va kasbiy ko'nikma hamda malakalarini rivojlantirishda talabalarning psixologik va fiziologik xususiyatlarini inobatga olish muhim ahamiyatga ega ekanligiga ishonch hosil qildik. Bizga yaxshi ma'lumki, ko'nikma va malakalarning hosil bo'lishida aniq maqsadga yo'naltirilgan faoliyatning tashkil etilishi etakchi o'rinni tutadi. Faoliyat harakat orqali ifodalanadi va u o'zida mexanik, fiziologik hamda psixologik jihatlarni namoyon etadi. Harakat mexanik jihatidan troektoriyasi, maromi va kuchi bilan belgilanadi. Psixologik jihatdan harakatni tashkil etish jarayonida hosil bo'lgan ko'nikma va malakalarning harakat, aqliy va sezgi kabi turlari farqlanadi. Harakat ko'nikma va malaklarning shakllanishi esa shaxsning fiziologik imkoniyatlariga bog'liq ravishda kechadi. Umummehnat va kasbiy ko'nikma hamda malakalarning shakllanishi bir necha bosqichda amalga oshadi.

4. Tadqiqot muammosining nazariy jihatdan o'rganilishi va mavjud holatini aniqlashga qaratilgan urinish natijasida shaxsni muayyan faoliyat ko'nikma va malakalarini shakllantirishga doir salmoqli adabiyotlar yaratilgani holda bo'lg'usi pedagoglarning kasbiy mahoratini oshirish, ularda umummehnat va kasbiy ko'nikma, shuningdek, malakalarni shakllantirish borasida adabiyotlar deyarli yaratilmaganligining guvohi bo'ldik. Shu bois tadqiqot jarayonida mazkur masalaning muayyan echimga ega bo'lishi, shuningdek, bo'lajak kasb egalarida umummehnat va kasbiy ko'nikma hamda malakalarni shakllantirishda o'ziga xos ahamiyat kasb etuvchi tushunchalar mazmunini sharhlashga ahamiyat qaratdik.

5. Ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish jarayonida ayrim holatlar ko'zga tashlanadi. Ana shunday holatlardan biri - bu malakalarning takomillashuvi yoki boshqacha ifodalansa, malakalarning ko'chishi, ya'ni, ilgari hosil qilingan malakalarning keyingilarini o'zlashtirishga ijobiy ta'sir ko'rsatish xususiyati sanaladi. Malakalarning ko'chishida qonuniyatlar hamda ichki va tashqi aloqalarni tushunish, ularni umumlashtirish to'g'risidagi bilimlar alohida ahamiyat kasb etadi.

6. Talabalarda umummehnat va kasbiy malakalarni rivojlantirish jarayonida ta'lim vositalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega ekanligi barchaga ma'lum. Ayni vaqtda so'z yuritilayotgan jarayonda ta'lim vositalaridan foydalanishning texnologiyalarini yaratish maqsadga muvofiqdir. Tadqiqot jarayonida ana shu masalaning ijobiy hal etilishiga e'tibor qaratildi, natijada umummehnat va kasbiy ko'nikma hamda malakalarni rivojlantirish jarayonida quyidagi ta'lim vositalaridan foydalanish faoliyatda ma'lum yutuqlarga erishishning omili ekanligini aniqladik:

Bosma ta'lim vositalari (ishchi daftarlari, o'quv kartasi, o'rgatuvchi dasturlar – algoritmlar, yo'riqnomalar, yo'riqnomatexnologik kartalar, testlar).

Ekranli ta'lim vositalari (diapozitivlar, kinofilmlar).

Tovushli vositalar (magnit yozuvlar, trenajyorlar).

7. Talabalarda umummehnat va kasbiy ko'nikma hamda malakalarni rivojlantirish jarayonida o'qituvchi va talaba munosabati muhim o'rinni tutadi. Talabalar hamda o'qituvchi o'rtasida yuzaga kelgan munosabat o'z mohiyatiga ko'ra quyidagicha bo'ladi: sust-ijobiy, barqaror-ijobiy hamda beqaror. Talabalarda kasbiy malakalarni rivojlantirish jarayonida o'qituvchining ularga nisbatan barqaror-ijobiy munosabatda bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

8. Bo'lg'usi yetuk kadrlarni tayyorlash jarayonida maxsus trenajyorlardan foydalanish talabalarda umummehnat va kasbiy ko'nikma hamda malakalarni rivojlantirishga yordam beradi. Mazkur o'rinda trenajyorlardan foydalanishda ularni to'g'ri tanlash ham ulardan maqsadga muvofiq foydalanish muhimdir. Trenajyorlar

kabi maxsus mashqlar ham kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirishda o'ziga xos o'rinni tutadi. Mashqlar muayyan faoliyatni tashkil etish jarayonida ilgari hosil bo'lgan va yangi shakllanayotgan muvaffaq aloqalarning yuzaga kelishi va qayta qurilishini ta'minlaydi. Bu esa kasbiy ko'nikma va malakalarning rivojlanishida alohida ahamiyatga ega. Mashqlar jarayonida o'quv faoliyatida amalga oshuvchi murakkab o'zgarishlar qator ob'ektiv ko'rsatkichlar: o'zlashtiriladigan, harakatlarni bajarish tezligi, ularni bajarishdagi xatoliklar miqdori, tanaffuslar soni kabilarda namoyon bo'ladi.

9. Talaba yoshlarni kasbga yo'naltirishda kasbiy ko'nikma hamda malakalarni rivojlantiruvchi tajriba-sinov ishlari tahliliga ko'ra quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- talabalarda kasbiy ko'nikma hamda malakalarni rivojlanish maqsadida amalga oshirilgan ko'p yillik tadqiqotlarimiz qo'llanilgan uslublarning samarali va ishonchli ekanligini tasdiqladi;
- talabalarda shakllantirilgan kasbiy ko'nikma hamda malakalar darajasini va uning bo'lajak mutaxassisning kasbiy shakllanishidagi ahamiyatini o'rganish uchun qo'llanilgan uslublar majmuasi olingan natijalarning haqqoniyligi va ijobiy tavsifida namoyon bo'ldi;

Bundan tashqari, amalga oshirilgan tadqiqotning nazariy-metodik natijalari quyidagi yo'nalishlarda tadqiqot ishlarini davom ettirish imkonini beradi:

-ta'lim mazmunini, shu jumladan davlat ta'lim standartlari va uning tarkibiy qismlarini takomillashtirish;

-oliy-pedagogik ta'lim tizimi uchun o'quv-metodik majmualar yangi avlodini yaratish;

-oliy o'quv yurtlarida mutaxassislar tayyorlashni baholashning vosita, metod va shakllarini takomillashtirish va talabalar kasbiy ko'nikma hamda malakalarini rivojlanish samaradorligini baholashda yangi mezonlarni ishlab chiqish.

3.2.Kasb-hunarni mustaqil tanlashga tayyorlash modeli

Modellashtirish – ob'ektlarda ijtimoiy reallikning muayyan qismlarini tadqiq etish uslubi hamda predmetlar va hodisalarining real mavjud bo'lgan hamda quriladigan modellarini o'rganish va ishlab chiqishdir.

O'quvchi yoshlarni kasbni mustaqil tanlashga tayyorlash modeli deyilganda; maqsad va vazifani belgilash, mazmun, texnologik nazorat-taxlil komponentlardan iborat majmua tushuniladi. O'quvchi yoshlar kasb-hunarni mustaqil tanlashda muvaffaqiyatga erishishlari uchun: 1) kasbiy faoliyatda zarur bo'ladigan shaxsiy sifatlar haqida; 2) kasblar olami haqida; 3) muayyan kasbiy faoliyatni amalga oshirishda, kasbiy muhim sifatlar bilan taqqoslash uchun shaxsiy sifatlarni aniqlash imkoniyatlari haqida tasavvurlarini shakllantirishdan iborat.

Maqsad va vazifani belgilash komponeneti quyidagi vazifalarni amalga oshirishni nazarda tutadi, bunda o'quvchilar;

- turli xil kasbiy faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari haqida tasavvurlarga ega bo'ladilar;
- muayyan kasbda muvaffaqiyatga erishishlari uchun zarur bo'lgan shaxsiy sifatlar haqida ma'lumotlarga ega bo'ladilar;
- o'zining shaxsiy kasbiy muhim sifatlarini baholash uchun tashxis qilish metodikalar haqida tushunchalarga ega bo'ladilar;
- shaxsiy sifatlari bilan kasbiy muhim sifatlarni taqqoslay olish va shu asosda kasbiy tanlov amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

Modelning mazmun komponenti zaruriy bilim, ko'nikma va kasbiy kompetentsiyalarni o'z ichiga oladi. mazmun komponenti o'z strukturasiga ko'ra *tamoyillar, vazifalar va mazmunlardan* iborat. Maktab o'quvchilarida kasb-hunarni mustaqil tanlashni shakllantirish insonparvarlik, tizimlilik, izchillik va faoliyatlichkeit *tamoyillariga* tayanadi.

Insonparvarlik tamoyili, kasbga yo'naltirish ishi – inson haqida va uning hayot faoliyati muvaffaqiyatli bo'lishida g'amxo'rlik qilish ekanligini nazarda tutadi.

Tizimlilik tamoyili shakllanish jarayonining barcha elementlarning mantiqiy aloqasini, ularning o'zaro ta'sirlashuvini nazarda tutadi hamda kasbga yo'naltirish ishlarini ta'lim jarayonining bir qismi sifatida qabul qiladi.

Izchilllik tamoyili kasbga yo'naltirish jarayonining dialektik xarakterini tavsiflaydi, uning har bir bosqichi yangilikni anglash uchun imkoniyatlar ochib beradi. Kasbhunarni mustaqil tanlashga tayyorlash 9-sinfni bitirib kasb-hunar kollejlarini (bu maktab o'quvchilarini ikki guruhg'a: ishchi va xizmatchi kasblarini tanlovchilarga ajratish uchun asos hisoblanadi) yoki akademik litseylarni (bunda oliy ma'lumot olishni maqsad qilib qo'ygan o'quvchilar guruhi bilan ishlanadi) yoki 10–sinfda o'qishni davom ettirishni (bunda murakkab bo'lмаган kasblarni egallash bilan birga 11–sinfni bitirib oliy ma'lumot olishni maqsad qilib qo'ygan o'quvchilar guruhi bilan ishlanadi) tanlash bilan yakunlanadi.

Faoliyatlilik tamoyili – kasb-hunarni mustaqil tanlashni faoliyat jarayonida shakllantirish xususiyatini nazarda tutadi. Faoliyatdan tashqarida kasbning imkoniyatlari, talablari va mohiyatini to'liq tushunishga erishish mumkin emas, shuning uchun kasbiy faoliyatni mustaqil loyihalash bilan birga kasbiy sinovlar (muayyan kasbda, mehnat faoliyati orqali o'zini sinab ko'rish)ni amalga oshirish alohida ahamiyatga ega bo'ladi.

O'quvchilarni kasb-hunarni mustaqil tanlashga tayyorlashning *vazifalari* shaxsning turli faoliyat sohalarida kasbiy tanlovniga qaror toptirish, ijtimoiylashtirish va moslashitirishdan iboratdir. *Mazmunlar* oldindan ixtisoslashtirilgan, bilish faoliyatining tuzilishini aks ettiradi:

- 1) kasbni ongli ravishda tanlashi, o'zini-o'zi anglashi uchun shaxsiy sifatlarini tashxis qilish metodikalari haqida tushunchalarga ega bo'lish;
- 2) kasb-hunarni mustaqil tanlashning mohiyati va vazifasini psixologik-pedagogik hodisa sifatida aniqlash;
- 3) kasb-hunarni mustaqil tanlashning asosiy tamoyillarini o'rganish;
- 4) kasblar axborotnoma (professiogramma)lar bilan tanishish;
- 5) shaxsning kasbiy muhim sifatlari to'g'risida tasavvurlarini shakllantirish;

- 6) shaxsiy xususiyatlarni kasbiy muhim sifatlar bilan taqqoslash yo'li orqali kasbhunarni tanlashni amalga oshirish;
- 7) kasbiy xulqning shaxsiy usulini yaratish bo'yicha ijodiy faoliyat olib borish.

Modelning texnologik - komponenti maqbul tizim sifatida quyidagi metodlar tanlab olindi:

- 1) izohli-ko'rgazmali (ma'ruzalar) – kasblar olami haqidagi axborotning asosiy hajmini uzatish uchun;
- 2) o'quvchilarga mustaqil ravishda, lekin o'qituvchining nazorati ostida o'zini (mutaxassis shaxsning kasbiy muhim sifatlarini ajratishiga imkon beruvchi) tashxislash metodikalari hamda ular bilan tanishish uchun bиргалидаги faoliyat (muhokama qilish, baxs-munozarali vaziyatlarga baho berish) metodlari;
- 3) aniq kasbiy vazifalarni modellashtiruvchi va kasbiy faoliyat davomida anglashi zarur bo'lgan kompetentsiyalarning keng ko'lagini o'rganishga imkon beruvchi muammoli o'qitish (o'quv loyihalari, kasbiy o'yinlar va treninglar) metodlari;
- 4) reproduktiv metod (test sinovlari, topshiriqlarni himoya qilish) – kasbiy muhim bilimlarni o'zlashtirish, ko'nikmalar va kompetentsiyalarni shakllantirish jarayonini nazorat qiladi.

Kasb-hunarni mustaqil tanlashni *shakllantirish shartlari* uchta: mazmunni tartibga soluvchi mazmunlar komponenti, kasb-hunarni mustaqil tanlashga tayyorlash bilan bog'liq ko'nikmalarni rivojlantiruvchi tashkiliy komponent va kasb-hunarni mustaqil tanlashga tayyorlash shartlarini shakllantiruvchi psixologik-pedagogik komponentlar bilan ifodalanadi. Ular kasbga yo'naltirish ishining tuzilishini mantiqan aks ettiradi.

Kasbni mustaqil tanlashga tayyorlash axborot yo'nalishini shakllantirish uchun:

- 1) kasbga yo'naltirish va uning asosiy toifalari;
- 2) kasbga bo'lgan talabning o'ziga xos xususiyatlari;
- 3) kasb tanlashning psixologik-pedagogik omillari haqidagi kompleks bilimlarni o'z ichiga qamrab oluvchi asosiy shartlarga amal qilish zarur.

Faoliyat yo'nalishini shakllantirishni ta'minlash uchun shaxsning kasbiy qiziqish va moyilliklarini kasbiy imkoniyatlar bilan taqqoslashni o'z ichiga oluvchi ko'nikma va kompetentsiyalarning shakllanishini birlashtiruvchi tashkiliy shartlarga amal qilishni talab etadi. Xususan,

- 1) umumkasbiy kompetentsiya - kasbiy muhim sifatlarini ajratish ko'nikmasiga ega bo'lish;
- 2) shaxsiy-kasbiy kompetentsiya – shaxsiy-kasbiy muhim (muayyan kasbning kasbiy muhim sifatlarini shaxsning o'zida mavjud bo'lgan) sifatlarini tashxislash ko'nikmasiga ega bo'lish;
- 3) kasbning talablari, shaxsning xususiyatlarini hamda umumkasbiy va shaxsiy-kasbiy kompetentsiyalarini birlashtiruvchi muayyan kasbiy faoliyatining jamiyat tomonidan talab etilishini taqqoslay olish ko'nikmasiga ega bo'lish.

Psixologik yo'nalishni ta'minlash uchun o'quvchilarni kasbga yo'naltiruvchi psixologik kompetentsiyasini shakllantiruvchi psixologik-pedagogik shartlarga amal qilishga o'rgatish zarur. Bunga quyidagilar kiradi:

- 1) shaxsiy muhim shartlar, tizimli mehnat faoliyatida shaxsga asosiy ob'ekt sifatida qarash, kasb-hunarni mustaqil tanlashda esa o'quvchiga hayot yo'lida muvaffaqiyatga erishishi uchun unga o'zini faollashtirish vazifasini o'rgatish;
- 2) motivatsion muhim shartlar, shaxsning kasbiy kompetentligini farqlashga, inson hayotida asosiy muvaffaqiyat nima ekanligini ifodalashga o'rgatish;
- 3) shaxsiy motivatsion shartlar, kasb-hunarni mustaqil tanlashni shakllantirish maqsadini ko'rishga va o'rgangan bilimlarini, o'zlashtirilgan ko'nikma va egallagan malakalarini qo'llash maqsadga muvofiq ekanligini anglashiga sharoit yaratish. Mazkur shartlar o'quvchining shaxs sifatida barqaror anglangan elementini yaratib, bu element uni kasb tanlashning mazkur soha mutaxassisiga bo'lgan talabining uchta jihatiga yo'naltiradi: mening istaklarim (xohlayman), mening imkoniyatlarim (qila olaman) va mening darajam (zarur).

Kasb-hunarni mustaqil tanlashga tayyorlash jarayonini shartli ravishda uchta bosqichga bo'lish mumkin:

Birinchisi bosqichda asosan psixologik yo'nalishning baholash komponenti, faoliyat yo'nalishining kasbiy ko'nikmalar va kreativlik komponentlari shakllanadi. Psixologlarning ta'kidlashicha, o'quvchilarni kasbga yo'naltirishda ularning xarakter xususiyatlarini, temperamentini va psixofiziologik o'ziga xos xususiyatlarini o'rghanish muhim omillardan biri hisoblanadi. Shuning uchun o'quvchilarning xarakter xususiyatlari, temperamenti hamda psixofiziologik omillarini o'rghanish asosida o'quvchilarni kasb-hunarni mustaqil tanlashgga tayyorlash muhim hisoblanadi.

Aynan, o'quvchilarni kasbga yo'naltirishda psixofiziologik xususiyatlarini e'tiborga olib mazkur bosqichning asosiy vazifalari kasb-hunarni mustaqil tanlashda sub'ekt o'zini psixologik tashxislash ko'nikmalarini shakllanishiga erishish, deb belgilandi. Tashxis qo'yish kerak bo'ladijan shaxsning eng muhim sifatlariga quyidagilar kiradi: shaxsiy qiziqishlar, ehtiyojlar, moyilliklar, kobiliyatlar, kasbiy hohishlar, kasbiy yo'nalganligi, xarakter xususiyatlari, temperament va salomatlik holatini . Bu bosqichda o'qitish vositalari – tashxislash (psixologik) test va metodikalar haqida malumotlar berish va ularni o'tkazish, natijalari yuzasidan bahs-munozaralar, turli o'yinlar va mashqlar hamda tashxislash yuzasidan suhbatlar bo'lishi mumkin.

Ikkinchisi bosqich o'quvchilarni kasblar olami bilan tanishtirish bo'lib, u kasblar axborotnomasi (professiogramma) bilan tanishishni ham o'z ichiga oladi. Professiogramma kasblar olami to'g'risida aniq, yaxlit tasavvurga ega bo'lishga, istalgan kasbning umumiyligi tavsifida tez va to'g'ri tanlash ko'nikmasiga ega bo'lishga va o'zini mazkur kasbga moyilligini aniqlashga imkon beradi. Bu bosqichda kasb-hunarni mustaqil tanlash tizimining axborot yo'nalishining ma'lumotlar komponenti va psixologik yo'nalishining motivatsion komponentini shakllantirishga e'tibor qaratiladi.

Uchinchisi bosqichda o'quvchilarni kasblar va ularga bo'lgan talablar hamda ularning zamonaviy jamiyatdagi xususiyatlari hamda imkoniyatlari bilan tanishtirgan holda kasb-hunarni mustaqil tanlashga o'rgatish. Mazkur bosqichda o'quvchi o'zining imkoniyatlari, moyilliigi va qobiliyatini anglagan holda kasb

tanlash sabablarini, shuningdek uni qiziqtiruvchi kasb unga qo'yadigan talablaridan, jamiyatning mazkur kasbga bo'lgan talab va ehtiyojidan kelib chiqib kasb-hunarni mustaqil tanlashga tayyorlashdan iborat.

Nazorat-tahlil - komponenti o'quvchilarini kasb-hunarni mustaqil tanlashni shakllantirish jarayonining natijasini tavsiflaydi. Kasb- hunarni mustaqil tanlashning shakllanganligi, maktab o'quvchilarining muvaffaqiyatli kasb tanlashga psixologik-pedagogik tayyorligida aniqlanadi. Psixologik-pedagogik tayyorlikning tuzilmasi o'zida, miqdoriy ifodaga ega uchta ko'rsatgichlarni, shuningdek kasb-hunarni mustaqil tanlashni anglatuvchi kompleks tashxis qo'yishni nazarda tutuvchi turli xil *darajalarni* birlashtiradi. Tahliliy komponent kasb-hunarni mustaqil tanlashni shakllantirish jarayoni ustidan kompleks nazoratni amalga oshirishga imkon yaratadi, bu esa mazkur jarayonni kechishi davomida tuzatish hamda tartibga solish imkonini beradi. Umumiy o'rta ta'lim maktabi 10-11 sinf o'quvchilarini kasb-hunarni mustaqil tanlashga tayyorlash maxsus kurs dasturi uchun quyidagi ishlar asosida tashkil etilsa, o'quvchilarini kasb-hunarga o'rgatish jarayoni yanada samarali bo'lishiga erishiladi:

- o'quvchilarini kasbiy yo'nalganligini aniqlash bo'yicha tashxislash ishlarini olib borish;
- o'quvchilar tomonidan kasb-hunarni mustaqil tanlash yuzasidan maslahat (kosultatsiya)lar tashkil etish;
- hududdagi korxona va tashkilotlarga (yoki O'IChM tanlagan kasb bo'yicha) ekskursiyalar tashkil etish;
- ta'til davrida (o'quv yili davomidagi va yozgi) o'quvchilar psicho-fiziologik xususiyatlariga mos kasblarda mehnat qilish ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida turli korxona va tashkilotlarda o'zlarining bilim, ko'nikma va mavjud malakalarini sinab ko'rishlari uchun ularga ishslash shart-sharoitlarini yaratish;
- fan va kasblar haftaligini o'tkazish;
- o'quvchilarini ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish maqsadida ularni bevosita ijodiy faoliyatga jalb etish choralarini ko'rish;

3.3.Maktabning yuqori sinf o'quvchilarini kasbni mustaqil tanlashga tayyorlash texnologiyasi

Yuqori sinf o'quvchilarini kasb-hunarni mustaqil tanlashga to'g'ri yo'naltirishni quyidagi texnologiya asosida tashkil etish mumkin:

- kasb-hunarni mustaqil tanlashning mohiyatini ochib berish;
- kasb-hunar tanlashni belgilab beruvchi asosiy tamoyillarni o'rganish;
- professiogrammalar bilan tanishish;
- kasbiy muhim sifatlarni ajratish;
- shaxsiy sifatlarga tashxis qo'yish;
- mehnat bozori talablarini hisobga olgan holda kasb tanlash;
- kasbda o'zini sinab ko'rish jarayonida, kasbiy xulqning shaxsiy uslubni shakllantirish.

Kasb-hunarni mustaqil tanlashning metodik tizimi:

- 1) izohli - tasvirlash metodlari, muayyan materiallar haqida tayanch tasavvurlarning asl mohiyatini tushuntirish kabi vazifalarni o'z ichiga oladi;
- 2) hamkorlikda ishlash metodlari, olingan ma'lumotlarni anglash va muhokama qilish imkonini yaratadi;
- 3) muammoli ta'lim metodlari, aniq vazifalarni modellashtiruvchi va kasbiy faoliyatga yo'naltiruvchi, zarur kompetentsiyalarning keng spektirini o'rganishga imkon beradi;
- 4) reproduktiv metod, muhim bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish, kompetentsiyalarni shakllantirish jarayonini nazorat qilib boradi.

Kasbga yo'naltirish ishlarining shakllari: ma'ruza, tashxislash (psixologik testlar), baxs-munozaralar, o'yinlar, mashqlar, suhbatlar, professiogrammalar bilan tanishish, testlar o'tkazish, munozara, vaziyatlarni tahlil qilish topshiriqlari, vaziyatlarni modellashtirish, kasbiy faoliyatni loyihalashni treninglar orqali rivojlantirish, kasbiy sinovlarni o'tkazish.

Xulosa va tavsiyalar

Hozirda jahon miqyosida jadallik bilan integratsiyalashuv jarayoni ketmoqda. Shunday vaziyatda barcha jamiyatlar va davlatlar chuqur islohotlar va rivojlanish bo'sag'asida turibdi. Bu esa rivojlanishning yangi bosqichi, yangicha yo'naliishga o'tishni taqazo etadi. Barcha rivojlangan davlatlarda bo'lgani kabi bizning davlatimiz ham huddi shunday yo'lni tanlagan. Buni isboti esa yuqorida sanab o'tilgan besh yilga mo'ljallangan strategiya, xalqimizing madaniyatini , yashash sharoitini , ongini yanada yuksaltirishga qaratilgan besh tashabbus ham misol bo'ladi. Prezidentimiz esa bu boradagi ishlarning amaliy natijalariga erishish uchun har kuni yangicha qaror va farmonlar ishlab chiqib hayotga tatbiq etmoqdalar. Hozirigi kunda hech qayis bir mamlakat yo'qliki tashiq muhitdan yangilikni kirib kelishga to'sqinlik qiladigan. Axborot texnologiyalari jadal rivojlangan hosirgi paytda bunning imkonini ham yo'q. Chunki axborot oqimini to'xtatib bo'lmaydi. Har kuni qaysi bir sohada hoh texnika, hoh ijtemoiy, hoh siyosiy va iqtisodiy soha bo'lsin turlichi yangiliklarni kuztib bormoqdamiz. Bu kabi o'zgarishlar atrofimizida har kuni kuzatilmoxda. Turli hil kashfiyotlar, yangiliklar esa har qanday insonni , jamoyatni sergaklikka chorlaydi. Yangiliklar qilishga undaydi. Bunday vaziyatda zamonga qarab yangilanmagan, o'zgarishlarni amalga oshirmagan jamiyat esa har qanday sohada rivojlanishdan orqada qolib ketishi hech gap emas.

Mamlakatning rivojlanganlik darajasi esa , shu davlat va jamiyatning ta'lim tizimiga, kasblarning xilma – xilligiga chambarchas bog'liq. Jamiyat a'zolari qachonki o'zлari yoqtirgan , qobiliyatiga va iqtidoriga mos kasblarda faoliyat olib borsalargina o'sha sohada kashfiyotlar, yuksalish jarayoni amalga oshadi. Chunki o'zi sevgan kasbda ishlab, faoliyat olib borayotgan inson mehnat qilmaydi, balki ijod va yaratuvchanlik bilan mashg'ul bo'ladi. Bunday insonlar esa ishlash uchun emas, balki dam olish uchun, zavq olish uchun kasblarini tanlaydilar. Huddi shunday holatda kasb tanlar ekanmiz rivojlanishlar, yangiliklar har kuni amalga oshiriladi bizning yurtimizda ham. Shu boisdan ham hozirgi kunda yoshlarning to'g'ri kasb tanlashiga, faoliyat olib borishiga katta e'tibor berilmoqda.

Kasb tanlash va kasbga yo'naltirish jarayoni matabning bitiruvchilari va oliv ta'lim maskanlari talabalari uchun juda muhim jarayon hisoblanadi. Bu borada psixologlar va o'qituvchilarimizning mehnatini ta'kidlab o'tmasdan iloji bo'masa kerak. Chunki o'quvchi yoshalarning kasb tanlashiga turki va motiv beruvchi shaxslar ichida aynan shu kasb egalari eng katta yo'naltirivchi funksiyasini amalga oshiradilar. Turli kasblarga doir bilimlar va ko'nikmalarning nazariy va amaliy asoslarni aynan shu kasb egalari shakllantiradilar o'quvchilar ongida. Psixologlar esa yoshalarning qaysi kasbga qobiliyati va iqtidori borligini aniqlab , tashxis qilib yo'llanma beradilar. Shu boisdan ham shu ikki kasb egalari o'z soxalarning yetuk mutaxasislari bo'lmos'i juda zarur hisoblanadi.

Kasbga yo'naltirish jarayoni nafaqat o'qituvchi va murabbiylarga , balki ota-onasi va qarindosh urug'larning ta'siri ostida ham shakllanib boradi. Chunki bola rivojlanib borar ekan birinchi ideal shaxs sifatida otasi va onasiga taqlid eta boshlaydi. Ota va onasi qanday kasbda ishlasalar o'sha kasbni o'zlari uchun maql deb bila boshlaydilar. Lekin har doim ham bunday bo'lavermasligi mumkin. Chunki kasb tanlash jarayoni yoshga bog'liq holda o'zgarib turadi. Qolaversa tashqi muhitning ijtomiy omillari ta'sirida ham bu jarayon amalga oshishi mumkin. Shunday ekan bu o'rinda ota va onalarning ham zarur kasbiy bilimlarga va malakalarga ega bo'lmos'i talab etiladi. Farzandlarning kasbga tanlashlarni ongli ravishda mustaqil olib borishini ta'minlashlari zarur. Ota- onalarning kasbga yo'naltirish jarayonini farzandlarining kasbga bo'lgan qiziqishlarini hisob olgan holda olib borishlari samarali va kutilgan natijani kafolatlaydi.

Kasb tanlash jarayoni o'z – o'zidan sodir bo'ladigan holat emas. Kabga bo'lgan qiziqish , iqtidor va qobiliyat bu borada katta ahamiyatga ega bo'ladi. Kasb tanlash jarayoniga ta'sir qiluvchi yana bir omil borki uni aytib o'tmasdan iloji yo'q.

Bu omil "motiv" yoki "motivatsiya " deb ataladi. Yuqorida biz bu so'zlarning asl ma'nolarni yetarlicha tarzda bayon etib berdik, hozir esa kasb tanlashdag'i ahamiyatni qisqacha aytib o'tmoqchimiz.

Kasb tanlash jarayoni uchun motiv bo'lib turli narsalar yoki kimlardir ongimizga va ruhiyatimizga ta'sir etishi mumkin. Masalan yoshligida ko'p kasal bo'lgan bola aksariyat hollarda shifokor bo'lishni hohlaydi, yoki bo'lmasa , yoqtirgan kinosida bosh qahramon qaysi kasb egasi bo'lsa aynan o'sha kasbni tanlashni ixtiyor etadi.

Bu kabi misollarni juda ko'plab keltirish mumkin, lekin asosiy narsa o'sha motiv yoki motivatsiya bolani to'g'ri yo'naltira olishida menimcha. Bu yerda kasblarning ijobjiy yok salbiy tomonlarni hisobga olish nazarda tutilyapti.

Kasbga tayyorlashda asosiy eng muhim omil bu jamiyatda tashkil etilgan ta'lim tizimi hisoblanadi. Bilim olish va uning afzalliklari haqida Sharqda qadim-qadimdan fikrlar bildirib kelingan. Har bir davrda bu fikrlar yangi-yangi qarash va g'oyalar bilan boyitib kelinmoqda. Chunki, bilish falsafaning ham asosiy muammolaridan biri sanaladi. Zero, bilim olish va o'z navbatida, kasb egallash shaxs ma`naviyatini yukcaltirish, jamiyatdagi o"rnini topishga yordam beradi.

O'quvchilarni ongli kasb tanlashga tayyorlash umumiy ta`lim maktabining muhim vazifasidir. Bu tayyorgarlik ikki omilni:

1) jamiyatni kadrlarga bo'lgan extiyojini;

2) yoshlarning shaxsiy qobiliyatini hisobga olib amalga oshiriladi.

Ikkinchisi, shaxsning kasbiy jihatdan o'z-o'zini anglashi bilan bog'liqdir.

O'quvchilarni kasb tanlashga tayyorlash: ular e'tiborini targ'ib qilinayotgan kasblarga jalb etishni, mehnatning ilmiy asoslari bilan chuqur tanishishni yo'lga qo'yishni, ularni faqat zarur malaka va ko'nikmalari egallahgina emas, shu bilan birga shaxsni, qobiliyatlarini rivojlantirishni ta`minlovchi faoliyatga jalb etishni ham o'z ichiga oladi. Bu borada bizning mamlakatimizda tizimli tarzda yo'lga qo'yilgan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" asosida olib borilayotgan ishlarni aytishimiz mumkin.

Maktab o'quvchilari kasb tanlashning ijtimoiy ahamiyatga molik sabablarini shakllantirish uchun darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarda katta imkoniyatlar mavjud. Bu ish maktab direktori, sinfdan va maktabdan tashqari ishlar tashkilotchisi, sinf

rahbarlari, fan o'qituvchilari, ota-onalar, ma`rifiy-ma`daniy muassasalar xodimlari, mehnat jamoalari bilan mustaxkam hamkorlikda amalga oshiriladigan birgalikdagi kuch-g'ayratlari bilan yo'naltiriladi va u umumiy tarzda amalga oshirilishi kerak.

Darsdan tashqari ishlar tarbiyaviy ta`sir ko'rsatishning xilma-xil usul va shakllari bilan ajralib turadi. Kasblar to'g'risidagi, mehnat faoliyati turlari haqidagi axborot manbaiga qarab kasbga yo'naltirish shakl va usullarini shartli ravishda uch guruhga: Og'zaki, ko'rgazmali va amaliy shakl va usullarga bo'lish mumkin.

Maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirishni boshqarish sistemasida rejalashtirish birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. U ma'lum yoshdagi o'quvchilar tarkibiga nisbatan kasbga yo'naltirish ta`sirining izchilligi ta`minlaydi. Rejalashtirish kasbga yo'naltirishdan iborat yaxli jarayonni o'zaro bog'langan bosqichlariga bo'lish, o'quvchilar faoliyatining har bir yosh uchun maqsadga muvofiq bo'lган turlarini nazarda tutish imkonini berdi.

Oliy o'quv yurtlarida kasbga tayyorlashning turli uslub vositalarni ko'rishimiz mumkin. Hozirgi kunda barcha oliy o'quv yurtlarida zamon talablariga mos ravishda jihozlanib ,ta'lim berishning yangicha usullarini tatbiq etilmoqda. Kasbga tayyorlash jarayonida oliy o'quv yurtlarning asosiy vazifa eng ilg'or mutaxasislar ko'magida ta'lim jarayoni va amaliy faoliyatni uyg'unlashtirgan holda darslarni tashkil etish hisoblanadi. Mutaxasislikka mos bo'lган sohalarda amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish bu kabi maskanlarning muhim vazifasi hisoblanadi. Tegishli tashkilot va muassasalar bilan hamkorlikda tashkil etilgan ta'lim jarayoni yetuk mutaxasislar tayyorlashning garovi hisoblanadi menimcha.

Amalga oshirgan tadqiqotlarimiz natijasi o'laroq quyidagi tavsiyalarni bayon etmoqdamiz ; O'quvchi yoshlarni kasbga tayyorlashda turli hil to'garaklarni tashkil etish va bu to'garaklardagi faoliyat ma'lum bir pedagogik talablarga rioya qilgan holda olib borilsa samarali bo'ladi bizning nazarimizda. Chunonchi ;

- to'garak faoliyati ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lishi lozim, ya'ni, o'quvchilar tayyorlagan buyumlar kishilar uchun amaliy qiymatga ega bo'lishi zarur;

- texnik ijodkorlik o'quv muassasasidagi o'quv-mehnat jarayoni bilan uzviy aloqada bo'lishi kerak (maktab, kollej, oliy ta'lif va boshqalar);'
- ijtimoiy-foydali, unumli mehnat jarayonida o'quvchining tcxmk ijodkorligini tashkil etishda faoliyatni ijtimoiy buyurtmadan ijodkorlikka aylantirish kerak bo'ladi.
- to'garakda olib borilayotgan jarayonlar, kamchilik va yutuqlar ta'lif muassasi va oila a'zolari o'rtasida muhokama qilinsa va tegishli chora tadbirlar ko'rilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.
- to'garakda yo'nalishlar xilma – xilligi va izchil tarzda faoliyat olib borilishiga e'tibor berish lozim.
- oliy o'quv yurtlarida kasbga tayyorlashni amaliy tarzda olib borish maqsadga muvofiq bo'ladi.
- buning uchun ta'lif tashkilotida amaliy dars soatlarini ko'payatirish , sohalarga mos ravishda tashkilot va korxonalar bilan hamkorlikni izchil yo'lga qo'yish lozim.
- talaba yoshlarni mustaqil tarzda faoliyat olib borishi uchun barcha kerakli shart sharoitlarni yaratib berish lozim.

Kabga yo'naltirish jarayoning izchilligini ta'minlash uchun ta'lif muassasalari hamkorlikda ish olib borishi lozim. Oliy o'quv yurtlarining qoshiga biriktirilgan maktab va litseylar faoliyati oliy ta'lif muassasalari bilan chambarchas bog'liq hisoblanadi. Oliy o'quv yurtlari litseylar va maktablar bilan birgalikda faoliyat olib borishi har tomonlama manfaatli hisoblanadi. Chunki kasbga yo'naltirish jarayonidagi izchillik aynan shu ta'lif muassasalarida beriladigan bilimning uzluksizligiga bog'lik. Ta'lif muassasalari o'zaro va oila bilan hamkorlikda faoliyat olib borsalar nur ustiga a'lo nur bo'ladi. Chunki tahsil olayotgan o'quvchi o'qiyotgan faniga yoki yo'nalishiga mos bo'lgan hamkor oliy o'quv yurtiga kerakli kadr sifatida qabul qilinadi. Bu esa o'z o'rnida oliy o'quv yurtining nufuzini ham oshishiga sabab bo'ladi. Maktab o'quvchilarning iqtidoriga qarab oliy o'quv yurtlari ga tavsiya etilishi kasbga yo'naltirishning asosini tashkil etmog'i kerak. Shu o'rinda yana bir holat oliy o'quv yurtlari yo'nalishlariga mos ravishda hamkor tashkilotlar bilan shartnomalar asosida ish joylarini tashkil etsalar maqbul ish bo'lar edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. – Toshkent: O'zbekiston. 1992. -46 b.
2. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev.-Toshkent; O'zbekiston, 2016.-56 b.
3. "Taqnidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-harbir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev.-Toshkent; O'zbekiston, 2017. – 104 b.
4. "Buyuk kelajagimizni mard va olivjanob xalqimiz bilan birga quramiz" O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev.-Toshkent; O'zbekiston, 2017. – 488 b.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi farmoni G'G'O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda, 20-son, 354-modda, 23-son, 448-modda, 37-son, 982-modda.
6. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T.: Sharq. 1997. - 64 b.
7. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. - T.: O'zbekiston. 1998. - 480 b.
8. Barkamol avlod orzusi ("Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni amalga oshirish borasidagi publisistik mulohazalar). - T.: Sharq. 1998. - 184 b.
9. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. - T.: O'zbekiston. 1999. - 686 b.
10. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot -pirovard maqsadimiz. Ikkinci chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasidagi ma'ruza. 2000 yil 22 yanvar. - T.: O'zbekiston 2000. - 77 b.

11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 24 oktyabrdagi "Umumiy o'rta ta'lif muassasalarining 10-11-sinflari o'quvchilariga kasbiy ta'lif berishga ixtisoslashgan o'quv-ishlab chiqarish majmularini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 868-son Qarori
12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 5 yanvardagi 5-sonli «Uzluksiz ta'lif tizimi uchun davlat ta'lif standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to'g'risida» gi qarori // Ta'lif taraqqiyoti №1. - T.: Sharq NMK.1998. 31-32 b.
13. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'lifi to'g'risida Nizom // Xalq ta'lifi 1998 №4 - 12-20 b.
14. Davlat ta'lif standartlari. -T.: Sharq, 1998. -503 b.
15. Turg'unov A.A. Mamlakatni modernizatsiyalash sharoitida yuqori sinf o'quvchilarini kasb-hunarni mustaqil tanlashga tayyorlashning tashkiliy-pedagogik tizimini takomillashtirish. Ped.f.f.d. (PhD) diss. – Nukus, 2018.
16. Asamova R.Z., G'oziev E. Kasb psixologiyasi. –T., 2000. – 36 b.
17. Jalolov A. Kasbga qanday tayyorlanadi. – T.: Yangi asr avlod, 2010.
18. Farhod Rahimjanovich Abduraxmonov Zuhra Erkinovna Abduraxmonova "Kasb Psixologiyasi" (Darslik) Toshkent - «Barkamol fayz media» – 2018
19. Sh.E.Ne'matov, O'.O.Tohirov, G.T.Yadgarova, N.Tashbaev. "O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish orqali umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lifi uzviyigini ta'minlashning nazariy-metodologik asoslari". – Toshkent: O'zPFITI bosmaxonasi, 2015. – 152 bet.
20. Xudoynazarov T.A. Sharq allomalarining yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish to'g'risidagi mulohazzalarining bugungi kundagi o'rni. J. Maktab va hayot. 2004. №2.
21. www.ziynet.Uz
22. www.lex.uz
23. www.Libriary.uz
24. www.Metod.uz
25. www.Referat.uz